

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

5A 320406- Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi
mutaxassisligi uchun

«GOMEOPATIYA VA VETERINARIYA DORI VOSITALARINI ISHLAB
CHIQRISH TEXNOLOGIYASI»

FANIDAN

O`QUV-USLUBIY MAJMUASI

TOSHIKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI



5A 320406- Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi
mutaxassisligi uchun

«GOMEOPATIYA VA VETERINARIYA DORI VOSITALARINI ISHLAB
CHIQRISH TEXNOLOGIYASI»

FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUASI

Tuzuvchi:

Nazarova Z.A. - DTT kafedrası professori, f.f.d., professor

Fayzullaeva N.S. - DTT kafedrası dotsenti, f.f.n., dotsent

Taqrizchi:

Tureeva G.M. - DTT kafedrası dotsenti, f.f.n., dotsent

Aripov Sh.T. – DVSIM qoshidagi strtifikatlashtirish idorasi yetakchi mutaxassisi, expert-auditor

**Kafedra majlisida tasdiqlangan,
majlis bayoni №**

MUKda ko'rib chiqildi va tasdiqlandi

«_ _» _____ yil _____ sonli bayonnomasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olingdi

№ AQ-5A320406-2.03

№ 10-11 2014 y.



Respublikasi Oliy va
o'rta maxsus ta'lim vazirining
_____ dagi
_____ sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan

«GOMEOPATIK VA VETERINAR DORI VOSITALARINI ISHLAB
CHIQARISH TEXNOLOGIYALARI»

MUTAXASSISLIK FANIDAN

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 509 000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minat

Ta'lim sohasi: 510 000- Sog'liqni saqlash

Mutaxassislik: 5A320406 – Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2015 yil «__» _____ dagi «__»-sonli bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Karieva Yo.S. – DTT kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
Nazarova Z.A. – DTT kafedrası professori, f.f.d., professor
Fayzullaeva N.S. – DTT kafedrası dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar:

Abdullabekova V.N. – Toshkent farmatsevtika instituti farmatsevtik kimyo kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent

Dusmatov A.F. – O`zR SSV Farmakopeya qo`mitasi raisi, farmatsevtika fanlari doktori.

Fanning o'quv dasturi Toshkent farmatsevtika instituti Markaziy uslubiy kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan.

_____ y ” _____ ” _____ dagi ” _____ ”-sonli bayonnoma.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq yuqori darajada ma'naviy va ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash ilmiy asoslangan, xalq manfaatlariga javob beruvchi dasturni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash tizimining taraqqiyoti va rivojlanishi yuqori saviyali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lib, magistratura talabalari o'zlarining mutaxassislik burchini, ya'ni aholini sifatli dori-darmon bilan ta'minlashda gomeopatik va veterinar dori vositalarini texnologiyasiga tegishli nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va ularni samarali ishlatilishi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Mazkur dastur Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi mutaxassisligiga mo'ljallangan bo'lib, magistratura talabalarini ixtisoslik fanidan zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni, kerakli ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi.

1.1. O'quv faning maqsadi va vazifalari

Dasturga asosan magistrarga gomeopatiya va veterinariya dori turlari texnologiyasining nazariy va amaliy masalalariga oid bilimlar, ularning tayyorlash texnologiyasi to'qrisida ma'lumotlar berish maqsad qilib belgilangan. Zamonaviy gomeopatiya va veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dorilar texnologiyasini o'zlashtirish qamda ularni tayyorlashda ishlatiladigan maqsadga muvofiq yordamchi moddalarni tanlash va ishlatish bo'yicha milliy andozalar talablariga asoslangan qolda, magistrarga nazariy va amaliy bilimlarni berish vazifa qilib qo'yilgan.

Fanni o'zlashtirish uchun magistrlar biologik kimyo, biotexnologiya, fiziologiya, gigiena, dori turlari texnologiyasi, maxsus dori turlari texnologiyasi, fizik va kolloid kimyo, farmakognoziya fanlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari kerak.

Fanni o'qitishda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunda ilqor pedagogik texnologiyalardan va axborot texnologiyalardan keng foydalaniladi. Ilqor pedagogik texnologiyalarni qo'llagan xolda uslubiy qo'llanmalar yaratish va ular asosida mashg'ulotlarni olib borish ko'zda tutiladi.

1.2. Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Fanning o'qitish davomida magistr quyidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak:

- dori turlari texnologiyasini yaratishdagi muammolar;

- gomeopatik va veterinar dorilarning ta'rifi va tasnifi;

quyidagi malakaga ega bo'lishi kerak:

- maqalliy xom ashyolar asosida gomeopatik va veterinar dori vositalari arsenalini kengaytirish;

- ko'p komponentli gomeopatik va veterinar dorilarini mo'tadil texnologiyasini tanlash;

- zamonaviy gomeopatik va veterinar dori turlari texnologiyasida yordamchi moddlarni qo'llash asoslari.

quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

-zamonaviy gomeopatik va veterinar dori turlarini mo'tadil tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish va sifatini baqolash, mo'tadil jihoz turini tanlash va turqunligini ta'minlash.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mutaxassislik fanlarini samarali o'zlashtirish uchun magistratura talabalari quyidagi fanlar bo'limlaridan etarli bilimlarga ega bo'lishi kerak:

- farmatsevtik texnologiya: texnologiya jarayonlari: tortish, maydalash, eritish, filtrlash, joylash, sterillash, turg'unlashtirish, rasmiylashtirish va x.k;
- biologik kimyo: lipidlar strukturasi va xossalari;
- fiziologiya, anatomiya: terini, shilliq qavatlarini tuzilishi va fiziologiyasi;
- gigiena: sanitariya gigiena qoidalari, sanoat gigienasi;
- maxsus dori turlari texnologiyasi: gomeopatik dorilar texnologiyasi, liposomalarni tuzilishi, polimer dori pardalar haqida tushuncha;
- farmakologiya va farmakokinetika: dori moddalarni farmakokinetik ko'rsatkichlari;
- fizika: magnetizm va magnit xodisalari;
- kimyo farmatsevtika ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari: gidrostatik va gidrodinamik jarayonlar, turli jinsli tizimlarni ajratish, suyuqlik va gaz aralashmalarini tashish, mavzum qaynash qatlami gidrodinamikasi, issiqlik almashinish va modda almashinish jarayonlari;
- biologik faol moddalar texnologiyasi: oqsillar, gormonlar, vaksinalar, vitaminlar, fermentlar, lipidlar, aminokislotalar, uglevodlar, antibiotiklar texnologiyasi. Mikrobiologik sintez jarayonlari.

Shu bilan birga matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (oliy matematika, informatika va informatsiyaon texnologiyalar, anorganik kimyo, organik kimyo, ekologiya), umumkasbiy fanlar (analitik kimyo, fizik va kolloid kimyo, kimyoviy mikrobiologiya, farmakologiya, muhandislik grafikasi, hayot faoliyati havfsizligi, kimyo-farmatsevtik ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari, metrologiya va standartizatsiya, umumiy kimyo texnologiyasi, elektrotexnika, farmakognoziya, farmatsevtik kimyo, ishlab chiqarish menejmenti, energotexnologiya)dan magistratura talabasi etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Farmatsevtika amaliyotida korxonalarda fanning bo'limlarida olingan bilimlarga asoslanib magistratura bitiruvchilari zamonaviy gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarishiga tegishli dolzarb masalalarni echishadi. Shu bilan birga farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish muammolarini yechish qobiliyatiga ega bo'lgan hamda kimyo-farmatsevtik ishlab chiqarishni loyihalash va uskunalashtirish jarayonlarini mukammal egallagan mutaxassislarini tayyorlaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Magistratura talabalarning mutaxassislik fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarini tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, multimedialardan, foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarida mavzuga mos ravishdagi axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan, jumladan “Loyiha”, «Aqliy xujum», “Bumerang”, “Klaster” “Blits - o'yin” va x.k. usullaridan keng foydalaniladi. Magistratura talabalari uchun institut Veb-saytidagi virtual kutubxonada kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan elektron o'quv-yo'llanmalardan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Asosiy qism

“Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalari”

Gomeopatik dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi. Gomeopatik dori vositalarini korxonada olish sharoitida olish tamoyillari, usullari va muammolari. Gomeopatik dori vositalarini ishlab chiqarishning zamonaviy xolati, rivojlanish yo'nalishlari, masalalari, muammolari. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (chet el firmalari: Germaniya, Avstriya, Frantsiya, AQSh va MDX firmalari: Rossiya, Ukraina, O'zbekiston va b.). Turkum gomeopatik dori vositalarini korxonada olish sharoitida ishlab chiqarish texnologiyasi va muammolari.

Mahalliy o'simlik xom ashyosi, jonivor va kimyoviy moddalar asosida olingan gomeopatik dori vositalari texnologiyasidagi muammolar. Mahalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish. Nomenklatura lug'atini tuzish tizimi.

Gomeopatik ko'p komponentli dori vositalarni (siroplar, eliksirlar, tomchilar va boshqalar) texnologiyasi. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi. Tananing patologik o'zgargan to'qimalari asosida olingan nozodlar. Sog'lom hayvon to'qimalari asosida olingan sarkodlar texnologiyasi. O'nlik va yuzlik suyultirilgan murakkab tarkibli gomakordlar texnologiyasi. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar, sarkodlar va gomokordlarning ta'rifi, tasnifi, guruhlari va belgilanishi bo'yicha farmakopeyasi, ishlatilishi va klinik aspektlari. Nozod va sarkod preparatlarining ishlab chiqarish texnologiyasi va zamonaviy nomenklaturasi.

Parenteral in'ellar - turli suyultirishdagi faol moddaning mujassamlangan ko'rinishi. Gomeopatik antidotlar va polixrestlar. Dori vositalarni dinamizatsiyalash. Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari (turg'unlashtirish, zamonaviy yordamchi moddalarni va asbob uskunalarni qo'llash). Materiya medikadagi gomeopatik dinamizatsiyalangan dori vositalari texnologiyasi.

Gomeopatik LM-potentsiyalar. Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari, ularni tanlashda qo'llaniladigan sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlar, gomeopatik dorilarni patogenezi ta'rifi, keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi. Ganeman bo'yicha gomeopatik dorilar patogenezi. Gomeopatik dorilar ta'siriga organizmning reaksiyasi va uni aniqlashda qo'llaniladigan Fol va Gabovich usullari mohiyati. Gomeopatik

preparatlarini turli kasalliklarda qo'llash asosiy prinsiplari: potentsiyalar, vaqti, davomligi va boshq.

Veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi. Veterinariya dori turlarini ishlab chiqarish tarixi, zamonaviy xolati, va rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy veterinariya dori preparatlarining tavsifi, ta'rifi va nomenklaturasi. Zamonaviy veterinar preparatlarni yaratishdagi muammolar. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida mahsuldorlikni oshiruvchi va immun tizimiga ta'sir etuvchi veterinar dorilar texnologiyasi.

Veterinar dori vositalarni ishlab chiqarishning o'ziga xos taraflari. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq (poroshoklar, dustlar, premikslar, briketlar, granulalar, tabletkalar, kapsulalar, qalamchalar va boshq.), suyuq (eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar, murakkab tarkibli miksturalar, galen, yangi galen preparatlari va boshq.), yumshoq (surtmalar, pastalar, linimentlar, malhamlar, shamchalar, dorivor pardalar va boshq.), steril (in'eksion va infuzion eritmalar, ko'z tomchilar va boshq.) dorilar texnologiyasi. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfeksiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenklaturasi. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi, ularni sifatini baholash va jihozlash masalalari. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi. Veterinar preparatlarini takomillashtirish yo'llari.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

” Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi”

Gomeopatik ko'p komponentli tomchilar texnologiyasi

Gomeopatik kompleks ta'sirli siroplar texnologiyasi

Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi

Gomeopatik sirtki suyuq dorilar texnologiyasi

Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasi

Gomeopatik kompleks ta'sirli granulalar texnologiyasi

Gomeopatik qattiq dori turlari texnologiyasini takomillashtirish

Gomeopatik drenajli (tozalovchi) dori vositalari texnologiyasi

Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi

Kompleks ta'sirli ko'p komponentli gomeopatik preparatlar texnologiyasi.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari: poroshoklar, briketlar, granulalar, tabletkalar va kapsulalar texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: galen va yangi galen preparatlari texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfeksiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenkaturasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi

Veterinar dori turlarining sifatini baholash

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Magistratura talabalarning mustaqil ishi bajarishda ularning o'qitilayotgan fanlarini chuqur o'zlashtirish, topshiriq va o'quv – izlanish ishlarini bajarishda ijodiy yondashish, mustaqil fikrlashga va o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirishga intilish xususiyatlarini shakllantirish yotadi. Magistratura talabalarning mustaqil ishini bajarishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish ko'zda tutiladi va uning shakllari mavzu bo'yicha referat, internet ma'lumotlarni to'plash, bibliografik annotatsiya tayyorlash, virtual mashg'ulot uchun senariy yozish, axborot texnologiyalarni qo'llab, taqdimotlarni tayyorlash, test savollari, sxema, diagramma, umumlashtirilgan vaziyatli masala, blok sxema va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin

Mustaqil ishlarning namunaviy mavzulari

- Gomeopatiyaga oid davolash printsiplaridan Gering qonuni
- Gomeopatik antidotlar va polixrestlar
- Gomeopatik preparatlarining agregat xolati buyicha tasnifi
- Gomeopatik preparatlarining dispersologik tasnifi
- Gomeopatiyada ishlatiladigan mineral va hayvon moddalar tasnifi.
- Gomeopatik nozodlar
- Gomeopatik sarkodlar
- Gomeopatik katalitik preparatlar ta'rifi, tasnifi
- Gomeopatik gomakordlar va in'ellar
- Gomeopatik LM- potentsiyalar
- Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan bolyuslar texnologiyasi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan damlama, qaynatma va shilimshiqlar texnologiyasi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan shamchalar va qalamchalar texnologiyasi
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi. Sterillash usullari
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfeksiyalovchi va antiseptik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni zamonaviy nomenklaturasi.

- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi
- Veterinariya dori turlarini jihozlash uchun ishlatiladigan materiallar ta'rifi va ularga qo'yiladigan talablar
- Zamonaviy veterinariya vaksinalari, zardoblari va globulinlari nomenklaturasi

Kurs ishlarining taxminiy mavzulari

Kurs ishining maqsadi magistratura talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar xosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi sharoitlarga mos texnik va texnologik echimlar qabul qilish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olish va ularni amalda ko'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir. quyida bajarilishi lozim bo'lgan kurs ishlarining taxminiy mavzulari keltirilgan.

- Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi.,
- Gomeopatiya ta'limotining tarixi va rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlarning merosi.
- Gomeopatik sirtki suyuq dorilar texnologiyasi.
- Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi.
- Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi
- Gomeopatik preparatlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar.
- Gomeopatik dorilarni patogenezi haqida tushuncha. Keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi.
- Germaniya, Avstriya, Frantsiya, AQSh, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston va boshqa davlatlarida ishlab chiqarilayotgan gomeopatik dori preparatlari nomenklaturasi.
- Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlarning ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi.
- Veterinariya faning tarixi va rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori preparatlari texnologiyasining o'ziga xosligi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan miksturalar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan in'ektsion eritmalar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, yig'malar va briketlar texnologiyasi.

- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan granulalar, tabletkalar, drajelar, kapsulalar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfeksiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik dori vositalari texnologiyasi

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar xamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

Asosiy:

1. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).
2. Тихонов А.И. и др. Основы гомеопатической фармации.-Харьков: Золотые страницы, 2002.-574 с.
3. Тихонов А.И., Ярных Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.
4. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.-Т.2.-761 с.

Qo'shimcha:

1. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси. – Тошкент, 2009.- 163 б.
2. Махмуджонова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М., Файзуллаева Н.С., Назирова Я.К. “Дори тайёрлаш технологияси” фанидан маъруза матнлари.- Тошкент, 2005.- 320 б.
3. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.
4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.
5. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент, 2001.- 87 с.

Internet saytlari

1. [www. http://protabletki.ru](http://protabletki.ru)
2. [www. http://nanolab.com.ua](http://nanolab.com.ua)

Mundarija

Kirish.....	3
Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.....	5
Asosiy qism.....	5
Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.....	6
Mustaqil ishlarini tashkil etish.....	7
Kurs ishlari taxminiy mavzulari.....	8
Adabiyotlar ro'yxati.....	10

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

MA'RUZA	GOMEOPATIYANING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI
Ta'limning texnologik modeli	
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatiyaning tarixini. 2. Gomeopatiyaning zamonaviy holatini. 3. Gomeopatiyani rivojlanish yo'nalishlarini. 4. Gomeopatik dorilar texnologiyasining asosiy muammolarini.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeopatiya dori turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish, dori turlarini olish va sifatini baholash bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatiyaning tarixini. 2. Gomeopatiyani hozirgi xolatini. 3. Gomeopatiyani rivojlanishini. 4. Gomeopatiyadagi muammolarni. 	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalar biladilar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatiyaning tarixini. 2. Gomeopatiyani hozirgi xolatini. 3. Gomeopatiyani rivojlanishini. 4. Gomeopatiyadagi muammolarni.
Ta'lim usullari	“Tanishuv” va “Kontakt” treninglari, dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali materiallarlar.
O'qitish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Monitoring va baholash	Blits-test, tezkor so'rov, aqliy hujum, munozara.

II. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiliki	talabalarniki
Ma'ruza: tayyorgarlik bosqichi		
1-boqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (7 daq)	<p>1. "Tanishuv" treningi yordamida talabalar bilan muloqot o'tkazadi.</p> <p>1.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar etkaziladi; Mashg'ulot ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi.</p> <p>1.2. "Kontakt" treningi yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar va kalit so'zlar bilan tanishadilar.</p>	<p>Talabalar o'zlarini tanishtiradilar va davomat tekshiriladi.</p> <p>Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>Tushunchalarini aytadilar va to'g'ri atamalarni daftarga yozadilar.</p>
2-boqich. Asosiy bosqich (63 daq)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruzaga oid tarqatma material tarqatiladi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishish taklif qilinadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Slaydlarni Pover point tartibida veterinariya fanining asosiy tushunchalari, atamalari, tarihi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha talabalarga ma'lumot berish. 	<p>O'qiydilar.</p> <p>Tinglaydilar, ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Savol beradilar.</p>
	<p>2.3. Gomeonatik dori turlarini ishlatish zaruriyati, tavsifi, ta'rifi va ularga qo'yiladigan talablar.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Gomeopatiyaning tarixini. • Gomeopatiyaning zamonaviy holatini. • Gomeopatiyani rivojlanish yo'nalishlarini. • Gomeopatik dorilar texnologiyasining asosiy muammolarini. 	<p>Ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Mavzu bo'yicha berilgan savollarga tezkor javob berishadi</p>
	<p>2.4. Gomeonatik dori turlarini ishlatish zaruriyati, tavsifi, ta'rifi va ularga qo'yiladigan talablar.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar. Savol beradilar.</p>
	<p>2.5. Gomeonatik dori turlari texnologiyasi.</p> <p>2.6. Gomeonatik dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.</p>	<p>Asosiy tushunchalar muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.</p>
3-boqich. Yakuniy (10 daq)	<p>3.1 Mavzu bo'yicha yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi.</p> <p>3.2 Mustaqqil ish uchun tonshiriq beriladi. Savollarga javob beradi</p>	<p>Savollar berishadi</p>

MA'RUZA	NOAN'ANAVIY DAVOLASH USULLARI. GOMEOPATIK DORILAR TA'SIRIGA ORGANIZMNING REAKSIYASI	
Ta'limning texnologik modeli		
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta	
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza	
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlar: 2. Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi, ishlatiladigan dori turlari. Gomeopatik dorilarni tanaga ta'sir etish mexanizmlari. 3. Kompleks preparatlar bilan davolash usuli 4. Fol' va 3 Gabovich usullari 5. G.G. Rekevech nazariyasiga asoalangan noan'aviy gomeopatik usuli 6. Bax usuli asosida gullar dorilari bilan davolash usuli 7. Gomeopatiyani spetsifikasi 8. CHap va o'ng tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalari 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeopatiya fani to'g'risida tushuncha hosil qilish, bilimlarni shakllantirish.		
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • .Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlarini bilish. • Kompleks preparatlar bilan davolash usuli • Fol' va 3 Gabovich usullari • G.G. Rekevech nazariyasiga asoalangan noan'aviy gomeopatik usuli • Bax usuli asosida gullar dorilari bilan davolash usuli • Gomeopatiyani spetsifikasini o'zlashtirish • CHap va o'ng tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalari o'tkazish tartibi bilan tanishish. • Gomeopatiya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash. 	<p style="text-align: center;">O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p style="text-align: center;">talabalar biladilar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlari: 2. Kompleks preparatlar bilan davolash usuli 3. Fol' va 3 Gabovich usullari 4. G.G. Rekevech nazariyasiga asoalangan noan'aviy gomeopatik usuli 5. Bax usuli asosida gullar dorilari bilan davolash usuli 6. Gomeopatiyani spetsifikasi 7. CHap va o'ng tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalari 	
Ta'lim usullari	Dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim	
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali materiallarlar.	
O'qitish shakllari	Ommaviy, jamoaviy	
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona	
Monitoring va baholash	Savol-javob, "Klaster", "Blits-so'rov", "Fikrlash xaritasi.	

II. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiliki	talabalarniki
Ma'ruza: tayyorgarlik bosqichi		
1-boqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (7 daq)	2. Dialogik yondoshuv treningi yordamida talabalar bilan muloqot o'tkazadi. 2.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar etkaziladi; Mashg'ulot ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi. 2.2. "Muammoli ta'lim" treningi yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar va kalit so'zlar bilan tanishadilar.	Talabalar o'zlarini tanishtiradilar va davomat tekshiriladi. Tinglaydilar, yozib oladilar Tushunchalarini aytadilar va to'g'ri atamalarni daftarga yozadilar.
2-boqich. Asosiy bosqich (63 daq)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruzaga oid tarqatma material tarqatiladi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishish taklif qilinadi. • Slaydlarni Pover point tartibida gomeonatiya fanining asosiy tushunchalari, atamalari, tarihi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha talabalarga ma'lumot berish.	O'qiydilar. Tinglaydilar, ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Savol beradilar.
	2.3. Gomeonatiya faniga kirish, asosiy tushunchalar va atamalar. Gomeonatiya fanining tarixi. Gomeonatiya fanining rivojlanishiga olimlarning qo'shgan hissasi va merosining ahamiyati.	Ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Mavzu bo'yicha berilgan savollarga tezkor javob berishadi
	2.4. Gomeopatik davolash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlari	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savol beradilar.
	2.5. Kompleks preparatlar bilan davolash usuli; Fol' va 3 Gabovich usullari; G.G. Rekevech nazariyasiga asoalangan noan'aviy gomeopatik usuli; Bax usuli asosida gullar dorilari bilan davolash usuli; Gomeopatiyani spetsifikasi; CHap va o'ng tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalari	Asosiy tushunchalar muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-boqich. Yakuniy (10 daq)	3.3 Mavzu bo'yicha yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.4 Mustaqqil ish uchun tonshiriq beriladi. Savollarga javob beradi	Savollar berishadi

MA'RUZA	GANEMAN BUYICHA GOMEOPATIK DORILAR PATOGENEZI	
Ta'limning texnologik modeli		
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta	
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza	
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik usulda davolash qoidalari 2. Gomeopatik dorini tanlash 3. Gomeopatik dorilarni patogenezi xaqida tushuncha. Keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi. 4. Gomeopatik spetsifikasi 5. O'ng va chap tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalar. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeonatiya fani to'g'risida tushuncha hosil qilish, bilimlarni shakllantirish.		
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Gomeopatik usulda davolash qoidalarini bilish. Gomeopatik dorini tanlashni; Gomeopatik spetsifikasini o'zlashtirish • O'ng va chap tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalarni o'tkazish tartibi bilan tanishish. • Gomeonatiya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash. 	<p style="text-align: center;">O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p style="text-align: center;">talabalar biladilar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik usulda davolash qoidalarini 2. Gomeopatik dorini tanlashni 3. Dorilar patogenezi 4. Gomeopatik spetsifikasini 5. O'ng va chap tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalarni 	
Ta'lim usullari	dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim	
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali materiallarlar.	
O'qitish shakllari	Ommaviy, jamoaviy	
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona	
Monitoring va baholash	Savol-javob, tezkor so'rov, aqliy hujum, "Klaster", CHarxpalak.	

II. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiniki	talabalarniki
Ma'ruza: tayyorgarlik bosqichi		
1-boqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (7 daq)	1. Dialogik yondoshuv treningi yordamida talabalar bilan muloqot o'tkazadi. 2.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar etkaziladi; Mashg'ulot ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi. 2.2. "Muammoli ta'lim" treningi yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar va kalit so'zlar bilan tanishadilar.	Talabalar o'zlarini tanishtiradilar va davomat tekshiriladi. Tinglaydilar, yozib oladilar Tushunchalarini aytadilar va to'g'ri atamalarni daftarga yozadilar.
2-boqich. Asosiy bosqich (63 daq)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruzaga oid tarqatma material tarqatiladi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishish taklif qilinadi. • Slaydlarni Pover point tartibida gomeonatiya fanining asosiy tushunchalari, atamalari, tarihi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha talabalarga ma'lumot berish.	O'qiydilar. Tinglaydilar, ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Savol beradilar.
	2.3. Gomeonatiya faniga kirish, asosiy tushunchalar va atamalar. Gomeonatiya fanining tarixi. Gomeonatiya fanining rivojlanishiga olimlarning qo'shgan hissasi va merosining ahamiyati.	Ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Mavzu bo'yicha berilgan savollarga tezkor javob berishadi
	2.4. Gomeopatik usulda davolash qoidalari 2.Gomeopatik dorini tanlas	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savol beradilar.
	2.5. Dorilar patogenezi; gomeopatik spetsifikasi; o'ng va chap tomonlama ta'sir etuvchi gomeopatik vositalar.	Asosiy tushunchalar muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-boqich. YAkuniy (10 daq)	3.5 Mavzu bo'yicha yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.6 Mustaqil ish uchun tonshiriq beriladi. Savollarga javob beradi	Savollar berishadi

MA'RUZA	GOMEOPATIK DORILARNI TANLASH ASOSLARI
Ta'limning texnologik modeli	
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Diaqnoz, uning ta'rifi, axamiyati 2. Gomeopatiya dorilarni tanlash asoslari; Gomeopatik dorilarni tanlashda sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlar. 3. Umumiy xolat 4. Bemorlarni partasinituzish 5. Gomeopatik dorini tanlanishidagi ko'rsatmalar. 6. Fol va Gabovich usullari mohiyati.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeopatiya fani to'g'risida tushuncha hosil qilish, bilimlarni shakllantirish.	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Diaqnoz, uning ta'rifi, axamiyatini bilish. • Gomeopatiya dorilarni tanlash asoslari; • Umumiy xolati • Bemorlarni partasinituzishni o'zlashtirish • Gomeopatik dorini tanlanishidagi ko'rsatmalarni o'tkazish tartibi bilan tanishish. • Gomeopatiya atamalari bilan tanishish va ularni izohlash. 	<p>O'quv faoliyatining natijalari: talabalar biladilar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Diaqnoz, uning ta'rifi, axamiyati 2. Gomeopatiya dorilarni tanlash asoslari; 3. Umumiy xolat 3. Bemorlarni partasinituzish 4. Gomeopatik dorini tanlanishidagi ko'rsatmalar.
Ta'lim usullari	dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali materiallarlar.
O'qitish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Monitoring va baholash	Tezkor so'rov, munozara, T-sxema, o'z-o'zini nazorat

II. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiniki	talabalarniki
Ma'ruza: tayyorgarlik bosqichi		
1-boqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (7 daq)	1. Dialogik yondoshuv treningi yordamida talabalar bilan muloqot o'tkazadi. 2.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar etkaziladi; Mashg'ulot ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi. 2.2. "Muammoli ta'lim" treningi yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar va kalit so'zlar bilan tanishadilar.	Talabalar o'zlarini tanishtiradilar va davomat tekshiriladi. Tinglaydilar, yozib oladilar Tushunchalarini aytadilar va to'g'ri atamalarni daftarga yozadilar.
2-boqich. Asosiy bosqich (63 daq)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruzaga oid tarqatma material tarqatiladi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishish taklif qilinadi. • Slaydlarni Pover point tartibida gomeopatiya fanining asosiy tushunchalari, atamalari, tarihi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha talabalarga ma'lumot berish.	O'qiydilar. Tinglaydilar, ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Savol beradilar.
	2.3. Diagnostika, uning ta'rifi, ahamiyati 2. Gomeopatiya dorilarni tanlash asoslari ahamiyati.	Ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Mavzu bo'yicha berilgan savollarga tezkor javob berishadi
	2.4. Umumiy xolat; bemorlarni partasinituzish	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savol beradilar.
	2.5. Gomeopatik dorini tanlanishidagi ko'rsatmalar.	Asosiy tushunchalar muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-boqich. Yakuniy (10 daq)	3.7 Mavzu bo'yicha yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.8 Mustaqqil ish uchun tonshiriq beriladi. Savollarga javob beradi	Savollar berishadi

MA'RUZA	MAXALLIY XOM ASHELAR YORDAMIDA GOMEOPATIK IREPARATLAR YARATISH. NOMENKLATURA LUG'ATI	
Ta'limning texnologik modeli		
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta	
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza	
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maxalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish. Nomenklatura lug'atini tuzish tizimi. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning ishlatish zaruriyati (axdmiyati). 2. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar nomenklaturasi 3. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning xar xil kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi: O'RK (ORZ) va gripp, virusga qarshi, immunomodullovchi, konstitutsional vositalar (bolalar va kariyalar uchun) psixika buzilishida, alkogol va tabak chekish muammolarida, uyqusizlik va gormonal o'zgarishlar vaqtida va xokazo. 4. Gomeopatik dorivor vositalarni V.SHvabe qo'llanmasidagi nomenklaturasi. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeonatiya fani to'g'risida tushuncha hosil qilish, bilimlarni shakllantirish.		
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:	
<ul style="list-style-type: none"> • Maxalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish. Nomenklatura lug'atini tuzish tizimi. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning ishlatish zaruriyati (axdmiyati); Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar tarkibi, texnologiyasi; Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar nomenklaturasini bilish. • Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning xar xil kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi: O'RK (ORZ) va gripp, virusga qarshi, immunomodullovchi, konstitutsional vositalar (bolalar va kariyalar uchun) psixika buzilishida, alkogol va tabak chekish muammolarida, uyqusizlik va gormonal o'zgarishlar vaqtida va xokazo; gomeopatik dorivor vositalarni Gomeonatiya atamalarini bilan tanishish va ularni izohlash. 	talabalar biladilar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Maxalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish. Nomenklatura lug'atini tuzish tizimi. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning ishlatish zaruriyati (axdmiyati). 2. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar nomenklaturasi 3. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlarning xar xil kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi: O'RK (ORZ) va gripp, virusga qarshi, immunomodullovchi, konstitutsional vositalar (bolalar va kariyalar uchun) psixika buzilishida, alkogol va tabak chekish muammolarida, uyqusizlik va gormonal o'zgarishlar vaqtida va xokazo. 4. Gomeopatik dorivor vositalarni V.SHvabe qo'llanmasidagi nomenklaturasi. 5. 	
Ta'lim usullari	dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim	
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali materiallarlar.	
O'qitish shakllari	Ommaviy, jamoaviy	
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona	
Monitoring va baholash	Tezkor so'rov, blits-so'rov, "baliq skeleti", guruhlarda ishlash metodi.	

II. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiniki	talabalarniki
Ma'ruza: tayyorgarlik bosqichi		
1-boqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (7 daq)	1. Dialogik yondoshuv treningi yordamida talabalar bilan muloqot o'tkazadi. 2.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar etkaziladi; Mashg'ulot ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi. 2.2. "Muammoli ta'lim" treningi yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar va kalit so'zlar bilan tanishadilar.	Talabalar o'zlarini tanishtiradilar va davomat tekshiriladi. Tinglaydilar, yozib oladilar Tushunchalarini aytadilar va to'g'ri atamalarni daftarga yozadilar.
2-boqich. Asosiy bosqich (63 daq)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruzaga oid tarqatma material tarqatiladi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishish taklif qilinadi. • Slaydlarni Pover point tartibida gomeopatiya fanining asosiy tushunchalari, atamalari, tarihi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha talabalarga ma'lumot berish.	O'qiydilar. Tinglaydilar, ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Savol beradilar.
	2.3. Maxalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish. Nomenklatura lug'atini tuzish tizimi. Kompleks ta'sirli gomeopatik preparatlar nomenklaturasi.	Ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Mavzu bo'yicha berilgan savollarga tezkor javob berishadi
	2.4. Gomeopatiya va allopatiya amaliyotida qo'llaniladigan o'simliklar turlari uzaro mosligi jadval yordamida V. SHvabe qo'llanmasi, XI DFsi va mahalliy o'simliklar turlarini keltirish.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savol beradilar.
	2.5. O'zbekiston xududlarida o'sadigan va madaniylashtirilgan o'simlik xom ashyolar sonini o'zlashtirish	Asosiy tushunchalar muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-boqich. YAkuniy (10 daq)	3.9 Mavzu bo'yicha yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.10 Mustaqqil ish uchun to'rtshiriq beriladi. Savollarga javob beradi	Savollar berishadi

MA'RUZA	GOMEOPATIK VOSITALARNING ISHLAB CHIQRISH MASALALARI (CHET ELDA, MDH va O'ZBEKISTONDA)
Ta'limning texnologik modeli	
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolari. 2. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (chet el firmalari: Germaniya, Avstriya, Fransiya, AQSH, va boshqalar). 3. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (MDH firmalari: Rossiya, O'zbekiston va boshqalar)
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeopatiya dori turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish, qeterinar qattiq dori turlarini olish va sifatini baholash bilimlarni shakllantirish.	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolarini bilish. 2. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (chet el firmalari: Germaniya, Avstriya, Fransiya, AQSH, va boshqalar) o'zlashtirish. 3. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (MDH firmalari: Rossiya, O'zbekiston va boshqalar) 	<p>O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talabalar biladilar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolarini. 2. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (chet el firmalari: Germaniya, Avstriya, Fransiya, AQSH, va boshqalar). 3. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (MDH firmalari: Rossiya, O'zbekiston va boshqalar)
Ta'lim usullari	dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali materiallarlar.
O'qitish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Monitoring va baholash	Tezkor so'rov, blits-so'rov, munozara, "Bumerang", "Klaster", T-sxema, o'z-o'zini nazorat.

II. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiliki	talabalarniki
Ma'ruza: tayyorgarlik bosqichi		
1-boqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (7 daq)	<p>1. Dialogik yondoshuv treningi yordamida talabalar bilan muloqot o'tkazadi.</p> <p>2.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar etkaziladi; Mashg'ulot ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi.</p> <p>2.2. "Muammoli ta'lim" treningi yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalar va kalit so'zlar bilan tanishadilar.</p>	<p>Talabalar o'zlarini tanishtiradilar va davomat tekshiriladi.</p> <p>Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>Tushunchalarini aytadilar va to'g'ri atamalarni daftarga yozadilar.</p>
2-boqich. Asosiy bosqich (63 daq)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruzaga oid tarqatma material tarqatiladi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishish taklif qilinadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Slaydlarni Plover point tartibida veterinariya fanining asosiy tushunchalari, atamalari, tarihi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha talabalarga ma'lumot berish. 	<p>O'qiydilar.</p> <p>Tinglaydilar, ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Savol beradilar.</p>
	2.3. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolarga qo'yiladigan talablar.	Ma'lumotlarni daftarga ko'chirib oladilar. Mavzu bo'yicha berilgan savollarga tezkor javob berishadi
	2.4. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (chet el firmalari: Germaniya, Avstriya, Fransiya, AQSH, va boshqalar).	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savol beradilar.
	2.5. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolarga qo'yiladigan talablar. 2.6. Zamonaviy ishlab chiqarilayotgan gomeopatik vositalar nomenklaturasi va har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan preparatlar (chet el firmalari: Germaniya, Avstriya, Fransiya, AQSH, va boshqalar).	Asosiy tushunchalar muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-boqich. Yakuniy (10 daq)	<p>3.11 Mavzu bo'yicha yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi.</p> <p>3.12 Mustaqqil ish uchun tonshiriq beriladi. Savollarga javob beradi</p>	Savollar berishadi

MA'RUZA	GOMEOPATIK DORI PREPARATLARI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	
Ta'limning texnologik modeli		
O'quv soati: 2 soat	tinglovchilar soni: 15 ta	
O'quv mashg'uloti shakli	Ko'rgazmali ma'ruza, axborotli ma'ruza	
O'quv mashg'ulot tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik va allopatik davolash usullarini mutanosibligi masalasini xolati. 2. Gomeopatik davolash usulini boshqa tibbiyotini noan'anaviy davolash usullari bilan birga ko'llanishi. 3. Gomeopatik dorilar arsenalini boshkatdan ko'rib chikish va importlilari o'rniga maxalliyalarini ishlab chiqishi. 4. Gomeopatik dori turlari assortimentini kengaytirishi. Masalan, in'eksiya eritmalari, ko'z dori turlari, aerzollar, tabletkalar, terapevtik sistemalarni gomeopatiyaga kiritib gomeopatiyada reglamentirilgan preparatlarni ko'paytirish. 5. Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasida zamonaviy yordamchi moddalar YUm, Sfm, erituvchilar, stabilizatorlar, surtma dorilar uchun emulsion va gidrafil asoslar ishlatilishi. 6. Gomeopatik essensiyalar, tinktura, granula, tomchilar texnologiyasini takomillashtirish. 7. Har xil suyultirishlarda ishlatiladigan gomeopatik dori vasitalarini sifatini baholash uchun keng ko'lamda zamonaviy, sezgir bo'lgan fizik kimyoviy tahlil usullarini qo'llanilishi. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda gomeopatiya fani to'g'risida tushuncha hosil qilish, bilimlarni shakllantirish.		
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> • Gomeopatik va allopatik davolash usullarini mutanosibligi masalasini xolatini va gomeopatik davolash usulini boshqa tibbiyotini noan'anaviy davolash usullari bilan birga ko'llanishini bilish. • Gomeopatik dorilar arsenalini boshkatdan ko'rib chikish va importlilari o'rniga maxalliyalarini ishlab chiqishini. • Gomeopatik dori turlari assortimentini kengaytirishi (in'eksiya eritmalari, ko'z dori turlari, aerzollar, tabletkalar, terapevtik sistemalar, essensiyalar, tinktura, granula, tomchilar texnologiyasini) va takomillashtirishni o'zlashtirish • Eng zarur bo'lgan masalalardan biri bilan tanishish. 	O'quv faoliyatining natijalari: talabalar biladilar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Gomeopatik va allopatik davolash usullarini mutanosibligi masalasini xolatini. 2. Gomeopatik davolash usulini boshqa tibbiyotini noan'anaviy davolash usullari bilan birga ko'llanishini. 3. Gomeopatik dorilar arsenalini boshkatdan ko'rib chikish va importlilari o'rniga maxalliyalarini ishlab chiqishini. 4. Gomeopatik dori turlari assortimentini kengaytirishi. Masalan, in'eksiya eritmalari, ko'z dori turlari, aerzollar, tabletkalar, terapevtik sistemalarni gomeopatiyaga kiritib gomeopatiyada reglamentirilgan preparatlarni ko'paytirishni. 5. Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasida zamonaviy yordamchi moddalar YUm, Sfm, erituvchilar, stabilizatorlar, surtma dorilar uchun emulsion va gidrafil asoslar ishlatilishini. 6. Gomeopatik essensiyalar, tinktura, granula, tomchilar texnologiyasini takomillashtirishni. <p>Har xil suyultirishlarda ishlatiladigan gomeopatik dori vasitalarini sifatini baholash uchun keng ko'lamda zamonaviy, sezgir bo'lgan fizik kimyoviy tahlil usullarini qo'llanilishini.</p>	
Ta'lim usullari	dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim	
1	8	3	Gomeopatiyada moddalarni suyultirish sharoiti	*oftob nuri to'qri tushmagan, salqin xonada	dorixonaning aseptik xonasida	aloxida xonada	assistent xonasida
1	8	3	Gomeopatik essentsiyalar nima?	*yangi terib olingan o'simliklardan siqib olingan shirani 90% spirt bilan teng miqdordagi aralashmasi	yangi terib olingan o'simliklardan 1:5 nisbatda olingan anisuvli ajratmava 90% etil spirtning aralashmasi	1:5 nisbatda tayyorlangan quritilgan o'simliklarning suvli-spiritli ajratmasi	1:10 nisbatda tayyorlangan quritilgan o'simliklarning suvli-spiritli ajratmasi
1	8	2	Essentsiyalarni qanday muddatga tindirish uchun qoldirish kerak	*8-14 kun	2 kun	5 kun	10 kun

1	8	3	Gomeopatik farmakopeyasining 1-bandiga ko'ra essentsiya qanday tayyorlanadi?	*o'simlikdan olingan shira va teng miqdorda 90%li spirt bilan aralashtiriladi	1 og'irlik qism siqib olingan shira va 2 og'irlik qism 90%li spirt bilan aralashtiriladi	2 og'irlik qism siqib olingan shira va 1 og'irlik qism 90%li spirt bilan aralashtiriladi	teng og'irlikqismda o'simlikdan olingan shira va 70%li spirt bilan aralashtiriladi
1	8	3	1-band bo'yicha tayyorlangan essentsiyalardan spirtlitinktura tayyorlash uchun qo'shish kerak	*2 qism essentsiyaga 8 qism 45% spirt	2 qism essentsiyaga 8 qism 60% spirt	1 qism essentsiyaga 15 qism 90% spirt	1 qism essentsiyaga 12 qism 45% spirt
1	8	1	Gomeopatiya farmakopeyasining qaysi bandida tinktura texnologiyasi ko'rsatilgan?	*4 band	5 band	7 band	1 band
1	8	1	Gomeopatiya suv-spirtli eritmalari qanday foizli spirtida tayyorlanadi?	*90%, 60%, 45%	50%, 45%	70%	45%
1	8	3	Xayvon to'qimalaridan gomeopatik tinktura qanday nisbatda tayyorlanadi?	*1:10	1:20	1:1	1:2
1	8	1	Matseratsiya usulida gomeopatik tinktura tayyorlashda xom ashyo etil spirt bilan necha kunga qoldiriladi?	*8 kun	16 kun	5 kun	2 kun
1	8	1	Tinkturalar qanday idishga jihozlanadi?	*qo'ng'ir, qopqoqi mahkam yopilgan idishga	qopqoqi yaxshi yopilgan rangsiz idishga	qo'ng'ir, po'kak qopqoqli idishga	oddiy idishga
1	8	2	Aloe tinkturasidan 20ta shamcha tayyorlash uchun tinkturadan qancha olinadi?	*400 tomchi	100 tomchi	10 tomchi	20 tomchi
1	8	1	Gomeopatiya shamchalarini og'irligi ko'rsatilmagan bo'lsa necha grammdan tayyorlash kerak?	*3g	2,5g	1,5g	5g

1	8	2	Gomeopatiya surtma dorisini allopatiya surtma dorilaridan farqi bormi?	*kichik dozada mineral tuzlar, gomeopatik tinktura, essentsiyalardantayyorlanadi	konsentratsiyasi dafarq bor	kichik dozada bo'ladi va mineral tuzlardan tayyorlanadi	farqi yo'q
1	8	2	Gomeopatiya surtmalari qanday konsentratsiyada tayyorlanadi?	*10%yoki 5%	20%	5%	1% yoki 10%
1	8	3	Gomeopatiya surtma dorisi tayyorlashda qanday asoslar ishlatiladi?	*gidrofob, gidrofil, emulsion	gidrofob va gidrofil	gidrofil, lipofil	gidrofob, emulsion
1	9	1	Gomeopatiyada dastlabki moddalarni suyultirishda qanday moddalar ishlatiladi?	*suv, spirt, sut qandi	shakar	glyukoza	suv
1	9	3	Suvli eritmadan 1c suyultirishdagi 10g gomeopatik trituratsiya tayyorlash uchun qancha suvli eritma va sut qandi olinadi?	*2 tomchi suvli eritma 9,9g sut qandi	10 tomchi suvli eritma 9,9g sut qandi	10 tomchi suvli eritma 9g sut qandi	2 tomchi suvli eritma 10 gacha sut qandi
1	9	2	Gomeopatik suyultirishlar qaysi usulda olib boriladi?	*og'irlik	og'irlik-hajmiy	hajmiy	foizda
1	9	1	Gomeopatiyadagi suyultirish shkalalarini keltiring	*o'nlik va yuzlik	millionlik	minglik	faqat o'nlik
1	9	3	O'nlik shkala (1x) bo'yicha sulfur ning trituratsiyasini olish uchun	*bir soat davomida 1g sulfur 9g sut qandi bilan xovonchada maydalanadi	1g sulfur 10g shakar bilan xovonchada aralastiriladi	1g sulfur 9g kraxmal bilan xovonchada maydalanadi	bir soat davomida 1g sulfur 9g glyukoza bilan maydalanadi
1	9	2	O'nlik shkala bo'yicha 1x trituratsiyalarni tayyorlash uchun	*1g modda 9 g sut qandi olinadi	1g modda 99 g shakar olinadi	1g modda 99 g kraxmal olinadi	1g modda 9 g glyukoza olinadi
1	9	2	Gomeopatiyada o'nlik suyultirishni ifodalanishi	*d yoki x xarfi bilan (1x,3d)	rim raqamlari bilan	c xarfi bilan (1c)	grammlarda

1	9	2	Gomeopatik dorilarni suyultirish qoidalari qaerda keltirilgan?	*V.Shvabe gomeopatiya qo'llanmasida	me'yoriy hujjatlarda	davlat farmakopeyasida	tarmoq standartida
1	9	2	Gomeopatiyada yuzlik suyultirishni retseptdagi ifodalanishi qanday?	*1,2,3 raqamlar yoki C xarfi bilan	faqat raqam bilan	foizda	iks xarfi bilan
1	9	1	Gomeopatik triturasionalarni tayyorlashda qo'laniladigan yordamchi moddani tanlang	*sut qandi	glyukoza	kraxmal	qand poroshogi
1	9	1	8-band bo'yicha suvli eritmalardan gomeopatik triturasionalni tayyorlash uchun qancha suvli eritma olinadi?	*2 tomchi	5 tomchi	10 tomchi	1g
1	9	1	Gomeopatik granularni tayyorlashda qaysi raqamli granular keng qo'llaniladi?	*4-5-chi	3-chi	2-chi	1-chi
1	9	2	Spirтли eritmada gomeopatik triturasionalni tayyorlash uchun qancha spirтли eritmada olinadi?	*4 tomchi	10 tomchi	20 tomchi	50 tomchi
1	9	3	Gomeopatiya shamchalarini tayyorlashda essentsiyalardan (suyuq ekstraktlardan) qancha olinadi?	*1ta shamchaga 2 tomchi essentsiya	1ta shamchaga 20 tomchi essentsiya	1ta shamchaga 30 tomchi essentsiya	1ta shamchaga 10 tomchi essentsiya
1	9	3	Kalendula tinkurasidan 10ta shamcha tayyorlash uchun qancha tinkuradan olish kerak?	*200 tomchi	100 tomchi	1-30	10 tomchi
1	9	3	Gomeopatiya shamchalarini qaysi dorilardan tayyorlash mumkin?	*gomeopatik tinktura, suyuq ekstrakt (essentsiya), gomeopatik eritmalardan, mineral tuzlardan	mineral tuzlardan, eritmalardan, triturasionalardan	gomeopatik tinktura va essentsiyalardan	gomeopatikessentsiyadan

1	10	3	Nozodlar – bu nima?	*kasallikni chaqiruvchi mikroorganizmlar, yoki uni sterillangan maxsulotlaridan gomeopatiya prinsipida tayorlangan preparatlar	suis-organ preparatlari bo'lib, sog'lom qora mol yoki cho'chqalar tanasidan ajratib olingan gomeopatik ajratmalar, ular biologik va kimyoviy jihatdan inson organizmi organlariga yaqin	hayvonlar qonidan ajratib olingan zardoblar	fermentlar foliyatini faollashtiruvchi moddalar (limon kislotasi, xinonlar, lipid almashuvi mahsulotlari, aminokislotalar, oqsillar va b.)
1	10	3	Sarkodlar – bu nima?	*suis-organ preparatlari bo'lib, sog'lom qora mol yoki cho'chqalar tanasidan ajratib olingan gomeopatik ajratmalar, ular biologik va kimyoviy jihatdan inson organizmi organlariga yaqin	kasallikni chaqiruvchi mikroorganizmlar, yoki uni sterillangan maxsulotlaridan gomeopatiya prinsipida tayorlangan preparatlar	hayvonlar qonidan ajratib olingan zardoblar	fermentlar foliyatini faollashtiruvchi moddalar (limon kislotasi, xinonlar, lipid almashuvi mahsulotlari, aminokislotalar, oqsillar va b.)
1	10	3	Nozodlar kim tomondan taklif etilgan?	*Vilgelm Luyks	Samuel Ganeman	Vilmar Shvabe	Ibn Sino
1	11	1	Gomeopatik dori vositalarni qaysi paytda qabul qilingani yaxshi?	*shifokor gomeopat ko'rsatmasiga binoan	ertalab och koringa	uxlashdan oldin	ovkatdan keyin

1	11	2	Organotrop ta'sir ko'rsatadigan potensiyani ko'rsating?	*1x-6s gacha	6-12s gacha	12-30s gacha	1x-30s gacha
1	11	2	Simptomatik ta'sir ko'rsatadigan potensiyani ko'rsating?	*6-12s gacha	1x-6s gacha	12-30s gacha	1x-30s gacha
1	11	2	Psixosomatik ta'sir ko'rsatadigan potensiyani ko'rsating?	*12-30s gacha	1x-6s gacha	6-12s gacha	1x-30s gacha
2	1	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan mayda poroshoklarning diametri qancha bo'lishi kerak?	*0,15 mm	0,12 mm	0,60 mm	3 mm
2	1	3	Poroshoklar tarkibiga kiradigan kuchli ta'sir etuvchi dori moddalariga qanday nisbatda moddalar qo'shiladi?	*1:10; 1:100	df ning xi-nashriga binoan	qo'shilmaydi	2:10; 2:100
2	1	3	Qiyin maydalanuvchi dori moddalar avval nima bilan maydalaniladi?	*spirt yoki tibbiyot efiri	efir moylari	glitserin	suv
2	1	3	Poroshoklar tarkibidagi dori moddalar maydalangandan keyin 1gr quruq moddaga qancha spirt va necha % qo'shiladi?	*95%, 10-15 tomchi	70%, 2 ml	70%, 10 ml	45%, 50 tomchi
2	1	1	Poroshoklar asosan qanday kapsulalarga va qanday o'lchamdagilarga qadoqlanadi?	*oddiy yoki pergament qog'ozga 7,5-10 sm	oddiy qog'ozga 5,5-10 sm	pergament qog'ozga 0,5-0,7 sm	mumli qog'ozga 7,5-10 sm
2	1	2	Sepmalar odatda qanday miqdorda retseptda yoziladi?	*5 dan-100gr gacha	5 dan-50 gr gacha	1 dan-100 gr	10-100 gr gacha
2	1	1	Parrandalarga beriladigan 1 dona granulaning massasini keltiring	*0,05 g	0,5 g	1,0 g	5,0 g
2	1	2	Granulalarda zarrachalarning katta-kichikligi necha % dan kam bo'lmasligi kerak?	*5%	10%	1%	0,5%

2	1	3	Usti qobiqlanmagan tabletkalar qanday moddada, xarorat va qancha vaqtda erishi kerak?	*37 o s li 50 ml suvda, 15 daqiqada	36,6 o s li 100 ml suvda 10 daqiqada	90% li 50 ml spirtda 10 daqiqa	37% li 50 ml suvda 30 daqiqa
2	2	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dorivor eritmalarning hajmi	*yirik xayvonlar uchun 500 ml, mayda xayvonlar uchun 50-100 ml	yirik xayvonlar uchun 100-200 ml, mayda xayvonlar uchun 500 ml	yirik xayvonlar uchun 400ml, mayda xayvonlar uchun 500 ml	yirik xayvonlar uchun 50 ml, mayda xayvonlar uchun 500 ml
2	2	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dorivor eritmalarni tayorlash uchun qanday suv ishlatiladi?	*tozalangan suv, inyeksiya uchun suv, vodoprovod va quduq suvlari	faqat tozalangan suv	faqat inyeksiya uchun suv	faqat vodoprovod va quduq suvlari
2	2	1	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan suspenziyalar tarkibiga kuchli t'asir etuvchi moddalar berilishi mumkinmi?	*mumkin	mumkin emas	faqat bir marta beriladigan suspenziyalarda mumkin	faqat hayvonlarni uxlatish uchun beriladi
2	2	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan qaynatmalar tayyorlangandan keyin qancha vaqtga tindiriladi?	*10 daqiqa	20-30 daqiqa	1 soat	2 coar
2	2	1	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan damlama va qaynatmalar hayvonlarga qanday beriladi?	*zond orqali, butilka bilan yoki quruq yemga sepib	osh qoshiqda ichiriladi	choy qoshiqda ichiriladi	butilkadan ichiriladi
2	3	1	Bolyuslar nima?	*veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan yumshok pilyulyalarni eslatuvchi dori turi	veterinariyada ishlatiladigan granulalar	veterinar surtma dorining turi	qushlarga beriladigan dori turi

2	3	1	Bolyuslar necha kunga tayyorlanadi?	*1-2 kun	10 kun	1 oy	1 kun
2	3	3	Bolyuslar massasini keltiring	*0,5-50,0 g gacha	5,0-50,0 g gacha	100,0 g gacha	200,0 g gacha
2	3	2	Bolyuslar tayorlashda qanday yordamchi moddalar ishlatiladi?	*gavdar uni, oq gil, patoka, solod, yashil sovun, qand qiyomi va b.	etil spirit, glitserin, qand qiyomi va b.	gavdar uni, oq gil, caltcy carbonat va b.	patoka, solod, kraxmal va b.
2	3	2	Xab dorilar otlar uchun qanday miqdorda tayyorlanadi?	*2,0-6,0 g	0,1-0,3 g	1,0-2,0 g	2,0-5,0 g
2	3	2	Xab doriar kuchuklar uchun	*0,1-0,5 gr dan beriladi	2,0-6,0 gr dan beriladi	1,0-2,0 gr dan beriladi	2,0-10,0 gr dan beriladi
2	3	2	Xab dorilarga shakl berish uchun qanday moddalar qo'shiladi?	*oq gil, yashil sovun, un	moy, oq gil	o'simlik yog'lari	shakar, oq gil, un
2	3	1	Qaysi dori turlari faqat veterinariya amaliyotida ishlatiladi?	*bo'tqalar va bolyuslar	linimentlar va surtmalar	tabletkalar va bolyuslar	aerozorlar va shamchalar
2	3	1	Bo'tqalar nima?	*veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dozalarga bo'linmaydigan quyuc asalyoki xamirni eslatuvchi, ichishga beriladigan dori turi	veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dorivor moddalarning oddiy aralashmasi	veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan sirtga ishlatiladigan dori turi	veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan pilyulyalarini eslatuvchi dori turi
2	3	1	Bo'tqalar necha kun saqlanadi?	*24 soat	2 kun	3 kun	10 kun
2	3	2	Bo'tqalar qurib qolmasligi uchun nima qo'shiladi?	*glitserin qo'shiladi	maslo kakao qo'shiladi	oq mum qoshiladi	qattiq yog'lar qo'shiladi

2	3	3	Uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?	*novshadil spirti – 25 ml, kungaboqar moyi – 74,0, olein kislotasi – 1.0	novshadil spirti – 50 ml, kungaboqar moyi – 49,0, olein kislotasi – 1.0	novshadil spirti – 50 ml, olein kislotasi – 50,0	novshadil spirti – 25 ml, kungaboqar moyi – 75,0
2	3	3	Balzamli vichnevskiy liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?	*kseroform – 3,0, qora moy – 3,0, kanakunjut moyi – 100,0	kseroform – 3,0, qora moy – 3,0, kungaboqar moyi – 50,0	streptocid – 3,0, qora moy – 3,0, kungaboqar moyi – 50,0	kseroform – 3,0, qora moy – 3,0, baliq moyi – 50,0
2	3	1	Tarkibiga ko'ra mazlar qanday bo'ladi?	*oddiy va murakkab	faqat oddiy	faqat murakkab	profilaktik
2	3	1	Ishlatilishiga ko'ra mazlar qanday bo'ladi?	*davolovchi, davolovchi-profilaktik, ximoyalovchi	davolovchi va profilaktik	gigienik	ko'p funktsiyali
2	3	1	Lipofil asoslarga nimalar kiradi?	*maslo kakao, parafin, qattiq yog'lar, mum	gellar, maslo kakao	glitserin va suv	tibbiyot jelatini, mum
2	3	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dermatologik surtmalar qaysi miqdorda beriladi?	*30,0-100,0 g, qo'tir kasalligini davolashda ishlatiladigan surtma – 500,0 g df undan ko'p	200,0 g gacha	500,0 g gacha	1 kg gacha
2	3	2	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan shamchalarni tayorlashda qanday asoslar ishlatiladi?	*davlat farmakopeyasi ruxsat berilgan barcha asoslar	faqat gidrofil asoslar	faqat gidrofob asoslar	faqat difil asoslar

2	4	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan oftalmologik surtmalar qaysi miqdorda beriladi?	*5,0-10,0 g	10,0-50,0 g	20,0-30,0 g	50,0-100,0 g
2	4	3	Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan shamchalarning massasini ko'rsating?	*5,0-7,0 va undan ko'p	0,1 g gacha	0,5 g gacha	1,0 g gacha
2	4	2	Ko'z pardalarining o'lchamlari	*uzunligi 6-9 mm, eni 3-4,5 mm, qalinligi 0,35 mm, o'rtacha og'irligi 0,015 gr	uzunligi 5 sm, eni 2-5 mm, qalinligi 2 mm, yrtacha og'irligi 0,015 gr	uzunligi 2 sm, eni 2-5 mm, qalinligi 3 mm, ortacha og'irligi 0,020 gr	uzunligi 10 mm, eni 5-6 mm, qalinligi 7 mm, o'rtacha og'irligi 1 gr
2	4	1	Ko'z dorivor pardalarining afzalligi?	*aniq dozali, ta'siri uzoq muddatli, ishlatilishi qulay, sterilligi	ta'sir muddati uzaytirilgan, steril bo'lishi	dorining barqarorligi, sterilligi, yo'naltirilganligi	biosamaradorligi yuqori, turqun
2	4	2	30%li sulfatsil natriy kuz tomchisini tayyorlanishini ko'rsating	*aseptik sharoitda xlorid vodorodkislota, natriy tiosulfat ko'shib, 120 ⁰ c-8 daqiqa sterillash usuli bilan	aseptik sharoitda natriy tiosulfat ko'shib, 100 ⁰ c-30 daqiqa sterillash usuli bilan	aseptik sharoitda, xlorid vodorod kislotasi va natriy tiosulfat ko'shib	aseptik sharoitda, turg'unlashtiruvchi moddalar ko'shmasdan
2	4	1	Keltirilgan polimer dori pardalardan oftalmologik pardalarni tanlang	*pilokarpin pardasi	"oblekol" pardasi	trinitrolong pardasi	sitizin pardasi
2	4	2	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan in'eksion dorilar texnologiyasida farqi bormi?	*farqi yoq	stabilizator qo'shilmaydi	korrigent qo'shilmaydi	sterillanmaydi

2	5	3	Dezinfitsiyalovchi vositalar – bu nima?	*turli hayvonlarda tarqaladigan infeksiyon kasallik chaqiradigan mikroorganizmlarga tashqi muhitda haloq qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan vositalar	kimyoviy zararlantiruvchi vositalar	korrigentlar	stabilizatlar
2	5	3	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi preparatlar nima uchun tayorlanadi?	*hayvonlar terisi, molxona, go'ng saqlanadigan omborxonalarni, hayvonlar uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar va b. zararsizlantirish uchun ishlatiladi	faqat hayvonlar saqlanadigan xonalarni dezinfektsiyalash uchun ishlatiladi	faqat hayvonlar terisi dezinfektsiyalash uchun ishlatiladi	dorilarni kimyoviy sterillash uchun ishlatiladi
2	5	3	Antiseptik vositalar– bu nima?	*kimyoviy zararlantiruvchi vositalar	turli hayvonlarda tarqaladigan infeksiyon kasallik chaqiradigan mikroorganizmlarga tashqi muhitda haloq qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan vositalar	korrigentlar	stabilizatorlar

2	5	2	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni ko'rsating?	antiseptik *fenol eritmalari (3-5%), simob (0,1-0,2%), borat kislotasi (2-4%), yod eritmalari, yodoform, kseroform, dermatol, trikrezol, brilliant yashili, formalin, xlorli ohak va b.	ampitsillin, penitsillin, sefazolin va b.	sulfadimezin, notsulfazol, streptocid va b.	oksolin, biseptol va b.
2	6	2	Qanday premikslarni bilasiz?	*vitaminli, antibiotikli, mineral, oqsilli komplekslar	antibiotikli kompleks	vitaminli kompleks	oziqaviy kompleks
2	6	2	Premiks briketlari qanday miqdorda tayyorlanadi?	*davlat standarti yoki teknik shartlarida keltirilishi bo'yicha 0,5-5 kg	0,5 kg	1 kg	5 kg
2	7	1	Dorivor moddalarni ta'rifi gomeopatiya farmakopeyada qay tarzda keltirilgan?	*alifbo tartibida	farmakologik xususiyatiga ko'ra	o'simliklar oilasiga ko'ra	tayyorlanadigan dori shakliga ko'ra
2	7	2	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik dori turlarini insonlarda qo'llaniladigan dorilardan farqi bormi va asosan qanday?	*farqi yo'q	faqat dori miqdorida farqi bor	faqat dori modda dozasida farqi bor	yordamci moddalar bilan farq qiladi
2	7	2	Kuchuk va cho'chqalar dorilariga korrigent sifatida qo'shish mumkin.	*shirin moddalar	achchiq moddalar	nordon moddalar	sho'r moddalar
2	7	2	Otlarga dorilar tarkibiga qanday korrigent sifatida qo'llaniladi	*sho'r moddalar	shirin moddalar	achchiq moddalar	nordon-achchiq moddalar
2	7	2	Echki va shoxli xayvonlar dorilariga korrigent sifatida ishlatiladi.	*achchiq	sho'r	nordon	shirin

2	8	3	Xayvonlarda tashqi qo'llaniladigan dorilarga yalamasliklari uchun nima qo'shiladi?	*yoqimsiz maza va hidga ega bo'lgan modda	dukkakli vositalar	shirin dori moddalar	rangli moddalar
2	8	2	Sigir uchum beriladigan dozalangan poroshok massasi qanchagacha bo'ladi?	*100,0 g gacha	10,0 g gacha	1,0 g gacha	1 kg gacha
2	8	2	Veterinar dori turlariga retseptda asosan nimalar ko'rsatilishi kerak?	*xayvon turi, laqabi, yoshi, egasining ismi sharifi	xayvonning yoshi va laqabi	egasining ismi sharifi	egasining ismi sharifi, xayvon laqabi
2	8	1	Veterinar dori turlarini tayyorlashda asosan qaysi xujjatdan foydalaniladi?	*Davlat farmakopeyasining X-nashridan	Davlat farmakopeyasining IX-nashridan	Davlat farmakopeyasining XI-nashridan	Shvabe farmakopeyasidan
2	9	1	Veterinariya amaliyotida otlar uchun qo'llaniladigan hab dorilarning massacini keltiring	*2,0-6,0 g	0,1-0,5 g	0,1-0,3 g	0,05-0,1 g
2	9	1	Veterinariya amaliyotida itlar uchun qo'llaniladigan hab dorilarning massacini keltiring	*0,1-0,5 g	2,0-6,0 g	0,1-0,3 g	0,05-0,1 g
2	9	1	Veterinariya amaliyotida parrandalar uchun qo'llaniladigan hab dorilarning massacini keltiring	*0,05-0,1 g	2,0-6,0 g	0,1-0,5 g	0,1-0,3 g

**“Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalari”
fanidan bob va bolimlar nomi**

	1 bob. Gomeopatik dori turlari texnologiyasi
1	Gomeopatiyaning rivojlanish yo'nalishlari
2	Noan'anaviy davolash usullari. Gomeopatik dorilar ta'siriga organizmning reaksiyasi
3	Ganeman bo'yicha gomeopatik dorilar patogenezi
4	Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari
5	Mahalliy xom ashyolar yordamida gomeopatik preparatlarni yaratish. Nomenklatura lug'ati
6	Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari (chet elda)
7	Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari (MDH va O'zbekistonda)
8	Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasini takomillashtirish
9	Dori vositalarni dinamikizatsiyalash
10	Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlar guruhlari va ishlatilishi
11	Gomeopatik preparatlarini turli kasalliklarda qo'llash asoslari
	2 bob. Veterinariya dori turlari texnologiyasi
12	Veterinariya preparatlari. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari texnologiyasi
13	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari texnologiyasi
14	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasi
15	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi
16	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlar texnologiyasi
17	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan permikslar texnologiyasi
18	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi
19	Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan preparatlarni sifatini baholash va jixozlash masalalari
20	Veterinariya preparatlarini ishlab chiqarishning tarixi, zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR (ON, YAN)

**«GOMEOPATIK VA VETERINAR DORI VOSITALARINI ISHLAB
ChIQARISH TEXNOLOGIYALARI» fanidan
oraliq nazorat savollari**

1. Gomeopatiyaning zamonaviy xolati, rivojlanish yo'nalishlari.
2. Gomeopatik dorilar texnologiyasining asosiy muammolari.
3. Gomeopatiyaga oid davolash printsiplaridan Gering qonuni.
4. Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi, ishlatiladigan dori turlari.
5. Gomeopatik dorilarni tanaga ta'sir etish mexanizmlari.
6. Gomeopatik antidotlar va polixrestlar
7. Ganeman buyicha gomeopatik dorilar patogenezi.
8. Gomeopatik dorilarni patogenezi xakida zamonaviy tushuncha.
9. Keng qullaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi.
10. Gomeopatik preparatlarining agregat xolati buyicha tasnifi
11. Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari.
12. Gomeopatik dorilarni tanlashda sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlar. Fol va Gabovich usullari moxiyati.
13. Gomeopatik preparatlarining dispersologik tasnifi.
14. Maxalliy xom ashelar yordamida gomeopatik preparatlar yaratish.
15. Maxalliy xom ashelar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish.
16. Gomeopatiya nomenklatura lugatini tuzish tizimi.
17. Gomeopatiyada ishlatiladigan mineral va xayvon moddalar tasnifi.
18. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolari.
19. Chet el firmalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan zamonaviy gomeopatik vositalar nomenklaturasi.
20. MDX davlatlari va O'zbekiston firmalari ishlab chiqarilayotgan zamonaviy gomeopatik vositalar nomenklaturasi.
21. Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
22. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlar guruqlari va ishlatilishi.
23. Gomeopatik nozod preparatlarining ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi, texnologiyasi.
24. Gomeopatik sarkod preparatlarining ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi, texnologiyasi.
25. Gomeopatik gomakordlar va in'ellar.
26. Gomeopatik katalitik preparatlar ta'rifi tasnifi.
27. Dori vositalarni dinamizatsiyalash maqsadi va gomeopatik dinamizatsiyalangan dori vositalari texnologiyasi. Gomeopatik LM- potentsiyalar.
28. Gomeopatik preparatlarini turli kasalliklarda kullash asosiy printsiplari: dozalar, vakti, davomligi va boshk.
29. Gomeopatik dori turlarini o'simlik xom ashyosi, jonivor va kimyoviy moddalar yordamida tayyorlash texnologiyasi.
30. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.
31. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalar ta'rifi.

32. Gomeopatik kup komponentli tomchilar texnologiyasi.
33. Gomeopatik kompleks ta'sirli siroplar texnologiyasi.
34. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi va retsepturasi.
35. Gomeopatik sirtki suyuq dorilar texnologiyasi va retsepturasi.
36. Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasi va retsepturasi.
37. Gomeopatik kompleks ta'sirli granulalar texnologiyasi.
38. Gomeopatik qattiq dori turlari texnologiyasini takomillashtirish.
39. Gomeopatik drenajli (tozalovchi) dori vositalari texnologiyasi.
40. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi.
41. Kompleks ta'sirli ko'p komponentli go-meopatik preparatlar texnologiyasi.

Retseptlar:

1. Allergiyani davolash uchun tomchilar tayyorlang:

Kaltsium karbonikum	6
Urtika	3
Yuglans	6
2. Kompleks ta'sirga ega gomeopatiya siropidan 10,0 g tayyorlang:

Crategus	2
Leonurum	1X
Tinktura valeriana	Q
3. Gomeopatiya eliksiridan 10,0 g tayyorlang:

Passiflora	2X
Pulsatilla	9
Tinktura valeriana	Q
4. Kompleks ta'sirga ega gomeopatiya granulalardan 10,0 g tayyorlang

Kamfora	6
Ignatsiya	6
Passiflora	3
5. Edas 307 (64 b.) sirop tarkibi va texnologiyasini keltiring.
6. Edas 111 tinchlantiruvchi tomchilar tarkibi va texnologiyasini keltiring.
7. Kompleks tarkibli ko'p komponentli Edas 103 gomeopatik granulalar tarkibi va texnologiyasini keltiring.
8. Drenaj uchun Edas 128 gomeopatik granulalar tarkibi va texnologiyasini keltiring.
9. Edas 306 sirop tarkibi va texnologiyasini keltiring.
10. O't puffagi va jigarni tozalovchi Edas 113 drenaj uchun gomeopatik tomchilar tarkibi va texnologiyasini keltiring.
11. Quyidagi tarkibli Edas 932 granulalar tarkibi va texnologiyasini keltiring:

Arsenicum jodatum	9
Hepar sulfur	6
Nux vomica	6
Pulsatilla	6
Tabacum	6
Allium cepa	3
Calendula	3
Uva ursi	3

**«GOMEOPATIK VA VETERINAR DORI VOSITALARINI ISHLAB
ChIQARISH TEXNOLOGIYALARI» fanidan
yakuniy nazorat savollari**

42. Gomeopatiyaning zamonaviy xolati, rivojlanish yo'nalishlari.
43. Gomeopatik dorilar texnologiyasining asosiy muammolari.
44. Gomeopatiyaga oid davolash printsiplaridan Gering qonuni.
45. Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi, ishlatiladigan dori turlari.
46. Gomeopatik dorilarni tanaga ta'sir etish mexanizmlari.
47. Gomeopatik antidotlar va polixrestlar
48. Ganeman buyicha gomeopatik dorilar patogenezi.
49. Gomeopatik dorilarni patogenezi xakida zamonaviy tushuncha.
50. Keng kullaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi.
51. Gomeopatik preparatlarining agregat xolati buyicha tasnifi
52. Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari.
53. Gomeopatik dorilarni tanlashda sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlar. Fol va Gabovich usullari moxiyati.
54. Gomeopatik preparatlarining dispersologik tasnifi.
55. Maxalliy xom ashelar yordamida gomeopatik preparatlar yaratish.
56. Maxalliy xom ashelar yordamida gomeopatik preparatlar arsenalini kengaytirish.
57. Gomeopatiya nomenklatura lugatini tuzish tizimi.
58. Gomeopatiyada ishlatiladigan mineral va xayvon moddalar tasnifi.
59. Gomeopatik vositalarning ishlab chiqarish masalalari, muammolari.
60. Chet el firmalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan zamonaviy gomeopatik vositalar nomenklaturasi.
61. MDX davlatlari va O'zbekiston firmalari ishlab chiqarilayotgan zamonaviy gomeopatik vositalar nomenklaturasi.
62. Gomeopatik dori preparatlari texnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
63. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlar guruqlari va ishlatilishi.
64. Gomeopatik nozod preparatlarining ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi, texnologiyasi.
65. Gomeopatik sarkod preparatlarining ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi, texnologiyasi.
66. Gomeopatik gomakordlar va in'ellar.
67. Gomeopatik katalitik preparatlar ta'rifi tasnifi.
68. Dori vositalarni dinamizatsiyalash maqsadi va gomeopatik dinamizatsiyalangan dori vositalari texnologiyasi. Gomeopatik LM- potentsiyalar.
69. Gomeopatik preparatlarini turli kasalliklarda kullash asosiy printsiplari: dozalar, vakti, davomligi va boshk.
70. Gomeopatik dori turlarini o'simlik xom ashyosi, jonivor va kimyoviy moddalar yordamida tayyorlash texnologiyasi.
71. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.

72. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalar ta'rifi.
73. Gomeopatik kup komponentli tomchilar texnologiyasi.
74. Gomeopatik kompleks ta'sirli siroplar texnologiyasi.
75. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi va retsepturasi.
76. Gomeopatik sirtki suyuq dorilar texnologiyasi va retsepturasi.
77. Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasi va retsepturasi.
78. Gomeopatik kompleks ta'sirli granular texnologiyasi.
79. Gomeopatik qattiq dori turlari texnologiyasini takomillashtirish.
80. Gomeopatik drenajli (tozalovchi) dori vositalari texnologiyasi.
81. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi.
82. Kompleks ta'sirli ko'p komponentli go-meopatik preparatlar texnologiyasi.
83. Veterinariya preparatlarini ishlab chiqarishning tarixi, zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari.
84. Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan preparatlarning tavsifi, ta'rifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.
85. Veterinariyada ishlatiladigan dorilarga qo'yilgan talablar. Veterinariyada ishlatiladigan dorilarni dozlashda asosiy yondashish.
86. Zamonaviy veterinariya dori preparatlari tasnifi, ta'rifi va nomenklaturasi.
87. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va maqsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.
88. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy vaktsinalar, zardoblar va globulinlar nomenklaturasi.
89. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.
90. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, dustlar, yiqmalar texnologiyasi.
91. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan granular, tabletkalar, briketlar texnologiyasi.
92. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan draje va kapsulalar texnologiyasi.
93. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qab dorilar va bolyuslar texnologiyasi.
94. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.
95. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: eritmalar, emulsiya va suspenziyalar texnologiyasi.
96. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: suvli ajratmalar va miksturalar texnologiyasi.
97. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan damlama, qayntma va shilimshiqlar texnologiyasi.
98. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan galen (tindirma va ekstraktlar) va yangi galen preparatlari texnologiyasi.
99. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.
100. Veterinariya amaliyotida surtmalar, pastalar va linimentlar texnologiyasi.
101. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan bo'tqalar texnologiyasi.

102. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan shamchalar va qalamchalar texnologiyasi.
103. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan pastalar, malqamlar va dorivor pardalar texnologiyasi
104. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi.
105. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi.
106. Zamonaviy sterillash usullari, tasnifi (termik sterillash, steril filtratsiya, radiatsion ,UB nurlar bilan va kimyoviy sterillash usullari).
107. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan in'ektsion dori preparatlarining zamonaviy nomenklaturasi.
108. In'ektsion eritmalarini tayyorlashda ishlatiladigan antioksidant, turqunlashtiruvchi va konservant moddalarning funktsiyalari.
109. Oson oksidlanuvchi moddalarni turqunlashtirish mexanizmlari. Askorbin kislotasini in'ektsion eritmasini antioksidantlar yordamida turqunlashtirish.
110. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan infuzion eritmalar nomenklaturasi va ularga qo'yiladigan talablar.
111. Infuzion eritmalarining asosiy guruxlarining ta'rifi (suv-tuz, kislota-ishqor muvozanatini to'qirlovchi, gemodinamik (shokka qarshi) va dezintoksikatsion IE).
112. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan ko'z dori turlarining zamonaviy axamiyati, ta'rifi, tasnifi. Ko'z tomchilarni takomillashtirish yo'nalishlari.
113. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi va ularga qo'yiladigan talablar.
114. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan permikslar texnologiyasi va nomenklaturasi.
115. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.
116. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.
117. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi.
118. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va maqsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.
119. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenkaturasi.
120. Veterinar dori turlarining sifatini baholash.
121. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni me'yorlovchi xujjatlar.

TARQATA MATERIALLAR*

*** Tarqata materiallar alohida jildda iliva qilinadi**

«GOMEOPATIYA DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQRISH TEKNOLOGIYASI»

1. Gomeopatiyaning rivojlanish yo'nalishlari

Qadim zamonlardan beri turli moddalardan dori turlari ishlatilib kelingan. Ko'p dori turlari ming yillar davomida uzluksiz o'zgarishlarga uchragan. Qadimgi Misrda hozirgi vaqtda qo'llaniladigan ayrim dori turlari (eritmalar, surtma va xab dorilar) ishlatila boshlagan va shu dori turlariga tabiiy holatdagi o'simliklar, hayvon va mineral mahsulotlar aralashtirib qo'llash yo'lga qo'yilgan. O'sha davrning bir qancha olimlari tibbiyot va farmatsiya fanlarining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Masalan, qadim grek shifokori Gippokrat bemorlarni malham, xab dori, eritmalar, qaynatmalar va dorivor moddaning aralashmalari bilan davolashgan.

K. Galen dorilarni tayyorlash qoidalarini ham tizimlashtirgan. Gomeopatik davolash usulining asoschisi nemis olimi va shifokori Samuil Ganeman (1755 - 1843 yy.) ham o'sha davrda yashagan va shular toifasiga kirgan. O'sha davr tabobatida dori moddalarning ta'siri haqida to'liq ma'lumot yo'q deb ta'kidlagan. Ganeman lotin, grek va arab tillarni bilgan holda, ko'p yillarni qadimgi manbalarni o'rganish va tarjima qilishga bag'ishlagan. U Gippokrat, Avitsenna, Galen, Oribaziya, Karneliy Sels, Dioskorid, Aetiya va boshqalarning bayonlarini o'rganagan.

Ganeman, o'z davri tabobatini kamchiliklarini bilib, davolashda xech narsaga asoslanmagan murakkab tarkiblardan voz kechish va bemorlarni o'ziga xos sub'ektiv hollarini inobatga olishni maslaxat bergan. Ganeman qadimgi mualliflarning o'xshashlik prinsipi yo'nalishi bo'yicha dorilarni qo'llaganligini aniqladi. Gippokrat shunday yozadi: "Bemorga uning tabiati tabiblik qiladi, xaqiqiy tabib esa yordam berishi kerak. Kasallik o'xshashlik bilan vujudga keladi va o'xshashlik bilan bemor sog'lig'ini tiklaydi".

1790 yil Ganeman Kullenning "Dorishunoslik" asarini ingliz tilidan nemis tiliga tarjima qilayotganida, muallif xina po'stlog'ining ta'siri xaqidagi bo'limida ko'plab amalga qarshi gipotezalar topgan. Ganeman bu o'simlik dorivor mahsulotini tekshirishiga kirishdi va bir necha kun mobaynida u o'zida ma'lum miqdorda dorini qabul qilgan va sinagan, natijada, unda bezgak simptomlari paydo bo'lgan. Bu tajribani bir necha bor o'zida va do'stlarida sinab ko'rib, Ganeman xininni nafaqat bezgakni davolovchi, balki katta dozada sog'lom organizmda bezgak kasallik belgilarini keltirib chiqarishini ta'kidlaydi.

Христиан Фридрих-Самуил Ганеман



10 апрель 1755 - 2 июль 1843 йй.

Ganeman qadimgi mualliflarning tajribalari va fikrlashlari bilan tanishib, ulardan bemorlarni davolashda "o'xshashlik prinsipini" topdi va o'zining xina daraxti po'stlog'i bilan bo'lgan tajribasi asosida gomeopatik nazariyasini yaratdi. Ganeman tajribada dori vositalarini sinab ko'rish natijasida quyidagi xulosalarni chiqardi:

- har bir dori modda organizmda maxsus ta'sir ko'rsatadi;
- dorining ta'siri ratsional reaksiya bo'lishi uchun hisob-kitob qilinishi kerak;
- reaksiya organizmning avvalgi holatiga bog'liq;
- organizm reaksiyasi tufayli kichik yallig'lanish stimullangan samaraga ega;
- yallig'lanishning mosligi sub'ektning reaksiyasi orqali aniqlanadi.

6 yildan so'ng qattiq mehnat qilib, sog' va bemor organizmlarda turli dorivor moddalarni sinab ko'rib, Ganemanning birinchi marta tajriba natijalari chop etildi. 1796 yilda Gufelanning tabobat

oynomasida Ganemanning "Dorivor moddalarni davolash xususiyatini topish uchun yangi jarayon tajribasi" deb nomlangan maqolasi chop etildi.

1805 yilda esa xuddi shu oynomada Ganemanning "Tajribali tabobat" deb nomlangan maqolasi chop etildi.

1810 yilda Ganemanning "Tabiblik san'atining organoni" nomli kitobi nashrdan chiqdi. SHu davrda Ganeman Leypsig dorilfununida privat-dotsent unvoniga sazovor bo'ldi, o'qitish jarayonida uning atrofida talabalar, tabiblar, dorini o'zida sinashga ehtiyori bilan kelganlar bo'lar edi. 1811 yilda Ganemanning bayonlaridan biri bo'lgan "Toza dorishunoslik"ning 1-qismi chop etildi. Bir necha yildan keyin esa uning qolgan 4-ta qismi ham chop etildi. Bu asarda 60 ga yaqin dori moddalar ta'siri keltirilgan. Dorilarni izlab topish va qo'llashda o'z usulini boshqa usullardan farqliroq, Ganeman "gomeopatiyasi" deb nomladi.

Gomeopatiya dori vositalarining qo'shimcha ta'siri yo'qligi ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi.

<p>AQSHda 1832 yili, Belgiyada 1953 y, Angliyada 1856y, Argentinada 1963y, Meksikada 1895y, shuningdek Gollandiya, Daniya, SHveysariya, Italiya, Norvegiya</p>	<p>SHvetsiya, Ispaniya, Gretsiya, Finlandiya, Osiyo davlatlarida Xindiston, Pokiston, Bangladesh, SHri Lanka, Afrika Kit'asida: Nigeriya 1960y, Zimbabve 1981y, Avstraliya va YAngi Zellandiya amaliyotlarida ham gomeopatiya sekin asta rivojlana bordi.</p>
--	---

Rossiyaga chegaradosh Polsha, Vengriya, CHexoslovakiya, Ruminiyalarda ham gomeopatiya o'z o'rnini topgan. Polshada 1892 yildan boshlab gomeopatiya jamiyati mutaxassislardan tashkil topgan komissiya tomonidan tekshi-rib, ijobiy natija berilgan munosabati bilan gomeopatiya Davlat tomonidan rasmiy tan olingan.

Vengriya va CHexoslovakiyada gomeopatiya usuli bilan davolash boshqa qo'shni davlatlarga nisbatan birmuncha kamroq yo'lga qo'yilgan.

Rossiyaga Ganeman g'oyalari 19 asrning 20 yillarida kirib keldi.

1824 yil Peterburgda Ganeman va uning ta'limoti bilan tanish bo'lgan doktor Adam Germaniyada shu yo'nalishni qo'llash uchun ko'chib keladi. Bu nazariyani yoqlovchilar ham topilib, gomeopatiya yo'li bilan davolash tez tarqala boshlaydi.

1828 yilda o'sha vaqtda harbiy gospitalarning birida xizmat qiluvchi leyb-medik Germaniyaga Ganeman usuli bilan davolashga xuquq berildi.

1832 yildan Peterburg, Moskva, Riga shaxarlarida gomeopatiya dorixo-nalarini ochishga ruxsat etildi. Moskvada 1-nchi gomeopatiya dorixonasi Petrovkada 1835 yilda ochilib, unga gomeopatiya ta'limini targ'ibot qilishga ko'p xizmat qilgan A. O. Farbriker boshchilik qilgan.

XIX asrning 2-nchi yarmidan boshlab gomeopatiya jurnali har oyda chiqaboshlaydi. 1898 yil Peterburgda gomeopatiya kasalxonasi ochildi.

1833 yil Rigada xam 1-nchi gomeopatiya dorixonasi ochildi va 1959 yilga qadar dorixona shaxsiy gomeopatik shifokorlar retsepti bo'yicha dori tayyorlashar edi.

Hozirgi vaqtda mustaqil hamdo'stlik davlatlarida, jumladan Moskva, Riga, Kiev, Peterburg, Tbilisi, YAlta, Simferopol, Lvov, Xarkov va boshqa shaxarlarda 20 ga yaqin gomeopatiya dorixonalari, Moskvada gomeopatiya kasalxonasi va dorixonalar qoshida gomeopatiya bo'limlari ishlab turibdi. Ularning ishini yaxshilash maqsadida Moskva, Kiev, Toshkent shaxarlarida shifokor-gomeopat va farmatsevt-gomeopat tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilgan.

1989 yil Kievda shifokor gomeopatlarning butunittifoq s'ezdi bo'lib, bunda tashkiliy masala ko'rib, butunittifoq gomeopatiya assotsiyasi tashkil etildi, unda dorixonalar xizmatchilari ham faol qatnashdi.

Ayrim shaxarlarda jamoatchilik yo'lida kooperativ gomeopatiya markazlari tashkil topmoqda. Masalan, Kievda "Gomeopat", Lvovda "Apis" markazlari. Hozir barcha mamlakatlarda ishlatib kelayotgan gomeopatiya dorilar soni 2000 atrofida bo'lib, shunda V. SHvabe qo'llanmasiga 514 kiritilib, ulardan faqat 150 yaqini MHD davlat reestriga kirgan xalos.

Ma'lumki reestrda kirmagan dorivor o'simliklar hom ashyosi bilan assortiment, ham miqdor jihatdan, ta'minlashni tashkil etish, bu sohada ijod qilayotgan barcha ilmiy xodimlarga qarata qilgan murojat ayni muddaodir. Bu sohadagi izlanishlarni kuchaytirish va tibbiyotga joriy etish haqidagi fikrlar ham taxsinga sazovordir.

Yo'nalishlar:



- Gomeopatiya preparatlarining arsenalini boshqatdan ko'rib, chet elliklarni o'zimiznikisi bilan almashtirish;
- Gomeopatiyada reglamentga kiritilgan dori turlariga in'eksiya, ko'z DT, aerosol, tabletka, terapevtik sistemalarni kiritish hozirgi zamon yordamchi moddalar YUMB, SFM, erituvchilar, stabilizator, surtmalar, emulsiya va gidrofil asoslar ishlatilishi;
- Essensiya, nastoyka, granula, tomchilarni texnologiyasini rivojlan-tirish;
- Gomeopatiya dori turlari sifatini nazoratida hozirgi zamon usullarini qo'llash;
- Sog'liqni Saqlash Vazirligi qoshidagi

Farmakopeya qo'mitasi tomonidan gomeopatiya farmakopeyasini chiqishini o'ylab ko'rish.

Dori-darmonlar uchun NTH (normativ texnik hujjat) ishlab chiqilmaydi va shu boisdan ular dori sifatida korxonalar tomonidan deyarli ishlab chiqarilmaydi. SHundan xulosa - gomeopatiya dori-darmonlari ustida keng va samarali ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur.

2. Noan'anaviy davolash usullari. Gomeopatik dorilar ta'siriga organizmning reaksiyasi

"Gomeopatiya" (yunonchada: homoios - o'xshashlik, pathos- kasallik) termini o'sha davrdan to hozirgi davrgacha o'z nomini saqlab qolgan. Uning aksi "allopatiya" (allos qarshilik, pathos kasallik) bo'lib, bu termini ham Ganeman kiritgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida professor Zlatorovich boshchiligida Ganeman va uning o'quvchilari tomonidan tekshirilgan va tadbiiq qilingan dori moddalarini qayta sinash ishlari olib boriladi. Venada Zlakovich boshchiligida Avstriyalik sinovchi tabiblarning jamiyati tashkil qilinadi. Buning natijasi Ganeman ilmining foydasiga deb topildi.

Ganemanning yuqoridagi tajribalaridan kelib chiqqan xulosalardan gomeopatlar va allopatlarning davolashidagi farqlarini ko'rish mumkin. Agar bemorning oshqozoni yallig'langan bo'lsa, allopat tinchlantiruvchi dorilar bilan davolaydi, gomeopat esa yallig'lantiruvchi dorilar bilan, lekin juda kam miqdorda.

Gomeopatiyaning prinsipi tabiiy kasallik va dori ta'sirida chaqirilgan kasallik bir-biriga o'xshashligi bo'yicha mos kelishi kerak.

Gomeopatiya Leypsig universitetining professori nemets olimi Samuel Fridrix Ganeman (1755-1843) tomonidan tibbiyotda yangi davolash yunalishi sifatida paydo bo'lgan. Ganeman Saksoniyada 1755 yilda tug'ilgan, u juda qobiliyatli, bilimga tashnalik bilan qiziqadigan

sinchkov bola bo'lgan. U Sokrat, Dioskorid, Paratsels, Galen, Ibn Sinoning yaratgan ijodlarini o'rganib dori moddalarni ishlatilishida qonuniyat borligini topadi. Gomeopatiya dorilari sog'lom odamda katta dozalarda sinalganda, u dori qaysi kasallik belgilarini paydo qilsa, o'sha kasallikni aynan shu dori bilan davolashga asoslangan. U "o'xshashlik" qonunini shunga asosan yaratdi.

Gipokrat va boshqa qadimgi olimlar shu o'xshashlik qonuniyatini ko'rsatib ketganlarini, hozirgi zamonaviy sharoitda ham takrorlanyapti. Misol tarikasida qon almashtirish autogemoterapiya, vaksinoterapiya, emlash va bosh-qalarni keltirish mumkin.

3. Ganeman bo'yicha gomeopatik dorilar patogenezi

Ganeman 100ga yaqin dorivor moddalarni o'zida va o'zi xoxlovchi talabalarida sinagan. Katta /lekin zaharlanmaydigan / dozalarda sog'lom kishilarga berib, ularda sodir bo'lgan yoki boshqa so'z bilan aytganda birinchi marotaba dorilar patogenezi tuzgan. Ma'lumki kasalning simptomi patogenezi bo'ladi, lekin dorivor modda-larning o'ziga xos ta'siri bo'lishi va Ganeman dorilar patogenezi deb atashi yangilik bo'lgan. Agar dori modda katta dozada sog'lom odamda kasallik chaqirsa, shu dori modda kichik dozada davolash gomeopatiyaning I prinsipi, asosi bo'lib qonunlashtirilgan. II-chi qonuni juda kichik dozalar ishlatilishi mumkin, kancha dori modda mayda bo'lsa tez so'rilib, tez ta'sir kuchini ko'rsatadi. Ganeman o'z tajribalari ostida topgan, kasal organizmi dori moddaning katta dozalariga juda kuchli hozir javob, yallig'lanishi, qitiqlanishi bo'ladi. SHu tufayli Ganeman dori moddalar dozalarini kichik dozadan olib pasaytirib, davolash dozasini minimal mikrodozaga tushirgan.

Gomeopatiya davolash tizimining prinsiplaridan, ya'ni asoslaridan biri-bu potensiyalash yoki dinamizatsiyalash.

Potensiyalash gomeopatik dorilarining texnologiyasi bilan bog'liq bo'ladi va u dorining shifobaxsh ta'sirini oshirishga qaratilgan. SHifobaxsh ta'sirini oshirib dori davolovchi kuchga ega bo'lishi uchun uni ko'p marta suyultirish ham chayqatish yoki maydalab ishqalash kerak, ya'ni kuch sarflash lozim. Ganeman g'oyalariga ko'ar qancha dori modda ko'proq suyultirilgan bo'lsa, shuncha ta'sir etish kuchiga ega bo'ladi.

Demak I nazariyaga ham etib keldik. Har bir suyultirish chayqatish, yoki ezib aralashtirish jarayonida sarflangan energiya ajralishi oqibatida doridagi yashirin saqlangan energiyasi ajralib dorining davolovchi kuchini ta'minlaydi. Bu esa bemorning ichki buzilgan muvozanatini tiklab, o'zining fiziologik himoyalovchi kuchlarini oshirishga qaratilgan. CHunki kasallikning asosiy chaqiruvchi omillaridan biri-bu ichki muvozanatni buzilishi oqibatida, odamning tabiiy faoliyati susayadi va gomeopatik potensiyalangan dori moddaning ta'siri esa aynan shu jarayonni faollashtiradi. Gomeopatiyada dori turlarini tayyorlash davridagi muxlatga katta e'tibor berishlik bejis emas, chunki eritmalarni tayyorlashda 10 marta kuchli chayqatish, trituratsiyalarni havonchada tayyorlashda 1 soat talab qilinadi.

Bunday mehnat va muddat davomida dorivor moddalardagi o'ziga xos yashirin kuchning yuzaga chiqishi hisobiga dori ta'sir kuchining yanada jo'shqinlanib oshishiga olib keladi. Bu jarayonni gomeopatiyada potensiyalash va dina-mizatsiyalash deyilib, bular hisobiga kichik dozalardan foydalanish qonuni paydo bo'ladi.

1800-chi yilda tajribalar asosida paydo bo'lgan bu qonun yuzasidan Ganeman "eritmalarni bir necha marta qattiq chayqatish yoki qattiq moddalardan zarrachalarga aylantirishda nafaqat bir xil aralashma va zarrachalar hosil qilibgina qolmay balki ularga yangi ta'sir sifati bag'ishlaydi" degan edi. Bunga bir necha misollar qatorida osh tuzini misolga keltirib, odam kundalik iste'mol qiladigan va undan ko'proq miqdordagisining deyarlik xech qanday terapevtik ta'siri yo'qligi, lekin uning gomeopatik dozasi dagisining ta'siri borligini keltiradi. II nazariya bo'yicha gomeopatik davolash usulining ilmiy asosini organizmdagi biologik interferensiya hodisasiga o'xshatilgan.

Slutskiy N.I. "SHunday dori modda topilishi lozimki, sog'lom odamda, kasalning belgilariga o'xshash belgilar paydo qilsin va kichik dozada bor bemorga ta'sirini ko'rsatsin» deb yozgan.

III nazariya bo'yicha -1995 yil V.N.Sorokinning ilmiy asoslari quyidagicha:

Dori moddaning molekulasining protonlari suvning molekulasiga o'tadi. SHuning bilan barcha dori molekulasining tasnifiy xossalari erituvchi molekulasiga o'tadi, shunday qilib gomeopatik dori vositalaring faolligi namoyon bo'ladi.

Gomeopatiya preparatlarining murakkab fiziologik ta'sir etish mexa-nizmini tushuntirish bo'yicha nazariyalar ko'p. Negeli, Stepun, SHade degan olimlar asosiysi organizmda kechuvchi kimyoviy-fizikaviy "mikrofizikaviy ta'sir" deb nomlashgan.

Ikkinchi nazariya bo'yicha qo'shimcha qilib kichik mikrodozalar ta'siri xuddi katalizatordek ta'sir etishini ko'rsatib, bu nazariyani "mikrodoza katalizatsiyasi" deb nom berishgan. Keyingi nazariya-energetik potentsiyalash nazariyasi hisoblanadi. Mikrodozalar -elektro omil sifatida organizmga ta'sir etadi. Ma'lumki, odam organizmidagi kehadigan hayotiy o'zgarishlar asab tizimiga bog'liq. Buni I. M. Sechenov, I. E. Vvedenskiy, I. P. Pavlov va boshqalar isbotlashgan. Ichki doimiy gomeostaz o'zgarsa organizm uni o'z-o'zini boshqarib tiklashga urinadi. SHuning uchun gomeoterapiyada organizmni asab tizimidagi o'zgarishlarga baho beriladi. Organizm bir butun a'zo ishini buzib qolmay, balki organizmni faoliyatini buzilishini ko'rsatadi.

4. Gomeopatik dorilarni tanlash asoslari

Gomeopatiya yunoncha homoios-o'xshash va pathos- kasallik so'zlaridan tashkil topgan. SHunga asoslangan gomeopatiya dorivor modda sog'lom odamda sinalganda, u dori qaysi kasallik belgilarini paydo qilsa, o'sha kasallikni aynan shu dori bilan, nihoyatda kam dozalarda va maxsus usulda kuchi oshirilgan dorilar bilan davolaydi.

200 yillik gomeopatiya dori vositalari bilan davolashda biron-bir qo'shimcha ta'sir yoki zaharlanish kuzatilmagan. SHuning uchun kasallikni gomeopatiya usulida davolash AQSH, Angliya, Fransiya, Olmo-niya va boshqa mamlakatlarda rivojlangan. Hozirgi vaqtda Ganeman g'oyalariga tayangan holda V.SHvabe tomonidan yozilgan gomeopatiya dorilari bo'yicha qo'llanma 70 dan ortiq mamlakatlarda farmakopeya sifatida ishlatib kelinmoqda. Gomeopatiya dorilarining 78-80% dorivor o'simliklar, 14%ga yaqini kimyo-viy va 6% atrofida jonivorlarga to'g'ri keladi. Gomeopatiya dorilarining al-lopatiyanikidan asosiy farqi barcha o'simlik va jonivor, ular mahsulot-larining yangi yig'ilganlarini ishlatishdir. Gomeopat shifokorlar dori yozishda retsept so'zini ishlatishmaydi. Dori miqdori ko'pincha ko'rsatilmay uni suyultirish darajasi va dori turiga mansubligi ko'rsatiladi.

4. Kompleks ta‘sirli gomeopatik dori turlari va farmakoterapevtik preparatlar o‘rtasidagi bog‘lab turuvchi “ko‘prik” deb atalishi to‘g‘rimi?
5. Kompleks gomeopatik dori vositalarining ishlab chikarilishining zaruriyati va dolzarbligi.

Savollar echimi “bumerang” usulida oboriladi.

Laboratoriya ishi

1. “Edas” firmasi tomonidan ishlab chikadigan kompleks gomeopatik granulalarni ko‘rib chikish va ular sonini 2-3 ta nomlarini daftarda ifodalash.

2. Kuyidagi tarkibli kompleks gomeopatiya granula texnologiyasini keltiring:

Tarkib: Soffea 6

Ignatia 6

Passiflora 3

Ishlatilishi: nevrasteniya, nevroz, tajanglik, kykuni buzilishi

3. Kattalar va bolalar kassaliklarida kompleks gomeopatik dori vositalarini ko‘llanilishini keltiring (“Gomeopaticheskie lekarstva” “Edas” M. 2001 22-bet).

4. Kompleks gomeopatik granular to‘grisida 10 ta test savollarini tuzish va 1 ta krossvord tuzish.

MAVZU; «Gomeopatik komplek ta’sirli siroplar texnologiyasi»

Mavzuni yozishdan maksad: gomeopatiya amaliyotida kullaniladigan komplek bilan tanishish.

Mavzuni axamiyati: gomeopatik siroplar texnologiyasini uzlashtirish.

Mustakil tayyorlash uchun savollar

1. Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan siroplar ta’rifi.
2. Komplek ta’sirli gomeonatik siroplar nomenklaturasi.
3. Komplek ta’sirli gomeonatik siroplar texnologiyasi.
4. Gomeopatik siroplarni ishlatilishi.

Laboratoriya ishi.

1. Edas firmasi tomonidan ishlab chikilgan (306,307,308) gomeopatik siroplar tarkibini keltiring.
Edas-306, Edas-307, edas-308 gomeopatik siroplarning bittasini texnologiyasini asoslab bering.

2. Gomeopatik siroplarni kullanishini kattalar va bolalar uchun aloqida keltiring.

3. Kuyidagi tinchlantiruvchi kompleks ta’sirli gomeopatik siropni bajaring:

Yratuedus 2 c

Zeonurum1 x

Tihctura valerianae Q

10,0 g sirop tayyorlang va bawolrang.

Mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqlarni muxokama qilish

Uslubiy ta’minot: adabiyotlar; gomeopaticheskie lekarstenno‘e sredstva «Edas» M., 2001-64, 23 b, tosh torozi, shisha idishlar, dorivor moddalar.

Uslubiy ko‘rsatmalar

Kompleks dorivor vositalar keng, qo‘llaniladigan tarkiblar asosida va yaxshi o‘rganilgan bir komponentli gomeopatik vositalar tashkil topgan bo‘ladi. Ayniqsa ularning samaradorligi amaliyotda ishlatilib davolash kasalliklarni davolanish bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Kompleks gomeopatik dori vositalari bilan davolanganda «birlamchi kasallikni zo‘rayishi» dekreaksiya bo‘lishi mumkin.

Bu xolatni esa ushbu preparatni aniq bemorlar uchun yuqori samarasili indikatoridir. Kasallikni birlamchi zo‘rayishi xavfli emas va oson bartaraf etiladi, uning uchun dorining qabul qilinishi to‘xtatiladi. Asosiy dorilarga qo‘yilgan talab-bu ziyonsizligi. Demak kompleks preparatlar sham ziyon keltirmasligi kerak.

Nazorat test savollari

1. Siroplar nima?
 - A. o‘simliklardan olingan sharbat
 - v. suyuq dori turi
 - s. +uyuqroq tiniq shakarning suvdagi konsentrlangan eritmasi va dorivor preparatlar qo‘shilgan aralashma
 - d. shakarning suvdagi eritmasi
 - e. bir dori turi
2. Siroplarni ichish qoidasi qanday?
 - A. chayqatish va suv bilan suyultirish
 - V. suyultirish
 - S. faqat chayqatish
 - D. farqi yo‘q
 - E. to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichish
3. Siroplarni banolash uchun aniqlanuvchi ko‘rsatkichlar;
 - A. tashqi ko‘rinish, zichligi, shakarning konsentratsiyasi; nominal xajmi.
 - V. jixozlanishi
 - S. zichligi
 - D. spirt quvvati
 - E. qammasi to‘g‘ri

MAVZU: «Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi»

Mavzuni yozishdan maqsad: gomeopatiya amaliyotida qo‘llaniladigan eliksir texnologiyasini o‘rganish.

Mavzuni ahamiyati: murakkab tarkibli kompleks ta’sirga ega bo‘lgan gomeopatik eliksirlar nomenklaturasi, texnologiyasini ishlatilishini o‘zlashtirish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Eleksirlar ta’rifi.
2. Gomeopatik eliksirlar nomenklaturasi.
3. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi va ishlatilishi.

Laboratoriya ishi

1. Elikzir «edas», eliksir «Vita-dar» va «Kaskatol» tarkibi va texnologiyasini keltiring Gom (Lek. Sr- va edas. M. 2001. 65-66 b)
2. Gomeopatik eliksirlarni qo‘llanishini keltiring.
3. +uyidagi «Vita-dar» va «Kaskatol» gomeopatik eliksirlarning kattalar uchun qabul qilinishini keltiring;
 - o‘tkir kasalliklar;
 - surunkali kasalliklar;
 - kasallikni oldini olish uchun.

Mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqlarni muxokama qilish.

Uslubiy ta’minot: adabiyotlar, tosh tarozi, shisha idishlar, dorivor moddalar, xovoncha, siyuda va surtma solish uchun banochkalar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Eliksirlar-murakkab ko'p komponentli gomeopatik vositalar bo'lib, tarkibida olma, olcha sharbatlar, tonus beruvchi dorivor o'simliklar ekstraktlari; aroniya, do'lana, chetan, na'matak, yalpiz, bo'yardon, olcha bargi, chayano't, tog'rayxon qany daraxti barglari undan tashqari V guruh vitaminlar; S, E, K, RR, karotin, flavonoidlar, antotsian, katexim va organik kislotalar, boshqa BFMLar saqlaydi.

Ishlatilishi bo'yicha asosan odamni oshiradi, organizmning immunitetini oshirib, xil kasalliklarni oldini oladi, organizmni vitaminlar bilan boyitadi. Umumiy organizmni tetiklantirib chiniqtiradi.

Mavzu: "Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasi"

Mavzuni yozishdan maqsad: Gomeopatik murakkab surtmalar texnologiyasini o'zlashtirish

Mavzuni axamiyati: magistrnlarni gomeopatik murakkab surtmalar nomenklaturasi va texnologiyasini bilan tanishtirish.

Uslubiy ta'minot: Gomeopatik dorilar texnologiyasiga tegishli MTX lar.; ma'lumotnomalar, adabiyotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, kolleksiya, jadvallar.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:****

1. Oddiy va murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar ta'rifi
2. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar texnologiyasida kullaniladigan asoslar.
3. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar tayyorlash asoslari
4. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar sifatini baxolash va kullash tartiblari
5. Murakkab tarkibli gomeopatik surtmalar nomenklaturasi

*** Mustakil tayyorlash savollarini muxokamasi "Loyixa " uslubida olib boriladi

Laboratoriya ishi

Barjarish uchun topshiriklar:

1. V.SHvabe farmakopeyasida (27-28 betlar) keltirilgan murakkab tarkibli surtmalar: Koriza, Albumin, Linin, va tumovga karshilarini kurib chikish va texnologiyasini keltirish.
2. A.I.Tixonov muallifligida " Osnovo' gomeopaticeskoy farmatsii" kitobidan 503-505 bb. Keltirilgan surtmalarni tarkiblarini va kullanilishini yozish (3- ta)
3. Kuyidagi keltirilgan murakkab tarkibli gomeopatik surtmanni tayyorlash:
Arnika 0 4,0
Kalendula 0 4,0
Belladonna 0 2,0
Lanolin 5,0
Vazelin 85,0
4. Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni muxokama qilish

Mavzu: Gomeopatik ko'p komponentli tomchilar texnologiyasi

Mavzuni yozishdan maksad: gomeopatik amaliyotida ko'llaniladigan ko'p komponentli tomchilar texnologiyasini o'zlashtirish.

Mavzuning axamiyati: magistrni ko'p komponentli suyuq kompleksi gomeopatik dori turi texnologiyasi bilan tanishtirish

Vaziyatli masalalar (akliy xujum):

1. Avval o'rganilgan notanish dorivor xom ashyodan kompleks gomeopatik dori turini tayyorlandi. Mumkinmi?

2. Kompleks gomeopatik dori turini tayyorlash uchun suyultirilmagan 96% etil spirti ishlatilgan. To'g'rimi? Kanday kavvatga ega bo'lgan etil spirti olinishi kerak edi?
3. Kompleks gomeopatik dori turini xech xam chaykatmasdan tayyorlanadi, ta'siri bo'ladimi?
4. Kompleks gomeopatik tomchisini oldindan tayyorlab ko'yilmagan (vnutriaptechnaya zagotovka) mumkin emas deb, to'g'rimi?
- 5.

II Laboratoriya ishi

Bajarish uchun topshiriklar:

1 Kompleks gomeopatik tomchisini texnologiyasini o'zlashtirish.

Tarkib: Kalsium karbonikum 6

Bodyaga 12

Urtika 3

YUglans 6

Texnologiya I: Ushbu tarkibni tayyorlash uchun oldindan tayyorlab ko'yilgan quyidagi suyultirishlar bo'lishi kerak:

Kalsium karbonikum 5

Bodyaga 11

Urtika 2

YUglans 5

40,0g preparatni tayyorlash uchun 50,0g li flakonga 39,6g 45% li etil spirti tortib solinadi va ketma-ketlikda 0,1g (3 tomchi) dan xar bir suyultirilgan komponent solinadi, lekin xar gall 10 marta kattik chaykatiladi. Oxirida xamma ingradientlar solingan so'ng flakonda suyuklik yana 10 marta chaykatiladi. Preparat rasmiylashtiriladi.

Texnologiya II: Flakonga 39,6g 45% li etil spirti tortiladi, uning ustiga 12 tomchi suyultirib bir-biriga ko'shilgan komponentlar aralashmasidan ko'shiladi va 10 marta chaykatiladi.

Mavzu bo'yicha berilgan topshiriklarni muhokama kilish.

Uslubiy ta'minot:

- asosiy adabiyotlar;
- slaydlar, jadvallar;
- tosh-tarozi, pennitsilin shisha idishlari, flakonlar, filtr kog'oz;

Uslubiy ko'rsatmalar:

Gomeopatik amaliyotida ishlatiladigan kompleks tomchilar texnologiyasida o'simlik, mineral va hayvonlardan olingan mahsulotlarni ko'llash mumkin. Kompleks gomeopatik tomchilar tarkibiga asosan ko'p ishlatiladigan yaxshi o'rganilgan xar tomonlama dorivor moddalar kiritiladi. Kompleks gomeopatik dori vositalari bilan davolanilganda "birlamchi kassalikni zo'rayishi" dek organizmni reaksiyasi bo'lishi mumkin. Bu xolat esa dorining yukori darajadagi indekatori, aynan aynan shu kasal uchun deb hisoblanadi. Lekin, "birlamchi kassalikni zo'rayishi" xavfli emas, oson bartaraf etiladi, agar dorini iste'mol kilishni to'xtatilsa. CHunki, gomeopatik dorilarni boshka dorilardan ajralib turishi xam shu bezararligidir.

Kompleks gomeopatik dorilar surunkali kasalliklarda, aynan nevropatologiya, jarrohlik, dermatologiya, pediatriya, oftalmologiya va boshka tibbiyot tarmoklarida ishlatiladi.

Kompleks gomeopatik tomchilarda dorivor moddalar ko'shilishi anik anik texnologik jarayonasida bo'ladi va dori turini sifati kerak bo'lgan nazorat ostida bo'ladi.

Bunday preparatlar deyarlikimmat emas va kabul kilinishi kulay.

Nazorat test savollari:

1 Gomeopatik kompleks dorilar nima?

A. murakkab dorilar

V. Ko'p komponentli

S. Tarkibida bittadan oshik dorivor modda saklovchi o'simlik, mineral, hayvonlardan olingan

D. fakat tomchilar

- E. fakat granulalar
- 2 Kompleks gomeopatik tomchilar ko‘p ishlatiladigan tarkiblar asosida tuziladi, nima uchun?
- A. samarali
V. Natijali
S. Texnologiyasi oson
D. arzon
E xammasi to‘g‘ri
- 3 Kompleks gomeopatik tomchilar aynan kaysi kassaliklarda ishlatilishi maksadga muvofik?
- A. surunkali
V. o‘tkir
S. Noma’lum
D. diagnozi ko‘yilmagan
E. operatsiya kilinadigan
- 4 Kompleks gomeopatik tomchilarni ishlatiladigan tibbiyot sohalari
- F. pediatriya
V. nevropatologiya
S. dermatologiya
D. oftalmologiya, xirurgiya
E. xammasi to‘g‘ri
- 5 Kompleks gomeopatik tomchilarda shunday dorivor moddalar solinadiki, ular bitta a’zoga ta’sir etadimi yoki xar-xil?
- A. bitta
V. ikkita
S. xar-xil
D. farki yo‘k
E. xammasi to‘g‘ri
- 6 Kompleks gomeopatik tomchilar – bu individualmi yoki yo‘k?
- A. yo‘k
V. ha
S. farki yo‘k
D. guruh
E. noma’lum
- 7 Kompleks gomeopatik tomchilarni ishlatishdagi eng birinchi zaruriyat nimada?
- A. atrof-muhit iflosligidan
V. ichki gomeostaz muvozanatini ushlab
S. stress
D. toksinlar
E. odam konstitutsiyasi
- 8 Kompleks gomeopatik tomchilarning farmakologik faolligi kanday?
- A. texnologik jarayon anikligi, xom-ashyo va tayyor mahsulotni sifat nazorati
V. dozalari
S. olingan komponentlarni tozaligi
D. mikrobiologik tozaligi
E. ishlatilishi kulayligi
- 9 Kompleks gomeopatik tomchilarning farmakologik faolligi kanday?
- A. keng
V. yo‘k
S. xar-xil
D. yarim
E. deyarli bor
- 10 Kompleks gomeopatik tomchilar belgilanadi, ta’siri kanday?
- A. Bir gomeopatik dorini ta’siriga ikkinchisining ko‘shiladi

- V. ta'siri o'zgaradi
- S. kuchayadi
- D. o'zgarish bo'lmaydi
- E. xammasi to'g'ri

Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari: poroshoklar, briketlar, granular, tabletkalar va kapsulalar texnologiyasi”
Amaliy mashg'ulot. 5 soat

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari (poroshoklar, dustlar, tabletkalar, drajelar, granular, briketlar, yig'malar, ko'z pardalar, qalamchalar)ni tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

- Veterinariya qattiq dorilarining tavsifi va ta'rifi, veterinar preparatlarini dozalash asoslari.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, dustlar, yig'malar, granular, tabletkalar, briketlar, draje, kapsulalar, hab dorilar va bolyuslar texnologiyasi.
- Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.
- Veterinariya atamallari bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so'rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Uslubiy ko'rsatmalar

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari texnologiyasi

Poroshoklar (Pulvis, -eris, -eres) – ichish yoki sirtga ishlatish uchun mo'ljallangan, bir yoki bir nechta maydalangan, sochiluvchan xossaga ega dorivor kukunlardan tashkil topgan qattiq dori turi.

Kukun xolida turli dori moddalar berilishi mumkin. Kukun holida gigroskopik xossaga ega dori moddalar (kaltsiy xlorid, kaliy atsetat va b.), shuningdek aralashtirilganida bo'kuvchan massa yoki suyuqlik hosil qiladigan moddalar (antipirin va xinin), oson parchalanadigan (organik moddalar bilan aralashtirilgan kumush nitrat) yoki portlovchi moddalar berilmaydi.

Tarkibi bo'yicha poroshoklar oddiy (Pulveres simplices), bir nomdagi dori moddalardan tashkil topgan yoki murakkab (Pulveres compositi), ikki va undan ko'p moddalardan tashkil topgan, dozalarga bo'lingan (Pulveres divisi) yoki bo'linmagan (Pulveres non divisi) tasniflanadi. Poroshoklar tarkibiga kiradigan dori va yordamchi moddalarni mexanik usulda maydalaydilar (tegirmonda, xovonchada), to'zg'itib, cho'ktirib, bug'latib va boshqa usullar yordamida oladilar.

Poroshoklarning maydalik darajasi teshigining diametri aniq bo'lgan elaklardan elanishi bo'yicha quyidagilarga farqlanadi:

- o'ta maydalangan poroshoklar (Pulveres subtilissimi) - elak №1 (teshigining diametri 0,12 mm),
- maydalangan poroshoklar (Pulveres subtiles) - elak №2 (teshigining diametri 0,15 mm),
- o'rta mayda poroshoklar (Pulveres tenues) - elak №3 (teshigining diametri 0,19 mm),

- o'rta yirik poroshoklar (Pulveres modici) - elak №4 (teshigining diametri 0,33 mm),
- yirik (dat'al) poroshoklar (Pulveres grossi) - elak №5 (teshigining diametri 0,60 mm),
- o'ta yirik poroshoklar (Pulveres grossissimi) - elak №6 (teshigining diametri 3 mm).

Hayvonlar uchun beriladigan dozalangan poroshok massasi 0,2 g dan kam emas va 20,0-25,0 g ko'p emas bo'lishi lozim.

Agar poroshoklar tarkibida zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar 0,1 g massadan kam miqdorda berilgan bo'lsa, bunda poroshoklar tarkibiga o'rtacha massani ko'paytirish uchun indifferent moddalar (qand va b.) qo'shiladi (1:10 - 1:100 miqdorda), o'simlik xom ashyosidan tayyorlanadigan poroshoklar tarkibiga indifferent moddalar, agar ularning massasi 0,05 g dan kam bo'lsa.

Poroshoklarni berilishi. Poroshoklar bo'linmagan (Pulveres non divisi) va bo'lingan holda beriladi.

Misol 1.: Sigir uchun tarkibida 200 g natriy xlorid va 400 g natriy sulfat berilsin.

Rp.: Natrii chloridi 200,0

Natrii sulfatis 400,0

M.f. pulvis

D.S. Ichish uchun kuniga 2 mahal

1 osh qoshiqdan em bilan birga beriladi.

Misol 2.: Tarkibida 3 g ammoniy xlorid va 2 g natriy gidrokarbonat saqlovchi 10 ta poroshok berilsin.

Rp.: Ammonii chloridi 3,0

Natrii hydrocarbonatis 2,0

M. fiat pulvis

D.t.d №10

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal

Misol 3.: Buzoqchaga 4 levomitsetin poroshogi 0,5 g dan berilsin.

Rp.: Laevomycetini 0,5

D.t.d. N4

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal.

O'simlik xom ashyosidan tayyorlanadigan poroshoklar Pulveris (poroshok) so'zidan boshlanadi, so'ng o'simlik xom ashyosi keltiriladi, masalan, Pulveris radicis Rhei va uning dozasi keltiriladi.

Misol 4.: It uchun 12 poroshok rovoch ildizidan 0,5 g dan beriladi.

Rp.: Pulveris radicis Rhei 0,5

D.t.d. № 12

S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 3 mahal.

Poroshoklar umumiy qoidalar bo'yicha tayyorlanadi.

Poroshoklarni tayyorlash uchun tarkibda keltirilgan dori moddalar bir hil aralashtiriladi. Bunda 5,0 g gacha bo'lgan dori moddalar qo'l torozida tortib olinadi. qavonchada maydalab olish uchun unga 1/6 – 1/10 hajmgacha dori moddalar solinadi. Qiyin maydalanadigan dori moddalarni (kamfora, mentol, timol, fenilsalitsilat) maylalanishda ularga 1 g dori moddaga 10-15 tomchi 95% li etil spirti qo'shiladi.

Murakkab tarkibli poroshoklarni tayorlashda quyidagi tartibda qo'shiladi: bir hil fizik-kimyoviy xossaga ega moddalar retseptda keltirilgan tartibda qo'shiladi, agar xossalari har xil bo'lsa, dastlab yirik, so'ng mayda kristallik, so'ng engil uchuvchan moddalar ohirida qo'shiladi; murakkab poroshoklarda maydalash oldin xovoncha teshiklar ko'p miqdorda berilgan moddalar bilan berkitiladi, so'ng maydalash kam miqdorda berilgan, so'ng ko'p miqdorda berilgan dori moddalar qo'shiladi. Bo'yovchi, o'tkir hidli va uchuvchan moddalardan poroshoklar tayorlash uchun alohida toroz va xovonchadan foydalanish zarur. Bunda bo'yovchi modda boshqa bo'yamaydigan dori moddalar o'rtasiga olib maydalanadi. Poroshoklar tarkibida beriladigan efir moylari maydalangan dori moddalar ustiga ohirida qo'shiladi.

Tayyorlangan poroshoklarni dozalarga bo'lish uchun qo'l torozi yoki DVA-1,5; TK-3; DPR-2 va boshqa turdagi dozatorlar yordamida amalga oshiriladi.

Poroshoklar to'rtburchaq qilib kesilgan o'lchami 7,5x10 sm oq qoqoz (yoki pergament qoqozi) dan tayyorlangan kapsulalarga qadoqlanadi. Kapsulalarni o'rashda qog'oz kapsula cheti bo'ylama uzunasiga 0,5 - 0,7 sm ga bukiladi va ingichga uchi kattaroq uchi bilan bir-biriga tutashtirilib qo'yiladi. O'ralgan kapsulalar qoqoz paketiga solinadi. Agar poroshoklar gigroskopik, yog'li, uchuvchan moddalardan tayyorlangan bo'lsa, unda poroshoklar mo'mlangan (in charta cerata) yoki parafin bilan qoplangan (in charta paraffinata) qog'oz kapsulalarda beriladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan poroshoklar umumiy texnologiya bo'yicha: oldin tarkibga kiruvchi moddalar alohida maydalanadi, elanadi va aralashtiriladi, so'ng massa bo'yicha karton korobkada, plastmassa yoki shisha idishda chiqariladi.

Poroshoklar tashqi muhit ta'siridan himoyalovchi va saqlash muddati mobaynida ularni barqarorligini ta'minlaydigan jihozlarda saqlanadi. Poroshoklar tarkibiga kiruvchi dori moddalarning fizik-kimyoviy xossasiga qarab, quruq, salqin va quyosh nurlaridan himoyalangan joyda saqlanadi.

Hayvonlar uchun beriladigan poroshoklar oson eriydigan, nohush ta'm va hidga ega bo'lmagan bo'lib, odatda em bilan birga aralashtirib, yoki ichish uchun beriladigan suvda eritib beriladi.

Veterinariya amaliyotida turli korrigentlar qo'llaniladi: it va cho'chqalar uchun shirin moddalar, qo'y va otlar uchun – sho'r moddalar, echki va qora mollar uchun achchiq moddalar. Ayrim hollarda poroshoklar jelatina kapsulalarda beriladi. Xayvonlar terisi va shilliq qavatini qitiqlaydigan moddalar eritma, hidli moddalar esa bolyus shaklida beriladi.

Sepmalar (Aspersio, -onis, -ones) – sirtga (shilliq qavat yoki jarohatlangan teriga) ishlatish uchun mo'ljallangan o'ta mayda poroshok yoki poroshoklar aralashmasi. O'ta mayda poroshoklar terini mexanik qitiqlamaydilar va katta adsorbtsiyalash xossasiga ega. Sepmalar 5-100 g miqdorda beriladi. Sepmalar tarkibi bo'yicha ofitsinal va magistral bo'ladi.

Misol 1.: it uchun 100 g 5% amikazol sepmasi berilsin.

Rp.: *Aspersio Amicazoli 5%-100,0*

D.S. *Сиртра.*

Misol 2: it uchun 10 g dan streptotsid va kseroform saqlovchi sepma berilsin.

Rp.: *Streptocidi*

Xeroformii ana 10,0

M.f. aspersio (pulvis subtilissimus)

D.S. sirtga ochiq yaraga sepish uchun.

Misol 3: it uchun 20 r streptotsid sepmasi berilsin.

Rp.: *Streptocidi subtilissimi 20,0*

D.S. sirtga ochiq yaraga sepish uchun.

Ayrim hollarda, dori moddani yalab tashlamasligi uchun sepmalar tarkibiga hayvon terisiga yaqin rang beruvchi moddalar qo'shiladi.

Rp: *Fructus Juniperi pulveratis 15.00*

Natrii chloridi 120.0

Kalii nitratis 30.0

Aralashtiring, poroshok xosil bo'lsin

D.S. 1 osh qoshiqdan 3-4 marta kuniga otning ovqatiga solib beriladi.

Dustlar (Dusta, -ae, -ae) – changga o'xshash poroshok holdagi dori turi bo'lib, tarkibida dori va to'ldiruvchi moddalar saqlaydigan - oson adsorbtsiyalanadigan moddalar (talk, oq gil, bentonit va b.). Sepmalar tarkibida antiparazitar, insektitsid vositalar va repellentlar beriladi. Dustlar kimyo sanoatiga tegishli ishlab chiqarish korxonalaridan ishlab chiqariladi. Ayrim hollarda dustlar dorixona sharoitida tayyorlanadi. Dustlar yumshoq va mayin kukun holdagi konsistentsiyalarga ega bo'ladi va teriga yaxshi yopishishi kerak. Dustlarning maydalik darajasi organoleptik usulda – barmoqlar orasida ushlab ko'rilganida qo'lga ilqiydigan zarrachalarni saqlamasligi lozim.

Misoli 1.: it uchun ektoparazitlarga qarshi 7,5% sevin dustidan 100 g berilsin.

Rp.: Sevini 7,5
Boli albae 93,0
M.f.pulvis subtilissimus
D.S. D.S. Sirtga.

Granular (Granulum, -ae, -ae) – bir hil dumaloq, silindrsimon yoki noto'g'ri donachalar shakldagi, ichish uchun mo'ljallangan, bir hil rangli qattiq dori shakli. Granular o'lchami 0,2-3 mm bo'ladi.

Granular farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadi. Granular tarkibida dori va yordamchi moddalar (qand, kraxmal, glyukoza, natriy gidrokarbon va b.) bo'ladi.

Granular nam donadorlash (namlangan massa g'alvirdan o'tkaziladi va quritiladi), quruq donadorlash (briketlash) va strukturali donadorlash usulida tayyorlanadi.

Tayyor granular o'lchami bo'yicha bir hil bo'lishi kerak, mayda va yirik fraktsiyalar yig'indisi 5% dan oshmasligi kerak.

Granula dori shaklida nohush tamga ega, mahalliy qitiqlovchi va boshqa nojo'ya xossalarga ega, kam zaharli moddalar beriladi. Granular dozaga bo'linmagan dori shakli bo'lib, retseptda umumiy miqdori ko'rsatiladi. Granular choy qoshiq yordamida dozalarga bo'linadi va ko'p hollarda ichishdan oldin eritiladi.

Veterinariya amaliyotida granular hab dori kabi ham tayyorlanishi mumkin, ularning massasi 0,05-0,1 g bo'ladi. Ushbu granular parrandalar uchun mo'ljallangan bo'ladi va tariqqa qo'shib beriladi.

Misol 1.: Rp.: Ferri sulfurici oxydulati 0,02
Boli albae et Glycerini q.s.,
ut fiat granula
Da tales doses № 10
Signa. Tovuq uchun 1 donachadan kuniga 2 mahal.

Granular tarkibiga to'ldiruvchi sifatida qo'shiladigan oq gil 10 ta granulaga 0,5 g dan 1,0 g gacha qo'shilishi mumkin, bitta granula massasidan kelib chiqqan holda.

Texnologiyasi: oldindan maydalangan temir sulfat oq gil bilan aralashtiriladi, bog'lovchi modda sifatida tomchilatib glitserin qo'shiladi. Hab dori massasi tayyor bo'lganidan so'ng, tortiladi va sterjen shaklida juvalanib, pilyulya mashinkasining keskichisi yordamida 10 ta bo'lakka bo'linadi va shar shakli beriladi. Granular yopishmasligi uchun ustiga oq gil sepiladi. Tayyor granular shisha idishda yoki karton korbokada beriladi.

Granular-shakli, tayyorlanishi va ularga bo'lgan talablarga ko'ra pilyulalarni eslatadi, oqirligi odatda, 0.1 g dan bo'ladi. Shakl beruvchi moddalar sifatida ba'zan sut qandi, sharbatning glitserinli aralashmasi (9:1) ishlatiladi.

Misol 2.: Rp: Extracti Nucis Vomicae 0.5
Sacchari albi
Sacchari lactis ana 2.0
Farinae triticae q.s.
Ut fiant granulae N100
D.S. Kabutarlar uchun.

Texnologiyasi: oldin dorivor moddalarning kabutar, tovuqlar uchun bir martalik dozalari tekshiriladi. (X DF, 1968, 1042 b). 5-nchi nomerli xavonchada shakar yaxshilab eziladi, oz qismdan boshqa moddalar qo'shiladi va suv bilan yumshoq massa hosil qilinadi. Massa tortiladi, keyin pilyulalar tayyorlanadigan mashinka yordamida 100 granula tayyorlanadi. Tayyor granularga un sepib qo'yiladi.

Misol 3.: Rp.: Ferri sulfurici oxydulati 0,03
Boli albae et Glycerini q.s.,
ut fiat granula
Da tales doses № 20
Signa. Tovuq uchn ichishga.
1 granuladarn kuniga 2 mahal.

Masalan, 50 ta granulalarning minimal massasi 2,5 g. Granulalar tarkibida yordamchi moddalar sifatida 2,0 g sut qandi va 0,5 g gummiarabikdan tashkil topgan aralashma ishlatiladi. Shuningdek bog'lovchi yordamchi modda sifatida qand qiyomi va glitserin (9/1) aralashmasi ishlatiladi. Agar granulalar tarkibiga zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar qo'shilmasa, ularni donadorlash usulida olish mumkin, so'ng ular quritiladi.

Granulalar pergament paketchalarda, shisha bankalarda yoki karton karobkachalarda beriladi.

Xab dorilar. Otlarga 2.0-6.0 g, itlarga 0.1-0.5g, shuningdek 0.1-0.2 g oqirlikda tayyorlanadi. Yordamchi modda sifatida un keng ishlatiladi. Hab dorilarni it va mushuklarga, granulalarni esa parrandalarga don bilan birga yoki tumshug'ini ochib turib, berish maqsadga muvoffiqdir.

Xab dorilar quidagi o'lchamda beriladi:

- otlarga — 2,0—6,0 g;
- itlarga - 0,1—0,5 g;
- mushuklarga - 0,1—0,3 g;
- parrandalarga - 0,05—0,1 g;
- qora mol, echki va qo'ylarga – kam beriladi;
- cho'chqalarga berilmaydi.

Bolyuslar - dumaloq yoki tuxumsimon shaklga ega bo'lgan dori turi, oqirligi 0.5gdan 50.0 g gacha bo'lishi mumkin.

Bolyuslar dorivor modda va shakl beruvchi yordamchi moddalardan iborat, shakl beruvchi moddalar sifatida javdar un, oq gil, shinni, ko'k sovun, asal, gulxayri ildiz kukuni, sharbat va boshqalar ishlatiladi.

Umumiy tayyorlash texnologiyasi. Bolyuslar tayyorlashda xab dorilar (pilyular) tayyorlashdagi umumiy qoida va talablarga rioya qilish zarur.

Dorivor moddalarni aralashtirib turib, yordamchi moddalar qo'shiladi. Bolyuslar tayyorlanadigan massa bir oz yumaloqroq bo'lishi kerak. Odatda bu dori turi uzoqroq saqlanganda tez qotishi sababli, faqat kerak vaqtda 1-2 kun muddat bilan tayyorlanadi. Ular shisha bankalarda beriladi.

Bolyuslarga misol tariqasida quyidagi retseptni keltiramiz:

Misol 1.: Rp: Pulveris folii Digitalis 4.0
Natrii chloridi 4.0
Natrii nitric 6.0
Fructis Juniperi pulverati 10.0
Farinae Secalinae
Pulveris Glycyrrhizae ana 12.0
Ut fiant boli N 4
D.S.Otga

Texnologiyasi: retseptda yozilgan dorivor moddani X DF ot uchun bir martalik dozalari tekshiriladi. 6-nchi yoki 7-nchi xavonchada quruq dorivor moddalar maydalanadi va bir xil massa xosil bo'lguncha aralashtiriladi. Keyin un va chuchukmiya ildizining kukuni qo'shiladi va asta ozdan glitserin qo'shib yumshoq qorishma xosil bo'lguncha aralashtiriladi.

Xosil bo'lgan massa tortiladi, so'ng teng 4 qismga bo'linadi. qar bir bo'lakdan yumaloq bolyuslar tashkil etiladi va oq gil sepib idishga joylashtiriladi.

Tabletkalar (Tabletta, -ae, -ae) – dori va yordamchi moddalarni presslash usuli bilan olingan, dozalangan qattiq dori turi. Tabletkalar asosan ichish uchun mo'ljallangan bo'ladi, ayrim hollarda eritish uchun mo'ljallangan tabletkalar ham bor. Aseptik sharoitda steril eritmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan tabletkalar, sublingval, uretral, vaginal, rektal, va implantatsiya qilish uchun mo'ljallangan tabletkalar ham ishlab chiqariladi. Tabletkalar qabul qilish, saqlash va tashish uchun qulay dori shakli hisoblanadi. Tabletkalar tarkibida beriladigan dori moddalarning fizik-kimyoviy xossasiga ko'ra tabletkalarni ishlab chiqarishda bog'lovchi, sirpantiruvchi, moylovchi, to'ldiruvchi, g'ovaklovchi, bo'yovchi, korrigent, va boshqa guruhga mansub, tibbiyot amaliyotida ishlatishga ruhsat etilgan yordamchi moddalar ishlatiladi:

- to'ldiruchi moddalar (qand, laktoza, glyukoza, kaltsiy fosfat, natriy xlorid, natriy gidrokarbonat va b.), ushbu moddalar tabletkada tarkibidagi ta'sir etuvi modda miqdori 0,01-0,001 g dan kam bo'lsa (asosan zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar);

- g'ovaklovchi moddalar (jelatin, kraxmal, pektin va b) tabletkalarni oshqozon-ichak tarmog'ida belgilangan vaqtda parchalinishini ta'minlaydi;

- sirpantiruvchi va moylovchi moddalar (kakao moyi, parafin, magniy stearat, talk va b.) tabletkani press-formadan oson itarib chiqarish uchun qo'shiladi;

- bog'lovchi moddalar (kraxmal shilimshig'i, dekstrin va b.) tabletkalarni qatlanmasligi uchun qo'shiladi;

- bo'yovchi va korrigent moddalar tabletkalarga kerakli rang va ta'm beradi.

Veterinariya amaliyotida farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida insonlar uchun ishlab chiqariladigan preparatlar maxsus dozada hamda maxsus, faqat veterinariyada ishlatiladigan tabletkalar ishlatiladi.

Veterinariyada ishlatiladigan tabletkalar ham to'g'ridan-to'g'ri presslash yoki nam donadorlash usulida olingan tabletkada massasini maxsus press-mashinalari yordamida presslab olinadi. Ayrim hollarda tabletkalar kraxmal, dekstrin, mum, atsetilsellyuloza, kaltsiy stearat, qand, laktoza yoki oziqaviy loqlar bilan qoplanadi:

a) noxush ta'm va rangni niqoblash uchun;

b) tashqi muhit ta'siridan himoya qilish uchun;

v) hayvonlar oshqozoning shilliq qavatini dori moddaning qitiqlovchi, kislotaga muhit, ta'siridan himoya qilish va ta'sirini uzaytirish uchun.

Xayvonlar uchun mo'ljallangan, qobiq bilan qoplanmagan tabletkalar 50 ml harorati 37⁰ S tozalangan suvda 15 daqiqa ichida, qobiq bilan qoplangan tabletkalar esa (bundan keratin bilan qoplangan tabletkalar istisno) - 30 daqiqa ichida parchalanishi lozim. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan tabletkalar faqat farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqariladi, veterinariyada magistral tabletkalar ishlatilmaydi.

Misol 1.: it uchun 20 ta streptotsid tabletkalari, 1 ta tabletkadan kuniga 3 mahal ichish uchun.

Rp.: Tabulettae Streptocidi 0,5

D.t.d. № 20

S. Ichish uchun, 1 tabletkadan kuniga 3 mahal

go'sht qiymasi bilan birga.

Misol 2.: it uchun 20 ta "Aeron" tabletkalari, 1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal.

Rp.: Tabulettas "Aeronum" № 20

D.S. Ichish uchun, 1 tabletkadan kuniga 2 mahal

go'sht qiymasi bilan birga.

Tabletkalar quruq, salqin va quyosh nuridan himoyalangan joyda saqlanadi.

Drajelar (Dragee, -e, -e) – ichish uchun mo'ljallangan dozalarga ajratilgan qattiq dori turi. Obakilash usulida farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadi. Drajelarni olishda yordamchi modda sifatida qand, kraxmal, bug'doy uni, kakao, oziqaviy loqlar, bo'yovchi moddalar va b. ishlatiladi. Draje massasi 1,0 g oshiq bo'lmasligi kerak. Drajelar tarkibi bo'yicha odiy va murakkab tarkibli bo'lishi kerak. Drajelar tarkibida 10 ta va undan ko'p dori moddalar berilishi mumkin, ular bir-biridan yordamchi moddalar bilan ajralib turadi. Drajelar karton karobkada yoki shisha, plastmassadan tayyorlangan idishlardi ishlab chiqariladi.

Misol 1.: it uchun 0,05 g diazolin saqlaydigan drajelardan 20 dona bering.

Rp.: Dragee Diazolini 0,05

D.t.d. № 20

S. Ichish uchun, 1 drajedan kuniga 2 mahal.

Drajelar tarkibida asosan vitamin preparatlar ishlab chiqariladi.

Yig'malar umumiy qoidalar bo'yicha tayyorlanadi. Uy hayvonlarga sirtga va ichga ichish uchun qo'llaniladi. (sirtga yuvish, isitish, vannalarga; ichga – surgi, peshob haydash uchun va b.)

Yig'malardan suvli ajratmalar tayyorlanadi, non, suv yoki ovqat bilan beriladi.

Misol 1.: Rp: Species pectoralis 30.0

D.S.Choy damlanib, 1 osh qoshiqdan 1 stakan suv bilan itga beriladi.

Misol 2.: Rp: Seminum Lini

Aquae purificatae ana 100.0 ml

Aralashtiring. Cataplasma xosil bo'lsin.

B.B. Issiq holatda qo'y terisiga qo'yiladi.

Mashqulotni jihozlanishi: X-Davlat farmakopeyasi, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (rux oksidi, talk, kaltsiy stearat, magniy oksid, etil spirti, kartoshka kraxmali, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, elaklar, qo'l gidroressi, tosh-torozlar.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

- Veterinariya fanining tarixi, bugungi xolati va rivojlanish istiqbollari – tarqatma material asosida munozara o'tkaziladi.

- Veterinariya amaliyotida beriladigan retsetlarning tuzilishi.

Tavsiya etilgan veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori turlari retseptlari uchun pasport tuzing va texnologiyasini asoslab bering*:

3.1. Echki uchun poroshok tayyorlang

Rp.: Magnii oxydi 10,0

D.S. 1 marta ichish uchun.

3.2. It uchun poroshok tayyorlang

Rp.: Natrii bromidi

Kalii bromidi

Ammonii bromidi ana 1,8

M.fiant pulveres № 6

D.S. Ichish uchun 1 poroshokdan kuniga 2 mahal.

3.3. Rp.: Natrii chloridi 200,0

Natrii sulfatis 400,0

M.f. pulvis

D.S. Ichish uchun sigirga, 1 osh qoshiqdan kuniga ikki mahal em bilan birga.

3.4. Rp.: Laevomycetini 0,5

D.t.d. N4

S. Ichish uchun buzoqchaga, 1 poroshokdan kuniga ikki mahal.

3.5. Rp.: Pulveris radices Rhei 0,5

D.t.d. № 12

S. Ichish uchun itga, 1 poroshokdan kuniga uch mahal.

3.6. Rp.: Aspersionis Amycazoli 5%-100,0

D.S. Sirtaga it uchun.

3.7. Rp.: Streptocidi

Xeroformii ana 10,0

M.f. aspersio (pulvis subtilissimus)

D.S. Sirtaga it uchun.

3.8. Rp.: Tabulettae Sulgini 0,5

D.t.d. №10

S. Cho'chqaga ichish uchun 1 tabletkadan kuniga 2 mahal.

3.9. Rp.: Ferri sulfurici oxydulati 0,02

Boli albae et Glycerini q.s.,

ut fiat granula

Da tales doses № 10

Signa. Tovuq uchun 1 donachadan kuniga 2 mahal.

3.10. Rp.: Herbae Adonidis vernalis 2,0

Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5

M.f. species

D.t.d. №10

S. Ichish uchun echkiga, qo'llanishdan oldin 1 stakan qaynoq suvda 30 daqiqa damlanadi, so'ng suzib olinadi, 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

*- Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar "Charqpalak" usulida muqokama etiladi.
4. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izoqlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, qattiq dori turi, poroshok, tabletka, granula, briket.

BLITS-TESTLAR

1. Veterinar dori turlariga retseptda asosan nimalar qo'rsatilishi kerak?
 - A. Xayvon turi, laqabi, yoshi, egasining ismi sharifi;
 - B. Xayvonning yoshi va laqabi;
 - V. Egasining ismi sharifi;
 - G. Egasining ismi sharifi, xayvon laqabi.
2. Veterinar dori turlarini tayyorlashda asosan qaysi xujjatdan foydalaniladi?
 - A. DF ning X-nashridan;
 - B. DF ning XI-nashridan;
 - V. Shvabe farmakopeyasidan;
 - G. Xamma javoblar to'g'ri.
3. Kuchuk va cho'chqalar dorilariga korrigent sifatida qo'shish mumkin...
 - A. Shirin moddalar;
 - B. Achchiq moddalar;
 - V. Nordon moddalar;
 - G. Sho'r moddalar.
4. Echki va shoxli xayvonlar dorilariga korrigent sifatida ishlatiladi...
 - A. Achchiq;
 - B. Sho'r;
 - V. Nordon;
 - G. Shirin.
5. Otlarga dorilar tarkibiga qanday korrigent sifatida qo'llaniladi...
 - A. Sho'r moddalar;
 - B. Shirin moddalar;
 - V. Achchiq moddalar;
 - G. Nordon-achchiq moddalar.
6. Xayvonlarda tashqi qo'llaniladigan dorilarga qo'llaniladigan dorilarga, yalamsliklari uchun nima qo'shiladi?
 - A. Yoqimsiz maza va xidga ega bo'lgan modda;
 - B. Dukkakli vositalar;
 - V. Shirin dori moddalar;
 - G. Rangli moddalar.
7. Veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan mayda poroshoklarning diametri qancha bo'lishi kerak?
 - A. 0,15 mm;
 - B. 0,12 mm;
 - V. 0,60 mm;
 - G. 3 mm.
8. Poroshoklar tarkibiga kiradigan kuchli ta'sir etuvchi dori moddalariga qanday nisbatda moddalar qo'shiladi?
 - A. 1q10; 1q100;
 - B. DF ning XI-nashriga binoan;
 - V. qo'shilmaydi;

G. 2/10; 2/100.

9. Qiyin maydalanuvchi dori moddalar avval nima bilan maydalaniladiq

A. Kamfora, mentol, fenilsalitsilat, timol;

B. Efir moylari, kamfora;

V. Suv;

G. Spirt, suv.

10. Poroshoklar tarkibidagi dori moddalar maydalangandan keyin 1gr quruq moddaga qancha spirt va necha % qo'shiladiq

A. 95%, 10-15 tomchi;

B. 70%, 2 ml;

V. 70%, 10 ml;

G. 45%, 50 tomchi.

11. Poroshoklar asosan qanday kapsulalarga va qanday o'lchamdagilarga qadoqlanadiq

A. Pergament 7,5-10 sm;

B. Oddiy qoqoz 5,5-10 sm;

V. Pergament 0,5-0,7 sm;

G. Mumli 7,5-10 sm.

12. Sepmalar odatda qanday miqdorda retseptda yoziladiq

A. 5 dan-100gr gacha;

B. 5 dan-50 gr gacha;

V. 1 dan-100 gr;

G. 10-100 gr gacha.

13. Granulalarda zarrachalarning katta-kichikligi necha % dan kam bo'lmasligi kerakq

A. 5%;

B. 10%;

V. 1%;

G. 0,5%.

14. Usti qobiqlanmagan tabletkalar qanday moddada, xarorat va qancha vaqtda erishi kerakq

A. 37 o S li 50 ml suvda, 15 daqiqada;

B. 36,6 o S li 100 ml suvda 10 daqiqada;

V. 90% li 50 ml spirtida 10 daqiqa;

G. 37% li 50 ml suvda 30 daqiqa.

Briketlar qanday miqdorda tayyorlanadiq

A. 5 kg;

B. 2 kg;

G. 1 kg.

15. Xab dorilar otlar uchun qanday miqdorda tayyorlanadiq

A. 2,0-6,0 gr;

B. 0,1-0,3 gr;

V. 1,0-2,0 gr;

G. 2,0-5,0 gr.

16. Xab doriar kuchuklar uchun

A. 0,1-0,5 gr dan beriladi;

B. 2,0-6,0 gr dan beriladi;

V. 1,0-2,0 gr dan beriladi;

G. 2,0-10,0 gr dan beriladi.

17. Xab dorilarga shakl berish uchun qanday moddalar qo'shiladiq

A. Oq gil, yashil sovun, un;

B. Moy, oq gil;

V. O'simlik yoqlari;

G. Shakar, oq gil, un.

18. Bolyuslar necha kunga tayyorlanadiq
 A. 1-2 kun;
 B. 10 kun;
 V. 1 oy;
 G. 1 kun.
19. Ko'z pardalarining o'lchamlari...
 A. Uzunligi 6-9 mm, eni 3-4,5 mm, qalinligi 0,35 mm, o'rtacha oqirligi 0,015 gr;
 B. Uzunligi 5 sm, eni 2-5 mm, qalinligi 2 mm, o'rtacha oqirligi 0,015 gr;
 V. Uzunligi 2 sm, eni 2-5 mm, qalinligi 3 mm, o'rtacha oqirligi 0,020 gr;
 G. Uzunligi 10 mm, eni 5-6 mm, qalinligi 7 mm, o'rtacha oqirligi 1 gr.
20. Ko'z pastki qovoqiga quyiladigan ko'z pardalarining terapevtik ta'siri qancha vaqtgacha saqlanadiq
 A. 24 soat;
 B. 1 soat;
 V. 2 kun;
 G. 10 kun.
21. Ko'z pardalari qo'llanilishidan boshlab qancha vaqtda erib ketishi kerakq
 A. 35-90 daqiqa;
 B. 1 soatda;
 V. 1 daqiqada;
 G. 15 minutda.
22. qalamchalarning o'lchamlari.....
 A. Uzunligi 5-6 sm, qalinligi 4-8 mm, oqirligi 10 gr;
 B. Uzunligi 10 sm, qalinligi 6 mm, oqirligi 5 gr;
 V. Uzunligi 4-5 sm, qalinligi 2-5 mm, oqirligi 5 gr;
 G. Uzunligi 6 sm, qalinligi 7 mm, oqirligi 10 gr.
23. qalamchalar nimalarda qadoqlanadiq
 A. Folga, sellofan, pergament, penallarda;
 B. Oddiy qoqozga o'raladi;
 V. Mum kapsulalarda;
 G. To'qri javob yo'q.

ADABIYOTLAR: 1, 4, 5, 7, 9, 10, 11, 12, 13, 18

Mavzu: "Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar texnologiyasi"

Amaliy mashg'ulot. 5 soat

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar texnologiyasini tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan suyuq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning axamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan suyuq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

Veterinariya suyuq dorilarining tavsifi va ta'rifi, veterinar preparatlarini dozalash asoslari.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar texnologiyasi.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so’rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta’minot: Uslubiy qo’llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Uslubiy ko’rsatmalar

Eritmalar. (chin va kolloid) Vodoprovod yoki quduq suvi olinadi.

Eritmalarni tayyorlash quyidagi bosqichdan iboratdir:

- "A" va "B" ro’yxatiga kiruvchi moddalarning dozasini tekshirish;
- erituvchining miqdorini aniqlash;
- eritish;
- filtrlash, suzish;
- jixozlash;
- sifatini baxolash.

Suspenziya va emulsiyalar

Suspenziyalar - mikroeterogen sistema bo’lib, qattiq dispers faza va suyuq dispers muhitdan iborat. qattiq moddalarning suspenziyadagi zarrachalar kattaligi 0.3 mkm gacha, qo’pol dispers suspenziyalarda 1 mkm dan ortiq. Dorixona amaliyotida ko’pincha suspenziya xolida beriladigan dorilar qattiq moddalar bo’lib, suvda juda kam eriydi yoki amalda erimaydigan preparatlardan tashkil topgan. Suspenziya xosil bo’lishidagi asosiy faktor eruvchanlik bo’lib, shu xususida moddalar eruvchanligini o’zgarishi mumkin bo’lgan quyidagi xollarda ham suspenziya xosil bo’ladi.

1. Eritma tarkibidagi modda miqdori eruvchanlik chegarasidan ortiq o’lsa;
2. Ikki hil erituvchining qo’shilishidan moddaning eruvchanligi yomonlashsa;
3. Eritmada erigan moddalarning kimyoviy reaksiyasi natijasida erimaydigan yangi modda xosil bo’lsa.

Suspenziyalarni dori moddalardan 3 xil usul bilan olish mumkin.

1. Qattiq dori moddalarini dispersion muhitda yuqori dispersli (o’zini tabiatiga qarab) loyqalash yo’li bilan.
2. Dispergirlash (mexanika) usuli.
3. Kondensatsiya yo’li bilan.

Veterinar osilmalarda kuchli ta’sir etuvchi dorivor moddalar, o’simlik xom ashyo poroshok dorivor moddalar yozilishi mumkin.

Loyqalanish yo’li bilan suspenziyalarni tayyorlash. Amaliyotda uchraydigan dori moddalari katta-kichikligi bilan kolloid zarrachalarga yaqindir. Ularni ko’pchiligi gidrofil (suv bilan namlanadigan). Bunday moddalardan mikstura- suspenziyalar qiynash usuli bilan tayyorlanadi.

Rp: Magnii oxydi 20.0

Aquae purificatae 200 ml

M.D.S. 1 osh q. har 10 min.

(kislotalar bilan zaharlanganda)

Ichishdan oldin chayqatilsin.

Magniy oksid zarrachasining diametri 0.2-0.8 mkm, undan tashqari ular gidrofil modda. Suv bilan yaxshi ezilgandan keyin agregatik turg’un mikstura olinadi, faqat 2-3 soatdan keyin sezilarli sedimentatsiyalanishini ko’ramiz. Miksturalarni ichishdan oldin chayqatilsa, dispersligi oldingi xoliga oson qaytariladi. Miksturalarni muhokama qilayotgan turli agregat turg’g’unligi

liofobli zollni dzeta – potentsialiga o'xshash ustki gidrotatsiyalangan osilgan fazani va spirt potentsialini hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Gidrofil moddalardan suspenziyalar tayyorlash. Gidrofil moddalarga – alyuminiy gidroksid, vismut nitrat asosi, oq gil, magniy karbonat asosi, kaltsiy karbonat, talk, magniy va sink oksid, kraxmal kabilar kiradi.

Oling: Magniy oksid 1.0
Tozalangan suv 50 ml
A.B.B 1 ch.q. 3 maxal ichilsin.

Hisoblash: Magniy oksid 1.0
Tozalangan suv 50 ml
Umumiy hajm – 50.0 ml

Texnologiyasi: Xovonchaga 1.0 magniy oksid tortib solinadi va 0.5 ml suv bilan eziladi (V.B.Deryagin qoidasi), so'ngra 5 ml suv solinadi, eziladi va 2 min. qoldiriladi. Mayda tepa qismini beriladigan idishga quyiladi, qolgan moddani suv bilan bir necha marta qaytarilib idishga o'tkaziladi. Jixozlanadi va bemorga beriladi.

Juda kuchli gidrofob xossaga ega bo'lgan moddalar bilan suspenziyalar tayyorlash:

Oling: Oltingugurt 2.0
Glitserin 5.0
Tozalangan suv 100 ml
A.B.B. Sirtga qo'llash uchun

Texnologiyasi: Xovonchada 2.0 g oltingugurt 1.0 g glitserin bilan eziladi va qolgan glitserinni solib aralastiriladi. Aralashmani oz-ozdan suv bilan yuvib, beriladigan idishga to'liq o'tkaziladi, so'ngra 0.2-0.4 g meditsina sovuni qo'shiladi va chayqatiladi. Tiqin bilan berkitilib, "Sirtga qo'llash uchun" va "Qo'llashdan oldin chayqatilsin" kabi yorliqlar bilan jihozlab, bemorga beriladi.

Emulsiyalar deb – bir-birida kam yoki mutloqo erimaydigan suyuqliklarni maxsus ishlash yo'li bilan olingan dori turiga aytiladi. Emulsiyalar ko'p yillardan beri qo'llanib kelayotgan dori turi bo'lib, I Rus Farmakopeyasida ofitsinal dori deb hisoblangan. Ular asosan ikki xil suyuqlikdan iborat:

1- dispers faza, 2- dispersion muhit vazifasini o'taydi. Ikkinchi suyuqlik birinchisida mayda bo'lakchalarga bo'lingan va himoya qiluvchi parda bilan o'ralgan bo'lib, tomchilar diametri 0.1 mkm dan 50 mkm gacha borishi mumkin.

Suyuqliklarning qaysi biri dispers bo'lishiga qarab, emulsiyalar ikki turga bo'linadi.

Agar moy tomchilari suvda tarqalgan bo'lsa (ya'ni moy dispers faza bo'lsa), moyning suvdagi emulsiyasi (MS) deyiladi, aksincha, suv tomchilari moyda tarqalgan bo'lsa, suvning moydagi (SM) emulsiyasi deb ataladi.

Uruqdan tayyorlangan emulsiyalarda ko'knori, ziqir va nasha uruqlari uchraydi. Yoqli emulsiyalarga jelatoza, kamedlar va tuxum sariqi solinadi.

Rp: Olei Ricini 400.0

Gelatosae 200.0

Aq. purif. 200.0 ml

M.f. emulsum

D.S. ichga ot uchun.

Eritmalar texnologiyasi (chin va kolloid) Vodoprovod yoki quduq suvi olinadi.

Suvda yaxshi eriydigan moddalar bilan emulsiya tayyorlash

Oling: Shaftoli moyining emulsiyasidan 100.0

Natriy bromid 1.0

A.B.B. 1 ch.q. kuniga 3 maxal ichilsin.

Emulgator sifatida tuxum sarig'i olinsin.

Hisoblash: Tuxum sarig'i 8 g (birlamchi suv shuning ichida)

Shaftoli moyi 10 g

Ikkilamchi suv 100 – (10Q8) q82 ml

Natriy bromid 1.0
Umumiy hajm 100 ml

Texnologiyasi: 1 ta tuxum sarig'iga 10 g shaftoli moyi tomchilatib qo'shiladi va yaxshilab emulgirlanadi, birlamchi emulsiya xosil bo'lgandan keyin ikkilamchi suvning 1/3 qismida natriy brom eritiladi, tayyor birlamchi emulsiyani 100 ml ga etkaziladi va jixozlab bemorga beriladi.

Damlama va qaynatmalar X1 DF bo'yicha tayyorlanadi. Lekin katta vaznli mollarga tayyorlanganda dorixonadan yozilgan dorivor o'simlik xom ashyolar berilib, suvli ajratmalar uy sharoitida tayyorlanadi. O'simlik xom ashyoni usti yaxshi yopiladigan idishga solib, kerakli miqdorda qaynoq suv solinadi, idish qog'ozga o'raladi, ustidan sherst yoki paxta ko'rpa bilan o'rab 20-30 daqiqaga qoldiriladi. Keyin sovutilib, ikki qavat doka orqali suziladi.

Tayyor damlamani hayvonga zond orqali, butilkadan yoki ovqatga solib beriladi.

Suvli ajratmalar texnologiyasi. Damlama va qaynatmalar X1 DF bo'yicha tayyorlanadi. Lekin katta vaznli mollarga tayyorlanganda dorixonadan yozilgan dorivor o'simlik xom ashyolar berilib, suvli ajratmalar uy sharoitida tayyorlanadi. O'simlik xom ashyoni usti yaxshi yopiladigan idishga solib, kerakli miqdorda qaynoq suv solinadi, idish qoqozga o'raladi, ustidan sherst yoki paxta ko'rpa bilan o'rab 20-30 daqiqaga qoldiriladi. Keyin sovutilib, ikki qavat doka orqali suziladi.

Tayyor damlamani qayvonga zond orqali, butilkadan yoki ovqatga solib beriladi.

Rp: Infuzi radicis Valeriane
Tincturae Convallaria ad 10 ml
Kalii bromidi 2,0
MDS 20 tomchidan 2 marta

Olddin valeriana ildizidan damlama tayyorlanadi, unda 2.0 gr kaliy brom eritib olinadi va suzikadi. Marvaridgul tindirmasi bevosita brtiladigan idishga qo'shiladi va tiniq aralashma rangli shishaga qadoqlab jihozlab beriladi.

Mashg'ulotni jihozlanishi: X-Davlat farmakopeyasi, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (tozalangan suv, etil spirti, glitserin, kungaboqar moyi), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Tavsiya etilgan veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari retseptlari uchun pasport tuzing va texnologiyasini asoslab bering*:

- 1.1. Rp.: Solutionis Natrii bromidi 3 % — 200 ml
D. S. Ichishga it uchun. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.
- 1.2. Rp.: Solutionis Furacilini 0,02 % — 800 ml
D. S. Sirtga. Otni yarasini yuvish uchun.
- 1.3. Rp.: Olei Ricini 400,0
Gelatosae 200,0
Aquae purificatae 200 ml
Misce, fiat emulsum
Da. Signa. Ichish uchun otga.
- 1.4. Rp.: Sol. Natrii salicylatis 2 % — 200 ml,
Natrii bromidi — 3,0 g,
Coffeini-natrii benzoatis — 0,5 g.
D. S. Ichishga it uchun. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.
- 1.5. Rp.: Pulveris radicis Ipecacuanhae 5,0
Natrii hydrocarbonatis 20,0
Aq. purificatae ad 200 ml

- M. D. S. Otga 1 marta ichish uchun.
- 1.6. Rp.: Sol. Natrii bromidi 5 % — 50 ml
Tincturae Menthae piperitae 5 ml
M. D. S. It uchun 1 marta ichishga.
- 1.7. Rp.: Decocti cortices Frangulae ex 30,0 — 400 ml
D. S. Otga 1 marta ichish uchun.
- 1.8. Rp.: Decocti seminis Lini — 200 ml
Tannini 7,0
M. D. S. Sigir uchun 1 marta ichishga.
- 1.9. Rp.: Emulsi seminis Cannabis 200 ml
D. S. Qo'y uchun ichishga kuniga 3 mahal.
- *- Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar “Charhpalak” usulida muhokama etiladi.

2. Veterinariya atamallari bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, eritmalar, emulsiya va suspenziyalar, suvli ajratmalar.

BLITS-TESTLAR

1. Qaynatmalar tayyorlangandan keyin qancha vaqtga tindiriladi?
 - A. 20-30 daqiqa;
 - B. 1 soat;
 - V. 10-15 daqiqa;
 - G. 2 soat.
2. Yirik xayvonlar uchun beriladigan dorivor eritmalar xajmini keltiring.
 - A. Yirik xayvonlar uchun 100-200 ml, mayda xayvonlar uchun 500 ml;
 - B. Yirik xayvonlar uchun 500 ml, mayda xayvonlar uchun 100-300 ml;
 - V. Yirik xayvonlar uchun 400ml, mayda xayvonlar uchun 500 ml;
 - G. Xajmining axamiyati yo'q.

АДАБИЁТЛАР: 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18

Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: galen va yangi galen preparatlari texnologiyasi”

Amaliy mashg'ulot. 5 soat

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari: galen va yangi galen preparatlari texnologiyasini tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan suyuq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahxamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan suyuq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'lim usullari: Amaliy mashg'ulot, tezkor so'rov, charhpalak, munozara, blits-test.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya suyuq dorilarining tavsifi va ta'rifi, veterinar preparatlarini dozalash asoslari.
 2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.
 3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan galen va yangi galen preparatlari texnologiyasi.
 4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.
 5. Veterinariya atamallari bilan tanishuv.*
- * - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so'rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Mashg'ulotni jihozlanishi: X-Davlat farmakopeyasi, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (tozalangan suv, etil spirti, glitserin), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar.


Uslubiy ko'rsatmalar

Nastoyka (Tinctura, tincturae) – tiniq, rangli spirt, spirt-suv yoka spirt-efir yordamida o'simlik xom ashyosidan qizdirilmasdan va ekstragentdan ajratmasdan olinadigan suyuq dori turi.

Nastoykalar farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida olinadi: kuchli t'asir etuvchi modda saqlagan xom ashyodan 1:10, kuchisiz t'asir etuvchi modda saqlagan xom ashyodan 1:5 nisbatda olinadi.

Rp: Tincturae Valeriane
Tincturae Convallaria aa 100,0 g
MDS 15 tomchidan 2 marta

Tarkibda keltirilgan tindirmalar tugallanmagan tsiklii reperkolyatsiya usulida 70% etyl spirti yordamida 1:10 nisbatda olinadi.



Rasm 1. Tugallanmagan tsiklii reperkolyatsiya usulida tindirma olish

Ekstraktlar (Extractum, extracti — o'simlik xom ashyosidan ajratib olinadigan ta'sir etuvchi moddasi konsentrlangan dori turi.

Ekstragent turiga qarab ekstraktlar quyidagicha tasniflanadilar:

1. suvli (Extracta aquosa),
2. spirtli (Extracta spirituosa)
3. efirli (Extracta aetherea).

Konsistentsiyasi bo'yicha:

1. suyuq (Extractum fluidum),
2. quyuq (Extractum spissum)
3. quruq (Extractum siccum).

Suyuq ekstraktlar 1:1 yoki 1:2 nisbatda tayyorlanadi. Hayvonlar uchun beriladigan ekstraktlarning 1 martali qabul qiladigan dozasini bilish zarur. Suyuq ekstraktalar nastoykalar kabi dozalarga ajratilmay beriladi, quyuq va quruq ekstraktlar dozaga ajratilib - poroshok, tabletka, shamcha va x.k. beriladi. Retseptda albatta ekstrakt konsistentsiyasi ko'rsatilishi lozim.

Rp.: Extracti Aloes fluidi 50 ml

D. S. buzoqchaga 1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal.

Hisoblash. Buzoqchaga beriladigan aloy suyuq ekstrakti 1 marta 5 ml (choy qoshiq bilan) beriladi, 10 marta uchun 50 ml kerak bo'ladi. Ekstraktlar qorong'i, quyosh nurlaridan himoya qilingan xona haroratida saqlash kerak.

Quyidagi keltirilgan retsetni bajarilishini daftaringizga qayd qiling:

Rp.: Natrii salicylatis.....2,0 (basis)

Coffeini-benzoat Natrii..... 2,0 (adjuvans)
Sirupi simplicis 20 ml (corrigens)
Aquae purifikatae ad 150 ml (constituens)
M. f. mixtura

D.S. Buzoqcha uchun 1 osh qoshiqdan 3 mahal.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Tavsiya etilgan veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori turlari retseptlari uchun pasport tuzing va texnologiyasini asoslab bering*:

1.1. Rp.: Tincturae Valerianae 40 ml

D. S. Ichishga it uchun. 20 tomchidan kuniga 3 mahal.

1.2. Rp.: Extracti Aloes fluidi 50 ml

D. S. buzoqchaga ichish uchun 1 choy qoshiqdan kuniga 3 maqal.

*- Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar “Charqpalak” usulida muhokama etiladi.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit soʻzlar: veterinariya, tindirmalar, suyuq, quyuq va quruq ekstraktlar.

BLITS-TESTLAR

1. Korxonada Valeriana nastoykasi necha foizli etil spirtida olinadi?

A. 70%;

B. 20%t;

C. 40%a;

D. 90%;

E. 50%.

2. Korxonada Valeriana nastoykasi qanday usulda olinadi?

A. VNIIF II-usulda;

B. Matserastiya usulida;

C. Perkolaytsiya usulida;

D. Reperkolyatsiya usulida;

E. Tezlashtirilgan usulda.

ADABIYOTLAR: 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18

Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasi” Amaliy mashgʻulot. 5 soat

Amaliy mashgʻulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasini tayyorlash boʻyicha koʻnimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni oʻrganish, veterinariya amaliyotida qoʻllaniladigan yumshoq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni toʻgʻri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni oʻrganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qoʻllaniladigan yumshoq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Taʼlim usullari: Amaliy mashgʻulot, tezkor soʻrov, “Aqliy xujum” texnologiyasi, blits-test.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya yumshoq dorilarining tavsifi va taʼrifi, veterinar preparatlarini dozalash asoslari.

2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o'ziga xosligi.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari texnologiyasi.
4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

Veterinariya atamallari bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Mashg'ulotni jihozlanishi: X-Davlat farmakopeyasi, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (tozalangan suv, glitserin, vazelin, parafin, suvsiz lanolin, emulgatorlar, agar-agar, jelatin, bug'doy yoki javdar uni, qand qiyomi, o'simlik moylari, kakao moyi, kungaboqar moyi), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar, xovoncha, pilyulya mashinkasi, pergament kapsulalar va karton karobka, shisha idishi va polietilen probka.

Uslubiy ko'rsatmalar

Linimentlar. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlaridan tez-tez linimentlar uchraydi.

Linimentlar moyli, lanolinli, sovunli bo'ladi. Ko'p qo'llaniladiganlari:

Uchuvchan liniment (novshadil spirti-1 q., kungaboqar moyi-3 q).

Murakkab uchuvchan liniment (kamfora moyi-3 q., kanakunjut moyi-1 q., novshadil spirti-1 q.).

Sovunli kamfora-uchuvchan liniment (meditsina sovuni-40 q., spirt 420q., kamfora-10q., limon moyi-2 q., rozmarin-2q., tmin moyi-1q., novshadil spirti-25 q.).

Sovun-spirtli liniment (shpan qo'ng'izi kukuni-1 q., skipidar-20q., kamfora spirti-80 q., sovunli spirt-208q., novshadil spirti-12 q.).

Veterinariya amaliyotida linimentlar ko'pincha baliq moyida ishlatiladi, chunki baliq moyi yaxshi so'riladi, terini yumshatadi va tarkibida vitaminlari ko'p bo'lib, yaxshi terapevtik samara beradi.

Rp: Ammonii caustici soluti 25 ml

Olei Terebinthinae 25.0

Olei Jecoris aselli 50.0

M.f. linimentum

S.S. Otga, sirtga ishlatish uchun. oqriq qoldiruvchi.

Vishnevskiy linimenti ham ishlatiladi. (tarkibida kseroform va qora moy 3.0 dan, baliq moyi yoki kanakunjut moyi 100.0 gacha)

Surtmalar 2-5 kunga mo'ljallangan bo'ladi, shuning uchun 30.0-100.0g yoziladi, ko'z surtmalari 5.0-10.0 g va qo'tirga qarshi surtma 500.0g, oxirgi vaqtda rektal surtmalari uchraydi.

Rektal dori turlari keng qo'llanilmaydi, lekin klizma, shamchalar ancha ishlatishda qulaylik tuqdid.

Bo'tqalar. (Electuaria). Xamir konsistentsiyasiga ega bo'lgan ichga ishlatish uchun mo'ljallangan dori turi. Ko'pincha cho'chqa, otlarga beriladi. Bo'tqalar quyuq (electuaria spissa) va quyuqroq (Electuaria tenua) konsistentsiyada bo'ladi.

Quyuc bo'tqa qoshiqdan oqmaydi, quyucrog'i esa qoshiqdan shinniga o'xshab oqadi.

Bo'tqalarda zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dorivor moddalar yozilmaydi, chunki dozalarga bo'lish qiyin. Shuningdek, yomon yoqimsiz xidli, ta'mli tez parchalanadigan moddalar ham bo'tqalarga qo'shilmaydi.

Yordamchi moddalar sifatida chuchkmiani poroshogi, gulhayri ildizi poroshogi, un, shakar qiyomi, asal, o'simlik ekstrakti va sharbatlari, moylar, balzamlar, smolalar ishlatiladi.

I.E.Mozgov taklifiga ko'ra quyidagi miqdorda olinadi: agar bo'tqalar o'simlik porshogidan tayyorlansa-

-shilimshiq moddalar 1/5-1/2, qiyom va asal - 1/2-3/4, moylar - 1 qism.

Agar bo'tqalar noorganik birikmalardan tayyorlansa - shilimshiq moddalar 1/2-1/3, o'simlik ekstrakti va sharbatlar -1/2-3/4, qiyom va asal - 1 qism.

Agar bo'tqalar balzam va yoqlardan tayyorlansa - o'simlik porshogi -1/2-1/3 olinadi.

Bo'tqalar texnologiyasi. O'simlik poroshoklari yaxshilab aralashtiriladi, unga suyuqlik qo'shib, bir xil massa xosil bo'lguncha aralashtiriladi.

Bo'tqalar ex tempore tayyorlanadi. Ular turg'un emas. Konservatsiya qilish maqsadida qaynab turgan suv xammomida 1 soat davomida bo'tqa isitiladi, yoki glitserin qo'shiladi qurib qolmasligi uchun. Og'zi yaxshi berkitiladigan idishda salqin joyda saqlanadi. Bo'tqaning konsistentsiyasi retseptda ko'rsatiladi, ko'rsatilmagan bo'lsa, quyuuq bo'tqa tayyorlanadi.

Rp: Extracti Aloes 10.0

Corticis Frangulae pulverati 50.0

Salis Carolini factitii 30.0

Radicis Glycyrrhizae pulverati et

Aquae purificatae q.s.

Ut fiat eletuarium spissum

D.S. otga bir martalik bo'tqa.

Texnologiyasi:

Saburni ekstraktini maydalab karlovar tuzi bilan aralashtiriladi, keyin krushina po'stloqi poroshogi qo'shiladi.

Qizil miya poroshogi miqdori hisob-kitobi yuqorida ko'rsatilganidek, o'simlik poroshogini qovushtirish uchun altey ildizi poroshogidan 1/6 q. olish kerak, ya'ni: $\frac{50 + 10}{6} = 10,0 \text{ g}$,

karlovar tuzi uchun -1/3 q., ya'ni 30/3=10.0 g

Ja'mi altey ildizi poroshogidan 20,0 g olish kerak. Ushbu retseptda qizilmiya poroshogi keltirilgan, undan 1,5-2 marta ko'proq bo'lishi uchun 40.0 g olinadi. Barchasini qo'shib bir xil quyuuq bo'tqa hosil bo'lguncha aralashtiriladi.

Bo'tqalar asosan ot, cho'chqa va itlarga beriladi. Ular tashqi ko'rinishidan quyuuq asalni eslatadi, suyuq bo'tqalar ham bo'ladi. Bo'tqalarni tayyorlashda avval barcha kukunsimon preparatlar yaxshilab aralashtirilib, so'ngra yordamchi suyuqliklar (sharbat, shinni, yoqlar) qo'shiladi. Ular - 1/3 qism olinadi. Suyuqliklarni extiyotlik bilan oz-ozdan qo'shish tavsiya etiladi, bo'tqa suyuq bo'lib ketmasligi uchun bo'tqalarning suyuq-quyuqligi retseptda ko'rsatilgan bo'ladi. Agar ko'rsatilmagan bo'lsa, u xolda quyuuq bo'tqa tayyorlanadi. Bo'tqalar dozalariga bo'linmaydigan bo'lganligi uchun, ularga "A" va "B" ro'yxatidagi dorivor moddalar qo'shilmaydi. Bo'tqalar beqaror bo'lganligi uchun faqat kerakligida tayyorlanadi va salqin joyda saqlanadi.

Rp: Extracti Filicis maris 5.0

Rhizomatis Filicis maris pulverati

Farinae secaline ana 25.0

Glucosi spissi q.s (shinni)

M.f. electurium 100.0

D.S.Bitta cho'chqaga 1 marta edirish uchun

Texnologiyasi: retseptda keltirilgan dorini tayyorlash uchun avval paporotnik kukuni bilan unni aralashtirib, ustiga alohida tayyorlangan ekstrakt bilan shinni aralashmasi (1:1) qo'shib aralashtiriladi va 100.0 ga qadar shinni solib, yana aralashtiriladi. Tayyor bo'tqa shisha bankalarda beriladi.

Shamchalar (Suppositorium, -i, -a) - deb organizm bo'shliqlariga kiritish uchun mo'ljallangan, xona haroratida qattiq, va tana haroratida suyuklanadigan dozalariga bo'lingan dori turiga aytiladi.

Shamchalarii tasnifi:

Shamchalar qo'llanilishiga qarab quyidaga turlarga bulinadi.

Suppositoria rectalia - to'g'ri ichakka yuboriladigan shamchalar.

Suppositoria vaginalia - qinga yuboriladigan shamchalar.

Bacilli – tayoqchalar.

Bu shamchalar har-xil a'zolarga yuborilishga qaramasdan, bir xil asoslardan foydalanilib, bir xil tayyorlash texnologiyasiga ega.

Shamchalar tayyorlashda ishlatiladigan asoslarga qo'yiladigan asosiy talablar:

Ular xona haroratida qattiq, va tana xaroratida suyuqlanishi kerak. Agar ular xona haroratida qattiq bo'lmasa, ularni tug'ri ichakka yuborish qiyinlashadi. Ular mushaklarni sikish kuchini engib ichkari kirishi kerak. Agar ular tana haroratida erimasa, yoki sekin erisa, ulardan dori preparatlarni so'rilishi sekinlashadi va bir tekisda bulmaydi.

Shamchalar uchun asoslar. Shamchalar dori preparatlardan va asoslardan iborat buladi. Shamchalarni dori turi sifatida baholash shamchalardan dorini surilishga va davolash effekti, asoslarga va ularni tug'ri tanlab olishiga bog'liq.

Shamcha asoslariga quyidagi talablar qo'yiladi.

- Asos tana haroratida suyuqlanishi yoki erishi kerak
- Xona haroratida qattiq bo'lishi kerak
- Qo'shiladigan dori preparatlari bilan yaxshi aralashishi kerak
- Havo va yorug'lik ta'sirida o'z xususiyatlarini o'zgartirmasligi kerak
- Dori moddalar bilan reaksiyaga kirishmasligi kerak
- Dorini ta'siriga monelik qilmasligi kerak

Asoslar tabiataga qarab 2 ga bo'linadi.

Gidrofob - suv bilan aralashmaydigan (moysimon - kakao moyi; kakao moyi, parafin va gidrogenirlangan yog'lar; o'simlik va hayvon gidrogenirlangan yog'lar; qattiq yo g'lar, gidrogenirlangan yo g'lar, mum va parafin qotishmasi va h.k.).

Gidrofil - suv bilan namlanadi, suvda eriydigan, suvli eritmalar bilan yaxshi aralashadigan asoslar (jelatin-glitserinli gellar, polietilenoksid qotishmalari). Jelatin-glitserinli asosni 1 qism tibbiyot jelatinasi, 5 qism glitserin va 2 qism tozalangan suvdan tayyorlaydilar.

Veterinariya shamchalarini tayyorlashda limon kislotasi, emulgator №1, emulgator T-1 va T-2, tvn-80, aerosil va b.).

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan shamchalar juvalash, quyish va presslash usulida olinadi:

1. Rp.: Phenotiazini 0,2
Butyroli q. s.
Ut fiat suppositorium
Da tales doses № 6
S. Itning tyqri ichagiga 1 shamchadan kuniga 2 mahal.
2. Rp.: Suppositorii cum Ichthyoli 0,2
Da tales doses № 6
S. Itning tyqri ichagiga 1 shamchadan kuniga 2 mahal.
3. Rp.: Iodoformii subtilissimi 0,5
Butyroli q.s.
Ut fiat bacillus longitudine 10 sm et diametro 1 cm.
Da tales doses № 4
S. Otning yarasiga 1 tayoqchadan kuniga 2 mahal.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Tavsiya etilgan veterinariya amaliyotida ishlatiladigan yumshoq dori turlari retseptlari uchun pasport tuzing va texnologiyasini asoslab bering*:

1.1. Rp.: Unguenti Ichthyoli 5% — 50,0

D. S. Sirtki.

1.2. Rp.: Sulfuris 10,0

Pixis liquidae 5,0

- Adipis suilli ad 100,0
M. f. unguentum
D. S. Sirtki.
- 1.3. Rp.: Emplastri Meliloti 30,0
D. S. Sirtki.
- 1.4. Rp.: Emplastri Plumbi compositi q. s.
Extende magnitudine 50 x 20 x 0,2 sm
D. S. Sirtki.
- 1.5. Rp.: Emplastri Plumbi compositi q. s.
Extende longitudine 20 sm et latitudine 5 sm
D. S. Sirtki.
- 1.6. Rp.: Suppositorii Ichthyoli 0,2
D. t. d. N. 10
S. buzoqchanning to'qri ichagiga 1 tadan
- 1.7. Rp.: Unguenti Natrii hydrocarbonatis 5 % — 20,0
D. S. Sirtki.
- 1.8. Rp.: Pastae Natrii hydrocarbonatis 5 % — 20,0
D. S. Sirtki.
- 1.9. Rp.: Linimenti Natrii hydrocarbonatis 5 % — 20,0
D. S. Sirtki.
- 1.10. Rp.: Emplastri adhaesivi
longitudine 50 sm et latitudine 5 sm
Da. Signa. Narujnoe. Dlya sblijeniya kraev rano`.

*- Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar “Aqliy xujum” texnologiyasi usulida muhokama etiladi.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izoqlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, yumshoq dori turlari, surtmalar, linimentlar, shamchalar, bo'tqalar.

BLITS-TESTLAR

1. Tarkibiga ko'ra mazlar
A. Oddiy va murakkab;
B. Faqat murakkab;
V. Profilaktik;
G. Dorivor.
2. Ishlatilishiga ko'ra mazlar....
A. Davolovchi, davolovchi-profilaktik, himoyalovchi;
B. Davolovchi va profilaktik;
V. Gigienik;
G. Ko'p funktsiyali.
3. Qo'lanilish joyiga ko'ra mazlar.....
A. Teri ustiga va shilliq qavatlarga suriladigan mazlar;
B. Faqat shilliq qavatlarga qo'llaniladi;
V. LOR amaliyotida ishlatiladigan mazlar;
G. To'g'ri javob yo'q.
4. Lipofil tabiatli mazlar asoslari
A. Yog'li, uglevodli, silikonli asos, polietilen;
B. Uglevodli va yo'g'li;
V. Sikonli;
G. Jelatinli.

5. Vazelin-lanolin asosi qanday nisbatda ishlatiladi?
 A. 6:4;
 B. 1:2;
 V. 1:4;
 G. 5:9.
6. Qanday geterogen linimentlarni bilasiz?
 A. Suspenszion, emulsion, kombinirlangan;
 B. Suspenszion va gomogen;
 V. Emulsion va gomogen;
 G. Tug'ri javob ko'rsatilmagan.
7. Suspenszion liniment to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang?
 A. Vishnevskiy, streptotsid
 B. Ammiakli;
 V. Sintomitsin;
 G. Kamfora
8. Lipofil asoslarga nimalar kiradi?
 A. Kakao moyi, parafin, qattiq yog'qlar, mum;
 B. Gellar, kakao moyi;
 V. Glitserin va suv;
 G. Tibbiyot jelatini, mum.
9. Bo'tqalar tarkibiga qanday moddalar qo'shish mumkin emas?
 A. Kaliy pergamanat, kumush nitrat;
 B. Xamma moddalar qo'shish mumkin;
 V. Shirin moddalar;
 G. Xamma javoblar noto'g'ri.
10. Bo'tqalar qurib qolmasligi uchun
 A. Glitserin qo'shiladi;
 B. Kakao moyi qo'shiladi;
 V. Oq mum qo'shiladi;
 G. Qattiq yog'lar qo'shiladi.
11. Bo'tqalarning saqlash muddatlari qancha?
 A. 1-2 sutka;
 B. 2 soat;
 V. 7 kun;
 G. 6 soat.
12. Quyuq bo'tqa
 A. Qoshiqdan oqmaydi;
 B. Biroz oquvchan massa;
 V. Asalsimon massa;
 G. Xamma javoblar to'g'ri.
13. Bo'tqalar tayyorlanaganda yordamchi moddalar sifatida
 A. Gulhayri ildizi poroshogi, solodka poroshogi, un, shakar, qiyom, asal, o'simlik ekstraktlari va sharbatlar, moylar, balzamlar, smolalar;
 B. Un, kraxmal, jelatin, balzamlar, smolalar, mumlar;
 V. Kraxmal, jelatin, solodka poroshogi;
 V. Un, gulhayri ildizi poroshogi, jelatin, mumlar;
 G. Sharbatlar, mumlar, kakao moyi.
14. Agar bo'tqalar o'simlik poroshogidan tayyorlansa, shilimshiq moddalar....
 A. 1/5 – 1/2 olinadi;
 B. 1/2 – 1/6 olinadi;
 V. Nisbatining farqi yo'q,
 G. 2/5 – 1/3 olinadi.

15. Bo'tqalarni konservatsiya qilish maqsadida quyidagi moddalar qo'shish mumkin?
- A. Suv qo'shiladi va 1 soat davomida ishlatiladi;
 - B. Glitserin qo'shiladi va 1 kun mobaynida ishlatiladi;
 - V. Jelatin qo'shiladi va 1 oy davomida ishlatiladi;
 - G. Suv qo'shiladi va 2 kun davomida ishlatiladi.
16. Bo'tqalar asosan
- A. Ot, cho'chqa, itlarga beriladi;
 - B. Itlarga va quyonlarga beriladi;
 - V. Quyon va cho'chqalarga beriladi;
 - G. Faqat cho'chqalarga beriladi.
17. Vishnevskiy liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- A. Kseroform 3.0, qora moy 3.0, baliq moyi va kanakunjut moyi 100,0 g gacha;
 - B. Kseroform 5.0, qora moy 4.0 va kanakunjut moyi 100,0 g;
 - V. Keroform va qora moy 5.0, baliq moyi 300,0 g;
 - V. Kseroform 3.0, qora moy 3.0, baliq moyi va kanakunjut moyi 500 g;
 - G. To'g'ri javob ko'rsatilmagan.
18. Sovunli kamfora – uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating?
- A. Meditsina sovuni 40 q, spirt 40q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 1 q, novshadil spirti 25 q;
 - B. Meditsina sovuni 10 q, spirt 10q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 1 q, novshadil spirti 25 q;
 - V. Meditsina sovuni 10 q, spirt 10q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 2 q, novshadil spirti 20 q;
 - G. Meditsina sovuni 20 q, spirt 10q, kamfora 10q, limon moyi 2q, rozmarin 2q, tmin moyi 2 q, novshadil spirti 20 q.
19. Nima uchun veterinariya amaliyotida baliq moyi ishlatiladi?
- A. Yaxshi so'riladi, terisini yumshatadi va tarkibida vitaminlar ko'p;
 - B. Yaxshi so'riladi va turqunlashtiruvchi modda sifatida;
 - B. Vitaminli va konservant sifatida;
 - V. Yaxshi so'riladi, terini yumshatadi va rang berish maqsadida.
20. Uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- A. Novshadil spirti – 1q, kungaboqar moyi – 3q;
 - B. Novshadi spirti – 2q, kungaboqar moyi – 5q;
 - V. Etil spirti – 1q, baliq moyi – 3q;
 - G. Etil spirti – 5q, kamfora moyi – 2q.
21. Murakkab uchuvchan liniment tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
- A. Kamfora moyi – 3q, kanakunjut moyi – 1q, novshadil spirti – 1q;
 - B. Kamfora moyi – 2q, kanakunjut moyi – 2q, novshadil spirti – 2q;
 - V. Kamfora moyi – 1q, kanakunjut moyi – 1q, novshadil spirti – 1q;
 - G. Kamfora moyi – 5q, kanakunjut moyi – 6q, novshadil spirti – 10q.
22. Veterinar dori turlarini insonlarda qo'llaniladigan dorilardan farqi bormi va asosan qanday?
- A. Tayyorlanishi o'xshash, lekin dozasi ko'proq;
 - B. Farqi yo'q;
 - V. Faqat dozasida farqi bor;
 - G. Xamma javoblar to'g'ri.

ADABIYOTLAR: 1-5, 15, 16, 17, 18

Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasi” Amaliy mashg’ulot. 5 soat

Amaliy mashg’ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari texnologiyasini tayyorlash bo’yicha ko’nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o’rganish, veterinariya amaliyotida qo’llaniladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to’g’ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o’rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo’llaniladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta’lim usullari: Amaliy mashg’ulot, tezkor so’rov, Breyn-ring, munozara texnologiyasi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya steril dorilarining tavsifi va ta’rifi, veterinar preparatlarini dozalash asoslari.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlarining tavsifi va texnologiyasining o’ziga xosligi.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan in’ektsiya va infuziya uchun mo’ljallangan va ko’z tomchilari preparatlari texnologiyasi.
4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.
5. Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so’rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta’minot: Uslubiy qo’llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Mashg’ulotni jihozlanishi: Ma'lumotnomalar, tarkatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (in’ektsiya uchun suv, bikslar, havo sterilizatori, sterillangan kungaboqar moyi), sterillangan penitsillin shisha idishlar, rezina probkalar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Uslubiy ko’rsatmalar

Aseptikaning mohiyati. In’ektsion dori turlarini tayyorlash davomida maxsus sharoit – aseptik muhit barpo etish lozim. Bu aseptik muhit dori turlarini tayyorlashda unga tushadigan mikroorganizmlardan saqlaydi. Aseptik sharoitiga amal qilinmay tayyorlangan dori turlari oqibatida mikroflora bilan ifloslanadi va bu dorilar termik sterilizatsiya paytida o’lgan mikroorganizmlar, ular ajratgan toksinlarni o’zida saqlab qoladi. O’z tarkibida o’lik mikroorganizm qoldiqlari yoki ulardan ajralib chiqqan toksinlarni saqlovchi dori turlari organizm uchun juda xavflidir. Bunday dori turlari bemorda xaroratning ko’tarilishi (pirogen reaksiya)ga yoki nojo’ya ta’sirga olib kelishi mumkin. Ammo ba’zi dori turlari termik sterilizatsiyaga chidamsizdir. Bunday dori turlari termolabil (emulsion, suspenziya va boshqalar) bo’ladi. Termik sterilizatsiya qilingan paytda ularda flokulyatsiya (suspenziyalarda) va koalestsentsiya (emulsiyalarda) xodisasi tezlashadi. Shuning uchun termolabil dori turlarini tayyorlashda boshqacha usuldan foydalanish kerak. Buning uchun erituvchi yoki malqamlar uchun asoslar, ish asboblari va idishlar aloqida sterillanadi, yuqori xaroratga chidamsiz bo’lgan dori moddalari esa aseptik sharoitda o’lchab olinadi va sterillangan erituvchida eritiladi (ba’zan konservant qo’shiladi) yoki sterillangan asoslar yordamida sterillangan asoslar bilan aralashiriladi va sterillangan idishlarga solinadi. Dori turlarining termolabil bo’lmagan komponentlarni qam sterilizatsiya qilinadi. Barcha in’ektsion dori turlari aseptik bloklarda tayyorlanadi.

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan parenteral dori vositalari

Parenteral dori vositalariga suvli va suvsiz eritmalar, suspenziya, emulsiya va quruq moddalar (kukunlar, qovak massalar, tabletkalar) kiradi. quruq moddalarni ishlatishdan oldin steril erituvchi eritiladi. Xajmi 100 ml va undan ortiq bo’lgan parenteral eritmalar infuzion eritmalariga kiradi.

Parenteral dori vositalari steril bo'lishi, tarkibida mexanik aralashmalarni saqlamasligi, pirogenlik va toksikologik (zaharlilik) bo'yicha barcha talablarga javob berishi kerak. In'ektsion izotonik, izogidrik va izoinik bo'lishi mumkin. In'ektsion eritmalar tayyorlashda in'ektsiya uchun suv, moylar, etiloleat, shuningdek ular bilan birgalikda etil spirti, glitserin, propilenglikol, benzilbenzoat va boshqa erituvchilar ishlatiladi.

Parenteral dori moddalarni tayyorlashda konservantlar, antioksidantlar, stabilizatorlar, emulgatorlar va boshqa yordamchi moddalardan foydalaniladi. Masalan, askorbin, xlorid, vinotosh, limon, sirka kislotalari, natriy karbonat, natriy bikorbonat, o'yuvchi ishqor, natriy yoki kaliy sulfid, bisulfid yoki metabisulfid, natriy tiosulfat, fenol, butanol, rongalit va boshqalar.

Yordamchi moddalar qo'shilayotganda agar xususiy maqolada ko'rsatilmagan bo'lsa, krezol, fenol, xlorbutanolning miqdori 0.5% gacha, kaliy yoki natriy metabisulfid, sulfid yoki sulfid anhidridining esa 0.2% gacha bo'lishi mumkin.

In'ektsion eritmalar in'ektsiya uchun suv yoki xususiy maqolada ko'rsatilgan eritvchi bilan solishtirilganda, agar boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa tiniq bo'lishi kerak.

Misol 1: Natriy tiosulfatning 30% li in'ektsiya uchun eritmasi

Rp.: Solutio Natrii thiosulfatis 30% pro injectionibus 10 ml

Sterilisetur!

D.S. ot uchun tomirga


Tarkibi:

Natriy tiosulfat - 300 g

Natriy gidrokarbonat - 20 g

In'ektsiya uchun suv - 1 l gacha

Erutma umumiy injeksion eritmalar texnologiyasi bo'yicha tayyorlanadi.



Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan parenteral dori vositalarini yuborish usullari

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Tavsiya etilgan veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlari retseptlari uchun pasport tuzing va texnologiyasini asoslab bering*:

1.1. Rp.: Solutionis Coffeini natrii benzoatis 20%-80 ml

Sterilisetur!

D. S. In'ektsiya uchun eritma. Otga teri ostiga 20 ml ertalab va kechqurun.

1.2. Rp.: Benzylpenicillini-natrii 250 000 EД

D. t. d. N.5

S.In'ektsiya uchun. Buzoqchaga mushaklarga 2,5 ml dan har 6 soat.

1.3. Rp.: Solutionis Novocaini 0,5% —5 ml

D. t. d. N 5 in ampullis

S.Benzilpenitsillinni eritish uchun.

1.4. Rp.: Suspensionis Hydrocortisoni 5 ml

D.S.itning bo'g'implariga 0,5—1 ml dan haftasiga 1 marta yuborish.

1.5. Rp.: Lidocaini hydrochloridi 0,25

Solutionis Natrii chloridi 0,9 % - 50 ml

Sterilisetur!

Adde asepticce

Solutionis Adrenalini hydrocliloridi 0,1 % V - gtts.

M. D. S. Infiltratsion anesteziya uchun.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar Breyn-ring, munozara texnologiyasi usullrda muhokama etiladi.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'ektsion eritmalar, ingfuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR: 7, 12, 13, 14, 15, 16

Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi”
Amaliy mashg'ulot. 5 soat

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasini tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'lim usullari: Amaliy mashg'ulot, tezkor so'rov, “Charhpalak”, munozara texnologiyasi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlar texnologiyasi.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi.
4. Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so'rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar “Charhpalak” usulida muhokama etiladi.

Mashg'ulotni jihozlanishi: Ma'lumotnomalar, prezentatsiya, tarkatma materiallar, zamonaviy dorilar kolleksiyasi, dorivor va yordamchi moddalar (etil spirti, o'simlik moylari, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Dezinfitsiyalovchi vositalar – bu turli hayvonlarda tarqaladigan infeksiyon kasallik chaqiradigan mikroorganizmlarga tashqi muhitda haloq qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan vositalar. Dezinfitsiyalovchi vositalar molxona, go'ng saqlanadigan omborxonalarni, ayvonlar uchun ishlatiladigan asbob-uskunalarni va b. Zararsizlantirish uchun ishlatiladi.

Dezinfeksiyalovchi suyuqlik hayvonlar uchun qo'llaniladigan tibbiyot asboblarni zararsizlantirish uchun ishlatiladi:

Formalin – 20,0 g,
Toza suyuq fenol – 1,5 g,
Natriy bikarbonat – 7,5 g,
Tozalangan suv 500 g gacha.

Antiseptik vositalar (yunonchadan "anti" - qarshi, "sepsis"-kimyoviy zararlantiruvchi vositalar: fenol eritmalari (3-5%), simob (0,1-0,2%), borat kislotasi (2-4%), yod eritmalari, yodoform, kseroform, dermatol, trikrezol, brilliant yashili, formalin, xlorli ohak, kichik konsentratsiyalarda antiseptik vositalar konservant, stabilizator, bakterostatik vositalar sifatida qo'llaniladi.

Novikov antiseptik suyuqligi:

Tanin – 1 q,
Brilliant yashili – 0,2 q,
Etil spirti 96% - 0,2 q,
Kaanakunjut moyi – 0,5 q,
Elastik kollodiy - 20 q.
Quyuq massa bzlib, tez quriydi va zich elastik parda osil qiladi.

Rp: Solutionis Acidi borici 3,0 150 ml D.S.
chayish uchun

Borat kislotasi sovuq suvda 1:25, issiq suvda 1:4 nisbatda eriydi. Yordamchi idishda 3,0 borat kislotasi 150 ml tozalangan issiq 80-90°S suvda chayqitib eritiladi va beriladigan idishga suzib, jihozlab beriladi.

Rp: Solutionis Cupri sulfatis 2% - 200 ml D.S. YUvish uchun.

Mis sulfat suvda yaxshi eriydi (1:3), lekin kristallari yirik va yomon xo'llanish xossasiga ega bo'lgani uchun erish sekin boradi. Bu jarayonni tezlashtirish uchun mis sulfatni xovonchada maydalanadi va issik 80-90°S suv ishtirokida eritiladi. Tayyor eritma shisha idishga paxta orqali suzib beriladi.

Kumush nitrat va kaliy permanganat eritmalari organik moddalar ta'sirida tez parchalanib ketishi mumkin (ayniqsa, filtrlanish jarayonida). Bundan tashqari filtr qog'ozi kumush ionlarini uzida adsorbsiyalab unshab qolishi mumkin.

SHuning uchun bunday moddalardan eritmalar tayyorlashda oldindan filtrlab olingan yangi xaydalgan tozalangan suv inshatish lozim. Juda filtrlash zarur bo'lsa, birinchi yoki ikkinchi nomerli shisha filtrlardan foydalanish mumkin.

Rp: Sol. Argenti nitratis 0,12 180 ml
D.S. chayish uchun.

0,12 g. kumush nitrat 180 ml oldindan filtrlangan yangi xaydalgan tozalangan suvda eritiladi. Tayyor eritma qo'ng'ir idishda muxrlab beriladi. "Etiyot bulinsin" degan etiketka bilan ta'minlanadi. YAngi tug'ilgan chakaloklar uchun, deb yozib qo'yiladi.

Rp: Sol Kalii permanganatis 5%-50 ml D.S. surtish uchun.

Kaliy permanganat sovuq suvda 1:18, issiq suvda esa 1:3 nisbatda eriydi.

Xovonchada 2,5 g kaliy permanganat 50 ml yangi xaydalgan, oldindan filtrlangan issiq suvda maydalab eritiladi va qo'ng'ir idinshlarda jixozlab beriladi.

Farmatsevtika amaliyotida keng qo'llaniladigan eritmalardan biri Lyugol eritmasidir. Uning 5% (ichish uchun) va 1% (sirtga qo'llash uchun) eritmalari mavjud bo'lib, tarkibi quyidagichadir.

Rp: Iodi 1,0
Kalii iodidi 2,0
Aquae puriflatae ad 100ml
M. D. S. sirtga kullash uchun.

Rp: Iodi 1,0
Kalii iodidi 2,0
Aquae purificatae ad 20ml
M. D. S. ichish uchun.

2,0 g kaliy iodid 1,5 - 2,0 ml tozalangan suvda eritiladi. mosil bo'lgan to'yingan eritmada pergament qog'ozda iloji boricha tez tortib olingan 1,0 yod kristallari eritiladi. Yod to'liq erigandan so'ng tozalangan suv quyib xajmi 100 ml ga etkaziladi. Eritma paxta tampon yoki shisha filtr orqali suziladi va qo'ng'ir idishlarda, kerakli etiketka yopishtirib beriladi.

Lyugol eritmasi ichish uchun berilsa tomchilab sutga qo'shib ichiladi.

Insektitsid (lot. *insectum* — hashorat, lot. *caedo* — o'ldirish, haloq etish) — kimyoviy preparatlar bo'lib, zararkunanda hashoratlarni, ularning tuxumlarini (ovitsidlar va larvitsidlar) o'ldirish uchun ishlatiladi. Ayrim insektitsid moddalar kanalarni ham o'ldiradi (insektoakaritsidlar).

Insektitsid vositalar asosan qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunanda ashoralardan saqlash uchun ishlatiladi, shuningdek turli infeksiyon kasalliklarni tashuvchi xashoralarga, oziq-ovqat, matolar va boshqa materiallarni ham zararlantirish uchun qo'llaniladi.

Insektitsidlar kimyoviy tarkibi bo'yicha quyidagicha tasni flanadi:

- xlororganik (DDT, gekсахloran va b.)
- fosfororganik (tiofos, karbofos, metilmerkaptos, dixlofos, diazinon, xlorpirifos va b.)
- karbamin kislotasi xosilalaroi (metilkarbamit), (propoksur),
- tabiiy piretrinlar va sintetik piretroidlar (sipermetrin, deltametrin, sigalotrin)
- tarkibida margimush saqlovchi preparatlar (kalsiy va natriy arsenit, kalsiy arsenat)
- oltingugurt preparatlari
- mineral moylar
- O'simliklardan olingan zaharlar (anabazin, nikotin alkaloidlari)
- neonikotinoidlar (imidakloprid, tiametoksam),
- xitign sintezi ingibitorlari (diflubenzuron)
- fenilpirazollar (fipronil)
- yuvenoidlar

Insektitsid preparatlar — eritma, konsentrlangan eritma, emulsiya, namlanuvchi poroshok, dustlar, aerezollar va b. Dori shaklida ishlab chiqariladi. Ular tarkibida yordamchi modda sifatida to'ldiruvchi, sirt faolmoddalar (SFM) va boshqalar ishlatiladi. Insektitsid preparatlarning faolligi ko'p jiatdan tarkibiga bog'liq bo'ladi.

«Insektitsid» atamasi dori modda va uni saqlovchipreparatga ham tegishlibo'ladi. Jahonda 250 dan ortiq insektitsid preparatlar ma'lum. Ko'p firmalar bir hil moddadan tayyorlangan preparatlarniturli savdo nomi bilan ishlab chiqaradilar (jadval-1). Insektitsid preparatlar assortimenti muntazam yangilanib boradi, bu xol hashoratlar insektitsid preparatlariga rezistentligi ortibborishi hamda yuqorisamaradorvainsonlar uchun zararsiz insektitsid preparatlarining yangiavlodi ishlabchiqarilishibilan boliq.

Ishlatilishiga ko'ra insektitsidlar kontaktli, ichak orqali, va fumigantlar (nafas yo'liorqali)ga tasniflanadi.

Zamonaviy insektitsid vositalarining nomeknlatursasi

Avant

Aktara, kruzzer

Aktellik, belofos, fosbetsid
 Bankol
 BI-58 novo'y (dimetoat) – sin. Danadim, Rogor-S
 Buldok
 Danitol
 Detsis (deltametrin) – sin. Detsis profi, Detsis ekstra.
 Diazinon (diazinon) – sin. Grizli, Diazol
 Dimilin
 Dursban (xlorpirifos) – sin. Pirineks.
 Zolon (fozalon), benzofosfat
 Insegar
 Karate (lyambda-sigalotrin), karate zeon, brey
 Kinmiks
 Konfidor ekstra (imidakloprid) – sin. Antijuk, Imidor, Komandor, Konkord, Proagro 100 SL, Protektor, Tanrek
 Lannat 20 L (metomil)
 Mospilan (atsetamiprid) – sin. Agrolan, Djayant, Reksflor
 Nomolt
 Nurell D
 Oftanol
 Pirimiks 100 RS (pirimikarb), pirimor
 Prostor
 Regent (fipronil), adonis, kosmos
 Sumi-alfa (esfenvalerat) – sin. Sempay
 Sumition (fenitroton), metation
 Sumitsidin (fenvalerat), baversan
 Talstar (bifentrin)
 Fastak (alfa-sipermetrin) – sin. Alterr, Rotalaz, Faskord, Sunami,
 Talstar (bifentrin)
 Fufanon (malation) – sin. Novaktion, Karbofos
 Fyuri (zeta-sipermetrin) – sin. Tarzan,
 Simbush (sipermetrin) - sin. Arrivo, Siperon, Sipi, Sitkor, Sitrin, SHarpey, SHerpa

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

DTT-4,4'-dixlordifeniltri-xlorometilmetan, dixlordifeniltri-xloroetan (pentaxlorin, SS-5) – oq rangli kristallik poroshok, suvda erimaydi, spirtida kam eriydi, organik erituvchilarda - benzin, skipidar, atseton, kerosin va b.yaxshieriydi DTT turli dori shakllarida ishlatiladi.

Keltirilgane tarkiblarni daftaringizga yozing:

Dust Duolit:

DTT – 25 q,

mineral moy – 1q,

talk – 39 q,

kaolin -32 q.

Ishlatishdan oldin Duolit dustini 1:2 nisbatda to'ldiruvchi qo'yladi.

Dust DDT: DTT – 5, 6, 7 yoki 10% vaunga teng miqdorda talk, kolin, mel, kizelgur, silikagel va b. Qo'shiladi.

Detoyl konsentrati: DTT – 28%, turbina moyi – 10%, xlorbenzol - 40%, sulfomoylar – 25%.

Duolit konsentrati: DTT – 20%, tetralin erituvchisi – 30%, emulgator – 50%.

DTT sovuni: DTT – 5-50%, xo'jalik sovuni – 95-50%. Ayrim xollarda sovun tarkibiga geksaxloran 10% gacha qo'yladi.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'eksion eritmalar, ingfuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR: 1, 4, 5, 7, 9, 10, 11, 12, 13, 18

**Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi”
Amaliy mashg'ulot. 5 soat**

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'lim usullari: Amaliy mashg'ulot, tezkor so'rov, bumerang texnologiyasi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar nomenklaturasini.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasini.
3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalarni.
4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalarini.

Veterinariya atamaları bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so'rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

Mashg'ulotni jihozlanishi: Ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (bug'doy uni va doni, etil spirti, o'simlik moylari, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Premiks atamasi lotin tilida «prae» - olg'a, dastlab va «micseo» - aralashtir ma'nosini bildiraman. Premikslar mikrobiologik yoki kimyoviy sintez usulida olingan biologik faol qo'shimchalar bo'lib, ilmiy asoslangan tarkiblarga asoslangan holda tuziladi. Premikslar em, kombikorm, oqsil-vitaminli oziqaviy qo'shimchalar tarkibiga kiritish uchun mo'ljallangan. Premikslarni yaratishdan asosiy maqsad – oziqaviy maxsulotlarni qiymatini oshirish va yo'naltirilgan holda hayvonlarni maqsadli boyitilgan oziqlantirish.

Premikslar tarkibiga kiruvchi farmakologik faol moddalarga qarab ular quyidagicha tasniflanadilar:

- vitaminli,
- antibiotikli,
- mineralli,
- oqsilli
- kompleksli.

Ta'sir qo'rsatishiga qarab premikslar profilaktik va davolovchi bo'ladilar. Premikslar tarkibida ishlatiladigan biologik faol moddalar – vitaminlar, mikroelementlar, aminokislotalar, kimyo-terapevtik preparat va b. ishlatiladi.

Biologik faol moddalar bilan birga premikslar tarkibiga to'ldiruvchi moddalar - bug'doy, kepak, kunjara, kalsiy karbonat, oqak, mel, drojjilar va boshqa moddalar olinadi.

Premikslar retsepturasi o'ta murakkab bo'lib, hayvonlar uchun hayotiy zarur moddalarga boyitilgan moddalarni qo'shib, hayvonlar turi, yoshi, jinsiga qarab tuziladi, shuningdek premikslar tarkibiga kiruvchi moddalarni kimyoviy va biologik mos kelishi hisobga olinadi.

Premikslar ta'sir mexanizmi tarkibiga kiruvchi moddalar tomonidan belgilanadi:

- To'ldiruvchilar – ushbu yordamchi moddalar biologik faol moddalarni o'z tarkibida ushlab va saqlab turadi. Ushbu moddalar premikslar asosini tashkil etadi, shu sababli uning sifati, maydalik darajasi va biofaol moddani bog'lash xususiyati, mahsulot sifatiga umumiy ta'sir ko'rsatadi.

- Vitaminlar – hayvonlarni umumiy tonusini ko'tarib, fiziologik tizimlar faoliyatini jadallashtiradi (fermentativ, immun va gormonal). Vitaminli va vitamin-mineralli premikslarning esa biologik faol moddasi hisoblanadi.

- Mineral moddalar – struktura hosil qiluvchi material hisoblanadi va hayvon skeletini tuzilishida muhim ahamiyatga ega (kalsiy, magniy, jelezo, fosfor, med va x.k.). vitamin-mineral premikslarning biofaol asosini tashkil etadi.

- Aminokislotalar – premikslarni oziqaviy qimmatligini belgilovchi qo'shimcha (Lizin, Metionin, Treonin va b.) hisoblanadi. Ushbu moddalar oziqaviy mahsulotlarda ham bor, biroq em tarkibidan ular sekin hazma bo'lishi hisobiga tahchillik vujudga kelishi kuzatiladi.

Masalan, lizin, don mahsulotlaridan 75-85% o'zlashtiriladi, hayvon oqsillar tarkibidan esa - na 85-95% o'zlashtiriladi, premikslar tarkibida beriladigan biosintetik lizin - 100% ga o'zlashtiriladi.

- Yordamchi moddalar: antioksidantlar, konservantlar, ular mog'or tarqalishini oldini oladi.

- Aromatizatorlar mahsulotni berish uchun qulay va xushtam qiladi, kombikor tashqi ko'rinishini chiroyli qiladi.

Biroq premikslar em yoki kombikorm o'rnini bosmaydi.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Ilovalarda keltirilgan premikslar tarkibini izohlang va daftaringizga yozing.

2. Veterinariya atamaları bilan tanishish va ularni izohlash.

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'eksion eritmalar, infuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR: 1, 4, 5, 7, 9, 10, 11, 12, 13, 18

Mavzu: “Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar texnologiyasi va nomenkaturasi”

Amaliy mashg'ulot. 5 soat

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlarini tayyorlash bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlari retsepturasi va dozalarni o'rganish, veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan gomeopatik preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan gomeopatik preparatlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'lim usullari: Amaliy mashg'ulot, tezkor so'rov, charhpalak, munozara texnologiyasi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlar nomenkaturasi va dozasini.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik qattiq preparatlar texnologiyasini.

3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik suyuq preparatlar texnologiyasini.
4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik yushoq preparatlar texnologiyasini.
5. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik dori preparatlarning sifatini baholashni. Veterinariya atamalari bilan tanishuv.*

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar “Tezkor so’rov” usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar “Charhpalak” usulida muhokama etiladi.

Mashg'ulotni jihozlanishi: V.Shvabe qo'llanmasi, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, dorivor va yordamchi moddalar (qand granulari, laktoza, etil spirti, o'simlik moylari, tozalangan suv), shisha idishlar, voronka, silindr, tosh-torozlar, pergament paketchalar

Uslubiy ko'rsatmalar

Turli dori moddalardan suyultirishlar tayyorlash

A. Suyuqliklar /eritma, essensiya, tinktura/ dan suyultirish yo'li bilan dori tayyorlash.

Buning uchun idish xajmi $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{3}$ qismida bo'sh bo'lishi kerak.

Dori nomi va suyultirish darajasi idish va tiqinda ko'rsatilishi kerak.

Misollar asosida o'nlik va yuzlik suyultirishlar keltiriladi.

Xar doim suyultirish o'n marta /qattiq/ kuchli aralashtirish yo'li bilan olib boriladi.

Xar ikki xil suyultirishda 2-o'nlik va 2-yuzliklar 45% spirt yordamida suyultiriladi.

B. Trituratsiyalar /poroshoklarni/ tayyorlash farmakopeyaning 7-bandi bo'yicha tayyorlaniladi.

V. Trituratsiyalardan suyuqliklar tayyorlash. Buning uchun 3 S tayyorlangan poroshok olinib, 79q. suv 20q. 90% spirt qo'shib 10 marta chayqatiladi 4 S 5 S ni tayyorlash uchun 4S dan Iq. olib 99q. 45% spirt olinadi, qolganlari 6S, 7S xam 45% spirtda suyultiriladi.

Bulardan so'ng granularlar, tabletkalar, yumshoq dori turlari tayyorlash, sirtga ishlatiladigan spirtlarni tayyorlash usullari.

Gomeopatik suvli va suv-spirтли eritmalar texnologiyasi

Gomeopatiyada ishlatiladigan eritmalarini va potensiyalarni tayyorlashda sanitariya qoidalariga talablariga muvofiq mikrobiologik tozaligiga javob berishi shart. /X1 DF ning 2 qism, 193 bet/.

Suyuq moddalarni suyultirish qoidalari. Suyuq birlamchi moddalarni (eritmalar, essensiyalar, tinkturalar) suyultirilishi quyosh nuri tushmaydigan, qorong'i xonada amalga oshiriladi. Suyultirish uchun ishlatiladigan idishlarning hajmi suyultiriladigan modda hajmidan $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{3}$ marta katta bo'lishi kerak. Dorining nomi va suyultirilishi tiqinda hamda idishning yorlig'ida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. YUzlik suyultirishda raqam oldiga "S" xarfi, o'nlik suyultirishda esa raqam oldiga "D" xarfi qo'yiladi. Katta hajmdagi suyultirishlar og'irlik vazni bo'yicha olib boriladi, kichik hajmdagi suyultirishlar tomchilab qo'shiladi.

a) o'nlik shkala uchun :

Suyultirish belgilari ko'rsatiladigan idishlar D1 dan D30 gacha bir qator terib qo'yiladi, so'ng D2 boshlab 9 qism xususiy maqolada keltirilgan suyultiruvchi modda (masalan 45% etil spirti) solib chiqiladi, so'ngra maxsus bandlar bo'yicha suyultirish jarayoni olib boriladi. Bunda har bir idish 10 marta qattiq tepadan pastga chayqatiladi, so'ng xosil bo'lgan eritmadan bir qismi boshqa idishlarga o'tkaziladi va xokazo.

b) YUzlik shkala uchun:

Dorilarning nomi yozilgan idishlar S1 dan S30gacha bir qator stolga terib qo'yiladi, S2dan boshlab menzurka yordamida idishlarga 99 qism suyultiruvchi modda qo'shib chiqiladi, so'ng bandlarda keltirilgan bo'yicha birinchi idishga bir qism modda va 99 qism erituvchi (suyultiruvchi) modda solib 10 marta tepadan pastga chayqatib, hosil bo'lgan eritmadan bir qismi keyingi idishga o'tkaziladi. SHu tarzda suyultirish davom etadi.

Gomeopatik essensiyalar texnologiyasi

Ganeman o'zining davolash usuli bilan bir qatorda gomeopatik dorilarni tayyorlash usullarini ham yaratgan.

Gomeopatik dori turlari yangi yig'ib olingan va quritilgan o'simliklar, xayvonot olamidan olingan va mineral moddalar yoki kimyoviy birikmalardan tayyorlanadi. Dorixonalarda essensiya, tinktura, eritma, trituratsiyalar tayyorlanib, ular aniq dorivor modda saqlaydi, ulardan keyinchalik qonun-qoidalar asosida suyultirishlar oboriladi.

Essensiyalar - bu yangi uzib olingan dorivor o'simliklardan, ularning tarkibidagi sharbatini miqdoriga bog'liq bo'lgan xolda SHvabe farmakopeyasi asosida 3 ta /1,2,3/ bandlar bo'yicha tayyorlanadi. O'simlik tarkibidagi sharbat miqdori bir necha omillarga, ya'ni:

- o'simlikni o'sayotgan joyi;
- yig'ib-terib olingan yilning fasli;
- yomg'irgarchilik bo'lgani yoki yo'qligi va boshqalarga bog'liqligi aniqdir.

SHuning uchun gomeopatiya amaliyotida dorivor birlik deb o'simlikdan siqib olingan sharbat xisoblanadi.

1-chi band bo'yicha o'simlikda sharbat miqdori 60% yoki undan ko'p bo'lsa essensiyalar quyidagicha tayyorlanadi.

Bunday o'simliklar o'z tarkibida smola, efir moylari va kamfora birikmalarini saqlamaydi va maydalab press orqali siqqanda 60% va undan xam ko'proq sharbat beradi. Essensiya tayyorlash uchun: mayda qilib maydalangan va bo'tqaga aylantirilgan o'simlikni press yordamida eziladi va sharbati olinadi. Olingan sharbatga 90% etil spirti teng miqdorda qo'shiladi va qattiq aralashtirilib, cho'kish uchun qo'yib qo'yiladi. 8 kun o'tgandan so'ng essensiya filtrlanadi va tiniq bo'lishi kerak.

2-chi band bo'yicha o'simlikdagi sharbat miqdori 60%dan kam bo'lsa essensiya quyidagicha tayyorlanadi .

Bunday o'simlikda ham smola, efir moylari va kamfora birikmalarini saqlamaydi. Maydalab press orqali siqqanda 60%dan kam sharbat beradi. SHuning uchun oldin o'simlikdagi sharbat miqdori aniqlanadi. SHarbat miqdorini aniqlash uchun birinchi qilib 100-105⁰S xaroratdagi maydalangan o'simlik massasini namlik darajasi aniqlanadi /a/. Ikkinchi qilib o'simlikdan siqib olingan sharbatni filtrlab 100⁰S xaroratdagi quruq qoldig'i topiladi /b/. Topilgan ko'rsatkichlar formulaga qo'yiladi va sharbatni miqdori aniqlanadi.

Demak,

$$X = \frac{100 \times a}{100 - b}$$

Ayrim o'simliklarning maydalangan massasida shilimshiq ko'p bo'ladi va chiqqan sharbat miqdori juda kam bo'lsa, aniqlanayotgan o'simlik miqdoriga teng qilib suv qo'shiladi va tez, qattiq chayqatilib 24 soatga qoldiriladi, keyin filtrlanadi. Filtrlangan sharbatida 100⁰S xarorat bo'yicha quruq qoldiq aniqlanib /s/, sharbat miqdori quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = \frac{100 \times (a+s)}{100 - s}$$

Endi maydalab olingan o'simlik tortiladi va uning yarmicha 90%li spirt bilan namlab, yana maydalaniladi va quyuq bo'tqaga aylantiriladi. Keyin sharbat massasiga teng miqdorgacha 90%li spirt qo'shib aralashtiriladi va 8-14 kunga matsersatsiya uchun qo'yiladi. Massani siqib og'zi yaxshi jips bekiladigan idishga solinadi va 8 kunga salqin joyga tindirish uchun qo'yiladi, keyin filtrlanadi. Dorivor moddaning miqdori 1/2 ga teng bo'ladi.

O'simlikdagi sharbat 60%dan kam va sharbat smola, efir moyi va kamfora birikmalarini saqlasa, essensiya quyidagicha tayyorlanadi.

Maydalangan o'simlikni quyqasimon massaga aylantirib tortiladi unga 90%li spirt miqdorining yarmicha solinadi va yaxshilab aralashtirib bo'tqa xosil qilinadi. SHarbatning miqdori aniqlangandan so'ng, uning miqdoriga ikki barobar ko'p 90%li spirt solinadi, aralashtirib uni 8-14 kunga

matseratsiya uchun qo'yib qo'yiladi. Keyin suyuqlik joyi quyilib olinadi, massa esa yana press yordamida siqiladi va bu ikkala suyuqliklar qo'shib 8 kunga salqin joyda tindiriladi va filtrlanadi. Essensiya tiniq bo'lishi kerak.

Gomeopatik tinkturalar texnologiyasi

4 band bo'yicha spirtli nastoykalarini quritilgan o'simlik va yangi xayvonot to'qimalaridan tayyorlanishi, 2 kunlik matseratsiya yo'li bilan va keyingi perkolyasiya usulini qo'llab tayyorlanadi. Buning uchun quritilgan o'simliklar dag'al poroshok xolatigacha maydalanadi. Undan, 1 qism olib ustiga 10 qism etil spirti /konsentratsiyasi o'simlikka bog'liq bo'lib farmakopeyada ko'rsatilgan/ solinadi.

Nastoykalar tiniq rangli suyuqliklar bo'lib, spirt va suv yoki spirt bilan efir aralashmasi yordamida o'simlik, kamroq xayvon xom ashyolaridan olinadi. Bu gomeopatik tinkturalarni olish uchun xom ashyolarni maxsus ishlash yo'li bilan ajratmalar tayyorlanib, tindiriladi. Tinkturalar tarkibida dorivor moddani miqdori 1:10 ga teng. Gomeopatiya farmakopeyasining 4-nchi bandi bo'yicha bir qism quritilgan o'simlik yoki tirik to'qimaga 10 q spirt qo'shib tinktura tayyorlash. Buning uchun 1 q maydalangan maxsulotga uning yarim miqdorida spirt qo'shib, aralashtirib, og'zi jips berkiladigan idishda, tez-tez aralashtirib 2 kunga qoldiriladi. So'ng perkolyatorga joylab kerakligicha spirt solib, xar daqiqada 20 tomchidan tushiriladi va tayyor maxsulot 1/10 nisbatiga to'g'ri bo'lguncha yig'iladi. Mabodo perkolyatorga tinkturani olish iloji bo'lmasa matseratsiya usulidan foydalaniladi. Buning uchun 1 q maydalangan o'simlik 10 q bilan aralashtirib 16⁰S da 8 kunga qoldiriladi, xar kuni aralashtirib turiladi. So'ng suyuq qism ajratiladi, qoldiq siqiladi xar ikkalasini qo'shib 8 kunga tindirish uchun qoldiriladi, so'ngra filtrlanadi. Tinkturalarni jonivor to'qimalaridan olish uchun chinni xovonchaga yangi so'yilgan yoki o'ldirilgan jonivor maxsuloti tozalanib, eziladi. Uning bir qismiga 10 q spirt qo'shib, aralashtirib 14 kunga qoldiriladi.

So'ng suyuqlik ajratilib, qoldiq siqilib, bir-biriga qo'shiladi va yana 8 kunga qoldiriladi, keyin filtrlanadi. Tayyor tinktura 1:10-birlamchi o'nlikka to'g'ri keladi. Misol: tinktura aloe matseratsiya usuli bilan 60% li spirtida tayyorlanadi. Asosan to'g'ri ichakka ta'sir qilib, ich ketar, kolit, proktit kasalligida ishlatiladi. Gomeopatik dorilarni tayyorlash uchun olingan spirtning quvvati va ishlatilishining ayrimlari keltirildi.

Apis/60% spirt bilan/ allergiyaga qarshi;

Arnika/90%/ allergiya, antigistamin ta'sirli;

Berberis /60%/ buyrak va o't bezidagi toshlarida

Kalendula/60% / kuygan, gangrena, yaralarni bitishida

Kontaris /90%/ shpan chivini, pielonefrit, sistit, uretrit siydik yo'llari kasalliklarida;

Kapsikum /90%/ bronxial astma, gastrit, enurez, gemorroy, gerpesda.

Xina /60%/ anemiya, og'ir kasaldan keyin kuchsizlanishda

Sina /90%/ gijjalarida

Sinnamomum /60%/ yiringli kolitda

Kokkulyus /60%/ nefroz, uyqusiz, boshog'riq, asablanishda

Kalotsint /90%/ migren, ishias, troynichnyy nerv shamollashida

Evkalipum/90%/ tumov, tomoq, burun kasalligida.

Granatum /90%/ ich qotganda

Ignatsiya /60%/ psixika buzilishi, bir kulib, bir yig'lab kayfiyati buzilishida

Ipekakuana /60%/ bronxit, gastrit, faringitda

Ledum /bogulnik/ /60%/ revmatizm, xashorat chaqqanda

Nuks vomika /60%/ markaziy vegetativ nerv sistemaga, psixik simptomlar vujudga kelganda.

Tinkturalarni essensiyalardan tayyorlash

YUqoridagi usullardan tashqari tinkturalarni tayyorlab qo'yilgan essensiyalardan ham tayyorlash mumkin.

Buning uchun 2 q essensiya 8 q 45% spirt bilan 1,2 bandlar bo'yicha 1/2 yoki 3q essensiya 7q 60% spirt bilan 3 band bo'yicha 1:3 yaxshilab aralashtiriladi. Tinkturalar 1-chi o'nlik suyultirish shkalasiga to'g'ri keladi.

Sirtga ishlatish uchun buyuriladigan tinkturalardan spirtli eritmalarni tayyorlash uchun kerakli miqdordagi tinkturani olib 70% spirt bilan aralashtirib beriladi.

Gomeopatik surtmalar, moylar va opodeldoklar texnologiyasi

Gomeopatiyada granula, tritursiya, tomchilardan tashqari kamroq bo'lsa ham yumshoq dori turlaridan surtmalar, yog'lar, liniment, opodeldok va shamchalar ishlatiladi.

Gomeopatiya surtma dori turi sirtga ishlatiladigan yumshoq dori bo'lib, dorivor modda va asosdan iboratdir. Dispersiologik tasnifi asosida ular shaklsiz dispersion muxit qovushoq-elimshak bo'ladi. Surtma dorilar juda qadimiy dori turi bo'lishiga qaramay zamonaviy tibbiyotda va ayniqsa gomeopatiya davolash usulida alohida va katta ahamiyatga ega.

Gomeopatiyaning asosiy maqsadi dori turlarining ichga granula, poroshoklar shaklida ichib, kasalni organizm ichidan, ya'ni tubdan yo'qotish, shu organizmning o'zining ximoya kuchlarini oshirish va tanadan umuman faqat kasalni yo'q qilish bo'lmay, balki uni belgilarini ham yo'qotishdir. Lekin biz bilamizki, bemorlar miyazmalari bo'yicha 3-toifaga bo'linadi: psora, sikoza va sifilina. Demak psora miyazmali kasallarda ichki a'zolardan tashqari ko'pincha yara-chaqalar chipqon, allergiya, xusn buzar, bo'g'imlarning og'irishi, dermatitlar bo'ladi. SHuning uchun gomeopatiya vositalaridan yog'lar, liniment, surtmalar, spirtlar, opodeldoklar ishlatiladi.

Surtma dorilarni qo'llanishi keng bo'lib ularni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin: avvalo ular asosan dermatologik surtmalar va terining jaroxatlanganida, kasalliklarida ishlatiladi, tanaga so'rilib chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin va yuzaki ta'sirli surtmalar ham bo'ladi. Surtma dorilar asosdan va dorivor moddadan iborat. Asoslar surtmani 80%dan yuqorisini tashkil qiladi, shuning uchun asoslarning ahamiyati juda katta. Birinchidan ular surtmani og'irligini, dori moddalarning konsentratsiyasini qattiq-yumshoqligini va ayniqsa dori moddani so'rilish darajasini belgilaydi. Demak, asos bu surtmani faol qismi ekan va u dorining terapevtik ta'sirini barobar dorivor modda bilan ta'minlaydi. Gomeopatiya farmakopeyasida surtma dori turini tayyorlashda vazelin va lanolin olinsin deyilgan. Lekin, bu farmakopeya chiqqaniga necha yillar bo'lib, hozirgi zamonaviy asoslar topilgan va asoslar assortimenti ko'paygan. Bor asoslarni guruhlarga bo'linsa, unda gidrofob, gidrofil va difil asoslar bor /suvga nisbatan: yog'li asoslar, yog'ga yaqinlari, uglevododlar va silikonlar/. Gidrofil asoslardan: selluloza xosilalari MS, KMS, Na-KMS, bentonitlar, fitosterin va kollagenlar, jelatin-glitserinli asoslar, uchinchi guruhlardan-emulsion asoslar-emulsiya tipidagi asoslar tarkibida SFM emulgatorlar bo'ladi /T-2, pentol, sorbitan oleat, PGS va b. /Hozirgi talablarga binoan keltirilgan asoslardan eng to'g'ri keladiganini, ya'ni DMning xususiyatiga, surtmani qo'llanishiga ko'ra tanlab olinadi.

Gomeopatiya surtma dorisining texnologiyasi

Asosan XI DFning 2 qism 145b. "Surtma dorilar" moddasiga binoan tayyorlanadi. Dori moddalarning fizik-kimyoviy xususiyati, asosda yoki suvda erishini xisobga olgan holda tayyorlanadi. Ma'lumki, DMLarni asosga kiritilishi bo'yicha 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Asosda eriydigan moddalar bo'lsa, oldin ular shu asosda eritiladi. Misol qilib tumovga qarshi surtma dorini keltiramiz:

Mentolum

Oleum evkalintum 10,0 dan

Vazelin 1000,0

Tayyorlanishi: suv hammomida vazelin eritiladi va issiq vazelinga /45-50⁰ S/mentol qo'shiladi, erib ketgandan keyin evkalitum moyi qo'shiladi.

2. Suvda eriydigan dori moddalarning kam miqdordagi suvda eritiladi. Atsidum nitrikum 10% 1x dan surtma tayyorlash uchun; avval azot kislotasining 25% ligidan 10 qismi 15 qism tozalangan suv bilan aralashtiriladi. Keyin tayyor bo'lgan 1x dan 10 qism olib 9q. lanolin va 81q. vazelin qo'shiladi; yiringli yaralar, lishay, terini bichilishida ishlatiladi.

3. Suvda ham, asosda ham erimaydigan dori moddalarni eritilgan asosning bir qismida dori modda yaxshilab eziladi, maydalanadi, chunki qancha qattiq dorivor modda mayda/ kata-kichikligi

mikronda o'ldiriladi/ bo'lsa shuncha surtmaning terapevtik ta'siri, faolligi yaxshi bo'lishi ma'lum. Misol tariqasida Gomeopatik surtma dorisi keltirildi:

1. Atsidum salitsilikum 3%
2. Atsidum benzoikum 2%
3. Grafites 1%

4. Sulfur sublimatum 10% SHu surtmalarni tayyorlashda X1 DFdagi umumiy qoidalariga rioya qilamiz. Agar surtmada qattiq DMning konsentratsiyasi 5% dan kam bo'lsa/1,2,3 misollar/ unda Deryagin qoidasi bo'yicha DMning yarmicha asosga yaqin birona suyuqlik bilan maydalanadi. Asos sifatida vazelin olsak, demak vazelin moyini olish mumkin. Salitsil kislota uchun 1,5g Benzoy kislota uchun 1g, Grafitga 0,5g. DMning konsentratsiyasi 5% va undan yuqori bo'lsa, u hovonchada eritilgan asosning ozgina qismi bilan maydalanadi.

Gomeopatiya surtma dorilardagi dori moddalar konsentratsiyasi

Dori moddalarning konsentratsiyasi ko'rsatilmagan bo'lsa surtma kuchsiz dorilardan 10% qilib tayyorlanadi, kuchli ta'sir etuvchi DMIlardan 5%li qilib tayyorlanadi. Ammo lekin ko'pgina gomeopatik dori vositalari uchun gomeopatik farmakopeyada 26-28 betlarda dozasi keltirilgan.

Masalan:

Apis 3%

Akonit 5%

Kantaris 3%

Kroton 3%

Simitsifuga 10%

Xloreton 0,5%

Spongiya 5%

Brioniya 10%

Fitallak Ta 0 10%

Birlamchi (a) tinkturalardan emulsiya turidagi surtmani tayyorlanishi: isitilgan xovonchada tinkturalarni spirti uchiriladi, keyin lanolin vazelinli asos qo'shiladi.

Atsidum nitrikum 3x dan oldin lanolin qo'shib emulgator sifatida keyin vazelin qo'shiladi.

Atsidum benzonikum 2%

Sulfur sublimatum 10%

Salitsilikum 3%

Merkurius biyodatus 1%

Arsenikum 10%

Grafit 1%

Gepar sulfur 1%

YUqoridagi suspenziya tipidagi surtmalar Deryagin qoidasi bo'yicha tayyorlanadi.

Atsidum karbonikum 2%

Xloreton 0,5%. Eritma tipidagi surtmalar qoidaga binoan tayyorlanadi.

Oddiy mazlardan tashqari gomeopatiyada murakkab surtmalar xam uchraydi.

Plazmin surtmasi

tarkibi: kalendula -20,0

Fitolak - 60,0

Brioniya - 20,0

Atsidum borikum - 182,0

Suvli lanolin - 400,0

Vazelin -1400,0

Har xil tayyorlanadigan DM bitta surtmaga qo'shib yozilgan, maxsus dori surunkali revmatizmida ishlatiladi.

Koriza surtmasi

tarkibi: Atsidum karbonikum 7,5

Natrikum xloratum 15,0

Adrenalin /1:1000/-30,0

Oleum mentoli 15,0

Oleum evkalipti 15,0

Vazelin 1500,0

Boshning oldi tomoni peshana, chakka joylari qattiq og'riganda surtiladi.

Albumin surtmasi

tarkibi: gidrargirum bixlorati 1,5

kalium nitrikum 1,5

boraks 1,5

tuxum oqi 25,0

lanolin 1500

vazelin 150,0

To'g'ri ichakdagi yallig'lanishda ishlatiladi.

Linin surtmasi

tarkibi: atsidum borikum maydasi 100,0

talk 200,0

sinkum oksidatum 200,0

vazelin 1500,0

mentol 15,0

Suv chiqib turgan yiringli yaralarda surtiladi.

SHamollashda ishlatiladigan surtma

Mentol 10,0

Oleum evkalipt 10,0

Vazelin 1000,0

Gomeopatik farmakopeyasida keltirilgan surtmalardan tashqari boshqa dori vositalaridan ham surtma dori turlari tayyorlanadi: belladonna, yaralarni pishirib sitib chiqarish uchun. Rus o'simligidan revmatizm, Petroleum 4x dan ekzemalarga, Sulfur chipqonda, Grafrit terini qichib yallig'lanishida, Gepar sulfur yiring oqqanda va b.

Gomeopatiya linimentlari

Ularga yog'lar, opodeldok va sirtga ishlatiladigan spirtlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda linimentlar bu suyuq surtma dorilar, shuning uchun ishqalab surtiladi. Asosiga qarab turib: a. yog'li linimentlar

b. sovunli linimentlar kiradi. YOg'li linimentlarga: xar xil o'simlik moylari: shaftoli, o'rik, olxo'ri, oliva, kungaboqar va boshqalar ishlatiladi. Sovunli linimentlarda sovun spirtdagi eritmasi saponimentlar asosi bo'lib hisoblanadi. Bu xil linimentlar gomeopatiyada qo'llanib, opodeldok deb ataladi. Gomeopatiyada ma'lum bo'lgan yog'li linimentlarga misol qilib: 1% xloreton, 10% simitsifuga, 5% spongiya, 3% apis, 5% akonit, 10% brioniya, 3% kontarislarni keltirish mumkin. Oleum apis 10,0 texnologiyasi: 3 dan 5% gacha qilib tayyorlash, surtish uchun mumkin, chunki apis kuchli ta'sir etuvchi modda. Ikkita suyuqlik bo'lgani uchun apis spirtli tinkurasidan 3% / 60% / olib 100g gacha moy qo'shiladi

Gomeopatik opodeldoklarni tayyorlas

Saponimentalarni tayyorlashda 2q sovunli spirt olib 1q suv va 1g 90% spirt qo'shiladi. Opodeldok tayyorlashda tibbiyot natriyli sovun olinadi va ularga turli dorilar efir, kamfora qo'shiladi. Misol qilib Rus opodeldokni texnologiyasini ko'rib chiqamiz: Tayyorlash uchun 3q. rus tinkurasiga 97q. opodeldok asosi qo'shiladi. Oldin sovunli spirt tayyorlanadi: uning uchun sovun poroshogi 90% spirtda kolbaga solinib, suv xammomida eritiladi, keyin tez filtrlanadi. Issiq sovun eritmasiga dorivor modda qo'shiladi. Sovun spirtini tarkibi quyidagicha: FS 42-1199-78
bo'yicha: Kaliy ishqori 23g, Kungaboqar yoki paxta moyi 100g, Suv 75g va Spirt 90% 300g. Tayyorlanishi: 100-105⁰Sda qozonda moy qizdiriladi, keyin KOH va spirt solinadi. Bir xil qo'shilma

xosil bo'lgach oz-ozdan suv qo'shiladi va sovun xosil bo'ladi, issiq suvda yaxshi erishi kerak, ko'rinishi yaltiroq tiniq massadir.

Gomeopatik shamchalar texnologiyasi

Gomeopatiyada ishlatiladigan shamchalarning dorivor moddalarning tez ta'sir qilishiga, uning butun odam ichki vujudiga yoki to'g'ri ichak va uning atrofidagi yaqin joylarga joylashgan patologik jarohatga yordam berishdadir. Lekin shamchalarning samaradorligi ishlatiladigan asoslarga bog'liq. SHvabe farmakopeyasida kakao moyi olinsin deyilgan, lekin xozirgi zamonaviy asoslar bilan gomeopatiya boyiganligi tufayli jelatin glitserinli, polietilenoksidli, paxta moyini 5% T-2 saqlangan gidrogenizati va boshqalar ishlatilishi mumkin. Bunday asoslar farmatsevtika amaliyotida tadbir qilingan va ishlatilmoqda.

Asoslarning qisqa tasnifi. Jelatin-glitserinli asos DF X1 sonida berilgan, u 1q. jelatin, 5q. glitserin va 3q. tozalangan suvdan iborat. Ko'pincha vaginal shamchalar quyush usuli bilan tayyorlanadi. PEO asosi-etilen oksidining polimerizatsiya usulida olingan. Umumiy formulasi n/OSN 42 0-SN 42 0/p-ON, p 2-85 bo'lish mumkin. Suvda yaxshi eriydi, efrida erimaydi. Asosning tarkibi: PEO 1500 va PEO 2000, bu asosda papaverin, belladonna shamchalari tayyorlanadi. YAna PEO 4000/VFS 42-110-72/si ham bor, anestezin, belladonna, ixtiol bilan tayyorlanadi. Paxta moyini 5% T-2 saqlagan gidrogenizatida fitolaka va temirdan 0,5 dan olib shamchalar 30 dona tayyorlash mumkin: asosni suv xammomida 36-38⁰S xaroratida eritib, unga oldin temir spirtli eritmasidan 60tomchi, keyin fitolaka tinkurasidan 600 tomchi solib tayyorlanadi.

SHamchalarning umumiy texnologiyasi. SHamchalar tayyor spirtli tinktura, ekstrakt, essensiyalar DM va asos bilan aralashtirib tayyorlanadi. DM agar suyuq ekstrakti bo'lsa 2 tomchi, tinkturadan 20 tomchi - bitta shamchaga olinadi, lekin ularni oldin quyultirish lozim/spirtni o'chirish kerak/. Keyin kerak bo'lsa suvsiz lanolin qovushqoqligini oshirishi uchun qo'shiladi. Lanolinni 30gmassaga 1g gacha qo'shiladi. Maslo kakaodan qo'l yordamida dumalatib tayyorlanadi, boshqa asoslar bo'lsa quyush usulida tayyorlash kerak. Misol: Aloe suppozitoriysidan 10 dona tayyorlang. Bering: 1donadan kechasi qo'yish uchun. Aloening quyultirilgan sharbatidan olingan 60% spirtida tayyorlangan tinkturalari ishlatiladi. Undan 1-ta suppozitoriyga 20 tomchi, demak 10 tasiga 200 tomchi olinishi kerak, uni kakao moyi bilan suvsiz lanolin qo'shib tayyorlanadi. YUqorida keltirilgan misolni jelatin-glitserinli asosida quyush usulida ham tayyorlasa bo'ladi. Tayor shamchalar bir xil, shaklli, qattiq-yumshoqligi qo'llanishiga mos keladigan bo'lishi kerak, o'rtacha og'irligini 20dona shamchani 0,01g aniqlikda tortib topiladi og'irligini og'ishi- 5% dan oshmasligi kerak. Deformatsiyaga uchrash vaqti aniqlanadi, 1,5daq. dan oshmasligi kerak. Agar shamchalar gidrofil asosda tayyorlangan bo'lsa, 100ml li kolbaga 50ml 37⁰S xaroratli suvda eritib ko'riladi. Erib ketish vaqti 1 soat davomida bo'lishi kerak. DM miqdoriy nazorati ham o'tkaziladi.

Gomeopatik triturasionalar texnologiyasi

Gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlarining salmog'i suyuq va yumshoq dori turlariga nisbatan katta. Bunga asosiy sabab dozaga ajratilishi oson yoki oldindan dozaga ajratilgan bo'lishi bu dorilarni qabul qilishda katta muammolar tug'dirmaydi, shuningdek saqlash va tashish (trasportlash) kabi masalalar ham nisbatan qulay.

Siz dastlabki bosqichlarda dorixona va korxonada sharoitida tayyorlanadigan qattiq dori turlari texnologiyalari bilan yaqindan tanishgansiz va amaliy mashg'ulotlarda o'z qo'lingiz bilan ushbu dori turlarni tayyorlab, sifatiga baho ham bergansiz.

Gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan qattiq dori turlari siz tayyorlagan allopatiya dori turlaridan bir qancha farqlanadi:

- retseptda berilish tartibi bo'yicha;
- doza miqdori (potensiyasi) bo'yicha;
- gomeopatiya dorilarni dinamizatsiyalashga qaratilgan texnologiyalari bo'yicha;
- saqlanishi va qo'llanilishi bo'yicha.

Gomeopatiya ta'limoti bo'yicha o'tilgan ma'ruzalarda siz gomeopatiya amaliyotida qo'llaniladigan dori turlarga yoziladigan retseptlar tartibi bilan yaqindan tanishgansiz: gomeopatiya retseptlarida shifokor dorining nomini lotincha bosh kelishikda yozadi, undan keyin suyultirish

darajasi, miqdori va beriladigan dori shaklini ko'rsatadi. Retseptda avval kam suyultirilgan, so'ng ko'p suyultirilgan qattiq dorilar keltiriladi, keltirilgan dorilarni nomi 3-4 tadan oshmasligi va bir botanik guruhga mansub o'simliklardan dorilar tayyorlash mumkin emas.

Masalan:

1. Aurum metallicum 30 trit.
Kuniga 2 marta (nahorga va kechqurun) pichoq uchida
2. Calendula 3X gran.
5-7 donachadan nahorga til ostiga
3. Calcarea carbonica 3 - 0,2 g tabul.
Bir tabletkadan kuniga 2 mahal til ostiga
4. Hamomilla 1X gutt.
5-6 tomchidan kechasiga ichish uchun.

Gomeopatiya triturationsiyalari texnologiyasi. Gomeopatiya triturationsiyalari (Triturationes) - kuruk dori modda, essensiya, nastoyka, suvli va spirtli eritmalarini sut qandi (laktoza) yoki boshqa tibbiyotda ishlatishga ruhsat berilgan yordamchi moddalar bilan olingan kukun holdagi qattiq dori turi. Nega aynan triturationslarni tayyorlashda sut qandi ishlatilishini siz juda yaxshi bilasiz! Triturationslar V.SHvabe kullanmasining 7, 8, va 9 bandlariga asosan hamda SanPiN № 0152-04 qoidalariga rioya kilib tayyorlanadi.

Eslatma** Sut kandi (laktoza) – disaxarid ($C_{12}H_{24}O_{12}$) glyukoza va galaktozadan tashkil topgan, barcha sut emizuvchilarni suti tarkibida bor. Laktoza sut zardobidan olinadi, kristallik yoki amorf shaklida buladi, kimyoviy va farmakologik jihatdan nisbatan indifferent hisoblanadi, gigroskopik emasligi sababli gigroskopik hossaga ega kukunlarni nam tortish xossasini bir muncha kamaytiradi, hidsiz, shirin (kandga (1,0) nisbatan shirinlik ekvivalenti 0,16 ga teng), zaharli emas, zichligi katta emas $1,52 \text{ g/sm}^3$ (kup zaharli moddalar zichligiga (alkaloidlar) deyarli teng!), demak aralashmani qatlamga ajralishiga sababchi bo'lmaydi, bundan tashqari dori moddalarni bir me'yorda maydalanishiga yordam beradi.

X1 DF ko'rsatmasiga binoan zaharli yoki kuchli ta'sir etuvchi moddalardan miqdori 0,05 g dan kam berilganida 1:100 yoki 1:10 nisbatda triturationslar tayyorlash uchun tavsiya etilgan.

V. SHvabe qo'llanmasining 7-bandi bo'yicha quruq moddalardan triturationslar tayyorlash

Quruq mineral, o'simlik, hayvon yoki kimyoviy birikmalardan sut qandi yordamida triturationslar tayyorlanadi. Triturationslarni tayyorlash uchun faqat chinni havoncha ishlatilishi kerak, metall havonchalardan foydalanish mumkin emas. Agar hususiy maqolalarda boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa quruq dori moddalar (shu kabi metallar) va sut qandi oldindan o'ta maydalik darajasigacha (Pulvis longe subtilissimus: 65 mkm katta bo'lmasligi kerak!) **maydalangan bo'lishi lozim**. Triturationslarni tayyorlash uchun ishlatiladigan dori va yordamchi moddalarni boshlang'ich maydalik darajasi elak (teshik diametri №65 mkm) yoki sirtki solishtirma yuza o'lchamini atmosfera bosimida havo o'tkazishini o'rganish orqali aniqlanadi. Triturationslarni potensiyalashda dinamizatsiya katta ahamiyatga egaligi sababli, har bir texnologik bosqich vaqt bilan chegaranlangan: bunda dori moddani sut qandi bilan oddiy aralashmay, balki nihoyatda uzoq vaqt yaxshilab ishqalab maydalash va aralashirish lozim. V.SHvabe qo'llanmasining ko'rsatmasi bo'yicha har bir suyultirish 1 soat (60 daqiqa) davomida ishqalab maydalash va aralashirish kerak. Triturationslarni tayyorlashda sidirishga ham katta ahamiyat berish lozim, chunki yaxshi maydalanmagan zarrachalarni o'ta maydalangan zarrachalar bilan aralashib, bir me'yorda maydalanishini ta'minlash maksadida. Kuchli gigroskopik xossaga ega yoki suyuq holatda bo'lgan dori moddalardan triturationslarni tayyorlashda isitilgan ($40-50^{\circ}\text{S}$) havonchadan foydalanish tavsiya etiladi.

Quruq dori moddalardan triturationslar quyidagi tartib bo'yicha olinadi (1-slayd): a) o'nlik shkala bo'yicha – 1,0 og'irlik qism dori moddaga 9,0 og'irlik qism sut qandi olinadi (1X hosil bo'ladi);

b) yuzlik shkala bo'yicha – 0,1 og'irlik qism dori moddaga 9,9 og'irlik qism sut qandi olinadi (1°S hosil bo'ladi).

Texnologiyasi: tortib olingan sut qandi tahminan teng uch qismga bo'linadi: 1 qism chinni havonchaga solinadi va yaxshilab aralashiriladi, bunda havonchani teshiklari berkitiladi, so'ng quruq dori modda solinib, 6 daqiqa davomida qattiq ishqalab maydalanadi, so'ng 4 daqiqa kukun

sidirilib, aralashtiriladi. So‘ng bu jarayon yana bir marta takrorlanadi: 6 daqiqa ishqalab maydalanadi va yana 4 daqiqa sidirib, aralashtiriladi. (Birinchi bosqichda (sut qandining birinchi 1/3 qismiga) 10 daqiqadan ikki marta - 20 daqiqa sarflanadi).

Havonchaga sut qandini 2 qismi qo‘shiladi va yana 6 daqiqa ishqalab maydalanadi va 4 daqiqa sidirib aralashtiriladi, so‘ng ushbu jarayon yana bir marta takrorlanadi. (Ikkinchi bosqichda (sut qandining ikkinchi 1/3 qismiga) ham 10 daqiqadan ikki marta - 20 daqiqa sarflanadi, jami 40 daqiqa).

Nihoyat sut qandini ohirgi 3 qismi qo‘shiladi va yana yuqorida keltirilgan jarayon 2 marta qaytariladi. (Uchinchi bosqichda (sut qandining uchinchi 1/3 qismiga) ham 10 daqiqadan ikki marta 20 daqiqa sarflanadi, jami 60 daqiqa).

Natijada 1 soat ichida 10 qism 1X (1D) yoki 1 C (1⁰S) suyultirish darajasiga (potensiyaga) ega bo‘lgan triturat tayyorlanadi. Demak 2X tayyorlash uchun – 2 soat, 3X tayyorlash uchun 3 soat, va nihoyat 30⁰S tayyorlash uchun – 30 soat sarflanadi!

Bu jarayonni nazorat kilish murakkab, shuning uchun S.Ganeman ta’rifi buyicha “”Gomeopatiya dorilarini tayyorlashda birinchi nazoratchi – bu farmatsevtning vijdoni!” degan. Demak, dozasi bir hil bo‘lsa ham 4X (1:10000) va 2⁰S (1:10000), yuzlik shkala bo‘yicha tayyorlangan 2⁰S trituratni 4X triturtni o‘rniga berib yuborish mumknmi?

Masalan, ateroskleroz, gipertoniya, glaukoma, tungi suyak og‘rishi (ostiomielit, mastodontit), bachadon fibromasi, bachadon tushib qolishi kabi kasalliklarni davolashda qo‘llaniladigan gomeopatiya vositasi:

1. 1. Aurum metallicum 1⁰S 10,0 g

Kuniga 2 marta (nahorga va kechqurun) pichoq uchida

Ushbu trituratni V.SHvabe ko‘lanmasining 7-bandi bo‘yicha 2 hil usulda tayyorlash mumkin:

1 usul:

Pasport: Aurum metallikum 0,1 g

Sut qandi 9,9 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: V.SHvabe qo‘llanmasining 7-bandi bo‘yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi).

2 usul:

Pasport: Aurum metallikum 1X 1,0 g

Sut qandi 9,0 g

Umumiy massa 10,0 g

Texnologiyasi: V.SHvabe kullanmasining 7-bandi bo‘yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi).

Hosil bo‘lgan triturat 2X yoki 1⁰S deb yuritiladi va uning potensiyasi 1 usulda tayyorlangan trituratga nisbatan kuchliroq.

Trituratlarni sifati baholanadi va berib yuborish uchun jihozlanadi.

Aurum metallicum 1 C (2X)10,0 g trit.

Кунига 2 марта (нохорга ва кечкурун) пичок учиди

Сана: 10.10.05й Сер.101005 Тахлил 10.10.05 Имзо

V. SHvabe qo‘llanmasining 8-bandi bo‘yicha trituratlarni suyuq dori modda yoki eritmalardan tayyorlash

V. SHvabe qo‘llanmasining 8-bandi buyicha trituratlarni suyuq dori modda, suvli yoki spirtli eritmalardan 7-bandda keltirilgan nisbatda tayyorlaniladi. Biroq bunda 1X kamdan-kam hollarda tayyorlanadi, chunki sut qandi suyuqlikda erib ketishi yoki bo‘kishi mumkin va aralashmani uzoq vaqt quritish kerak bo‘ladi. SHuning uchun trituratlarni 2X yoki 1⁰S dan boshlab tayyorlash lozim.

V.SHvabe qo‘llanmasida keltirilishi bo‘yicha trituratlarni tayyorlashda 1,0 g suyuq dori modda va 99,0 g sut qandi olinishi mumkin. Natijada 1⁰S yoki 2X triturat hosil bo‘ladi, yoki iqtisod qilish maqsadida:

- suvli eritmalardan 2 tomchi (0,1 g)
- spirtli eritmalardan 3-4 tomchi (0,1 g) olib, sut qandidan esa 9,9 g olinadi.

Masalan:

1. Acidum sulfuricum 1S 10,0 g

Nahorga pichoq uchida til ostiga

Pasport: Atsidum sulfurikum 0,1 g (2 tomchi)

<u>Sut qandi</u>	9,9 g
Umumiy massa	10,0 g

Texnologiyasi: VR-20 qo‘l torozida 9,9 g sut qandi tortib olinadi va taxminan uch qismga bo‘linadi. Hovonchaga birinchi 1/3 qismi solinadi va yaxshilab ishqalab teshiklari berkitiladi. Kalibrangan pipetka yordamida 2 tomchi sulfat kislotasi (0,1 g, chunki 1,0 g = 20 tomchi) havonchaga tomiziladi va V.SHvabe qo‘llanmasining 7-bandida keltirilgan texnologik jarayon amalga oshiriladi: 1soat davomida 10,0 g 1⁰S yoki 2X triturat hosil bo‘ladi.

Tayyorlangan trituratni sifati baholanadi va jihozlanadi.

2. Acidum sulfuricum 1C (2X)10,0 g trit.

Наҳорга пичоқ учида тил остига

Сана: 10.10.05 й Сер.101005 Таҳлил 10.10.05 Имзо

Sulfat kislotasining triturati stomatit, surunkali gastrit, surunkali alkogolizm va turli jarohatlarda qo‘llashga tavsiya etiladi.

SHu tartibda chipor ilon zaharidan (Bushmeyster) - Laxezis gemorragik diatez, sepsis, tromboflebit, trofik yazva, endomiokardit, klimaks o‘zgarishlarini davolashda ishlatiladigan triturat tayyorlanadi:

1. Lachesis 3X 10,0 g

Uxlash oldidan pichoq uchida til ostiga

Pasport: Laxezis 2X	1,0 g
<u>Sut qandi</u>	9,0 g
Umumiy massa	10,0 g

Texnologiyasi: 2X trituratdan 1,0 g va 9,0 g sut qandidan olinadi va V.SHvabe qo‘llanmasining 7-bandi bo‘yicha (1 soat mobaynida tayyorlanadi). Hosil bo‘lgan trituratsiya 3X deb yuritiladi.

Trituratlarni sifati baholanadi va berib yuborish uchun jihozlanadi. Triturat tarkibidagi dori modda kichik suyultirish darajada bo‘lganligi sababli dori turini rasmiylashtirish, sifatini baholash, jihozlash, saqlash va bemorga berish tarkibida zaharli va kuchli ta’sir etuvchi dori moddalar saqlaydigan preparatlarni berish tartibi buyicha amalga oshiriladi.

Lachesis 3X 10,0 g trit.

Кечасига пичоқ учида тил остига

Сана: 10.10.05 й Сер.101005 Таҳлил 10.10.05 Имзо

V. SHvabe qo‘llanmasining 9-bandi bo‘yicha trituratlarni essensiya va tinkturalardan tayyorlash

V.SHvabe qo‘llanmasining 9-bandi bo‘yicha trituratlar quyidagi tartibda tayyorlanadi:

a) 1 yoki 2-band bo‘yicha tayyorlangan essensiyalardan

2 og‘irlik qism va sut qandidan 99 og‘irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo‘yicha tayyorlanadi, hosil bo‘lgan triturat 1⁰S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta’sir etuvchi modda 1:2 nisbatda, 2 og‘.qism + 99 og‘.qism = 101 og‘.qism).

b) 3-band bo‘yicha tayyorlangan essensiyadan

3 og‘irlik qism va sut qandidan 99 og‘irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo‘yicha tayyorlanadi, hosil bo‘lgan triturat 1S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta’sir etuvchi modda 1:3 nisbatda, 3 og‘.kism + 99 og‘.kism = 102 og‘.qism).

v) 4-band bo‘yicha tayyorlangan nastoykadan

1 og‘irlik qism va sut qandidan 99 og‘irlik qism olinadi va 7-bandda keltirilgan texnologiya bo‘yicha tayyorlanadi, hosil bo‘lgan triturat 1⁰S yoki 2X deb yuritiladi.

(Ta’sir etuvchi modda 1:10 nisbatda, 1 og‘.kism + 99 og‘.qism = 100 og‘.qism).

Gomeopatiya granulari texnologiyasi. Gomeopatiya granulari bu – ichish uchun mo‘ljallangan qattiq dozalarga bo‘lingan dori turi.

Gomeopatiya granulari turli gomeopatiya dori moddalari eritmalarini yoki ularning aralashmalarini tayyor qand granularga shimdirish (to'yintirish) usuli bilan olinadi. Demak, gomeopatiya granulari texnologiyasi dori moddani suvli yoki spirtli eritmalaridan qand granularini adsorbsiya qilishga asoslangan bo'ladi.

V.SHvabe qo'llanmaida keltirilishi bo'yicha qand granulari toza, oliy navli shakarqamish shakaridan tayyorlanadi. Ular tozalangan suvda hech qanday qoldiqsiz erib ketishi kerak. Granular obakilash (drajelash) usulida konditer fabrikalarida yoki farmatsevtik zavodlarda olinadi. Granularni gomeopatik suyultirilgan eritmalar (dilyusiyalar) bilan bir hil to'yintirish uchun ular ma'lum kattalikda bo'lishi kerak. SHuning uchun qand granulari kata-kichikligi bo'yicha saralanadilar. Qand granulari massasi va diametrini o'lchami bo'yicha 1-jadvalda keltirilgan nomerlarga tasniflanadilar.

To'yintirish uchun mo'ljallangan birlamchi granularni tasnifi

Granular №	1,0 grammdagi granular soni	Granularni hisoblash uchun olinadigan tortma massasi, g	Granularni o'rtacha diametri, mm
1	470-530	0,1	1,4
2	220-280	0,2	1,7
3	110-130	0,4	2,2
4	70-90	0,6	2,5
5	40-50	1	3,0
6	22-28	2	3,7
7	10	5	5,0
8	5	10	6,3
9	3	15	7,4
10	2	25	8,5

Granularni nomerini aniqlash uchun granular ma'lum teshik diametriga ega elakdan o'tkaziladi yoki har bir nomerga tegishli granular o'rtacha og'irligi jadvalda keltirilgan miqdor bo'yicha (masalan, 1 grammdan) tortib olinadi va granularni soni sanab chiqiladi. Granular raqam bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Ko'pincha 4-va 5-raqamdagi granular ishlatiladi.

Tayyorlangan granularni gomeopatiya eritmalarini bilan to'yintirish

Granularga shimdiriladigan gomeopatik dorivor moddalar 3S suyultirishdan past bo'lmasligi lozim va uning 70% spirtida 1:1 nisbatdagi eritmasi tayyorlanishi kerak. Moddani bir tekisda tarqalishini ta'minlash uchun 1 kg qand granulari oldindan 10,0 g 70% etil spirti bilan namlanadi, so'ng 1 kg granularga 10,0 g dori moddani 3S dan past bo'lmagan suyultirish darajasiga ega eritmasi purkaladi. Granularni shimdirish ikki usulda olib borilishi mumkin:

1) Qo'lda (massasi 1 kg gacha bo'lgan granular shisha bankalarda) 10 daqiqa davomida aralashtirish bilan to'yintiriladi.

2) Asboblar yordamida (xarakatga keluvchi ichshi a'zolari bo'lmagan mexanik aralashtirgichda) 3-4 daqiqa davomida. Aralashtirgichni ishchi hajmi to'yintiriladigan granularlardan 1,5-2 marta ko'p bo'lishi kerak.

Granularni to'yintirish quyidagicha olib boriladi: to'yintiriladigan granularga nisbatan 1,5 yoki 2 barobar katta hajmdagi shisha idish olinadi va unga 100,0 granular solinadi (masalan, 5-raqamli granular), ustidan 1,0 g 70% spirti va 1,0 g dorivor moddani ma'lum suyultirishdagi (3S dan past bo'lmagan) 70% etil spirtidagi eritmasining (1:1) aralashmasidan purkaladi (granula tekis to'yinishi uchun).

Idish qopqog'i pergament qog'oz bilan yopilib, 10 daqiqa davomida qo'lda yoki 3-4 daqiqa davomida mashina yordamida qattiq silkitiladi. So'ng pergament qog'oz solingan teshikchali yog'och taxta ustiga granularni yoyib, ochiq havoda quriguncha qoldiriladi doimiy massagacha). Granular to'liq qurigach, sifati baholanadi va jihozlanadi.

Granulalarni uchuvchan, hidli gomeopatiya dorilaridan tayyorlangan eritmalar va uchinchi yuzlikdan kichik suyultirishdagi barcha kislotalar bilan to'yintirish mumkin emas.

So'ngi ma'lumotlarga ko'ra dastlabki granulalarni bir necha bosqichda gomeopatiya dori vositalarini 64% qand qiyomidagi eritmalarida (spirtsiz!) obakilash va quritish bo'yicha qavatlash usulida tayyorlash ham mumkin. Bunda dastlabki granulalarni o'lchamida katta o'zgarishlar bo'lmaydi.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Itga ichish uchun quyidagi gomeopatiya vositalarini tayyorlab bering:
 - A) Akonit 3 tinktulasi 10,0
 - B) Breoniya 4X tinktulasi 10,0
 - V) Kaliy yod 6 S eritmasi 10,0
 - G) Sulfat kislota 12 S 10,0
 - D) Tirnovgul nastoyka granulalari 3 S 4,0
 - E) Sulfur triturasiyasi 20 S 10,0
2. Sigirlarga sirtga ishlatish uchun buyuriladigan tinkturalar texnologiyasini keltiring: Apis spirti 3%; Arnika spirti 10%; Spongiya spirti 10%; Akonit spirti 5%; Kantaris spirti 5% ;
 - Lori spirti
 - Rus-10,0
 - Brioniya- 20,0
 - Belladonna- 30,0
 - Kapsikum -20,0
 - Ledum -30,0
 - Kalendula surtmasi 10,0

2. Veterinariya atamalari bilan tanishish va ularni izohlash.

Tezkor so'rov savollari

1. Gomeopatiya suvli va suvli –spirtli eritmalar texnologiyasi
2. Essensiyalar ta'rifi, texnologiyasi (2,3 bandlar bo'yicha)
3. Tinkturalar, tasnifi, qisqacha ta'rifi, ishlatilishi
4. Gomeopatik tinkturalarning o'ziga xos texnologiyasi
5. Gomeopatik surtma dorilartexnologiyasi
6. Gomeopatik liniment va opodeldoklar tayyorlanishi
7. Gomeopatik shamchalar texnologiyasi

Kalit so'zlar: veterinariya, sterillanadigan dori turlari, in'eksion eritmalar, infuzion eritmalar, ko'z tomchilari.

ADABIYOTLAR: 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18

Mavzu: "Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va maqsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi"

Amaliy mashg'ulot. 5 soat

Amaliy mashg'ulot maqsadi: veterinariya preparatlarini ishlab chiqarishning zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari to'g'risida tushuncha hosil qilish, veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va maqsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi bo'yicha ko'nimaklarini shakllantirish.

Mavzuni yozishdan maqsad: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va maqsuldorlikni oshiruvchi preparatlarini tayyorlashda

ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash va texnologiyasini bilish va sifatini baholashni o'rganish.

Mavzuning ahamiyati: veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlarini tayyorlashda ishlatiladigan asosiy va yordamchi moddalar bilan tanishish.

Ta'lim usullari: Amaliy mashg'ulot, tezkor so'rov, charhpalak, munozara.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish tarixi, zamonaviy xolati va rivojlanish istiqbollari.
2. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy dorilar texnologiyasi: immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.

3. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan zamonaviy vaktsinalar, zardoblar va globulinlar nomenklaturasini.

4. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasini

* - Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar "Tezkor so'rov" usulida muhokama etiladi.

Uslubiy ta'minot: Uslubiy qo'llanma, tarqatma material, mavzuga tegishli adabiyotlar, internet materiallari.

*-Tarqatma materiallarda keltirilgan retseptlar "Charhpalak" usulida muhokama etiladi.

Mashg'ulotni jihozlanishi: Ma'lumotnomalar, tarkatma materiallar, dorivor preparatlar kolleksiyasi.

Uslubiy ko'rsatmalar

Oxirgi yillarda xar xil qattiq tashuvchi matritsalariga kimyoviy yoki fizikaviy usul bilan bog'langan /xarakatsizlantirilgan/, ya'ni immobillangan preparatlar tadbiiq qilinmoqda. Immobillangan preparatlarni barpo etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- dori moddalarni ta'sirini uzaytirish;
- dori moddalarni ta'sirini yo'naltirish;
- turg'unligini oshirish;
- salbiy ta'sirini kamaytirish.

Undan tashqari immobillangan preparatlar, polimer matritsalarining hisobiga, xar xil toksik moddalarni adsorbsiya qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Immobillangan preparatlarni (IP) yaratishda asosan oqsil tabiatli moddalar qo'llaniladi. Xozirgi vaqtda ferment, gormon, mukopolisaxarid, albuminlar, gamma-globulin, nuklein kislotasi, interferonning immobillangan preparatlari keng qo'llanilmoqda. SHulardan asosiy qismi - bu immobillangan fermentlar. SHuning uchun ularning misolida immobillash prinsip-larini, asosiy yo'llarini, afzallik tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Fermentlarni keng qo'llanilishi bir necha muammolarga bog'liq.

Bulardan:

1. fiziologik muhitlarda fermentlarni tez inaktivatsiyaga uchrab ketishi (xar xil endogen proteazalar ta'siri oqibatida fermentlar tez parchalanib o'z davolovchi ta'sirini yo'qotadi);

2. tanadan tez chiqib ketishi. Bu esa fermentlarni ko'p miqdorda sarfla-nishiga olib keladi;

3. tanada, begona oqsil sifatida, fermentlarning antigen va spetsifik bo'lmagan toksik xususiyatlari nomoyon bo'lishi mumkin.

YUqorida etilgan muammolarni echimi- fermentlarni immobillangan holatga keltirish.

Immobillangan fermentlarni ishlatish ularni davolovchi kursiga sarflanadigan miqdorini kamaytirishga, ta'sir etish vaqtini uzaytirishga va salbiy reaksiyalar darajasini pasaytirish imkoniyatini beradi.

Mahalliy kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan immobillangan preparatlar.

Ayrim mahalliy kasalliklarni davolash uchun IFP zararlangan to'qima yoki a'zolarini yoniga o'rnatiladi va uzoq vaqt davomida fermentlar bilan davolashga mo'ljallangan bo'ladi. Ta'siri yo'naltirilgan IF yaratishda xam polimerli yordamchi moddalar qo'llaniladi (PAA, ES, PFX, sefadeks, triatsetat sellyuloza, nitrotsellyuloza, neylon, ftoroplast, PVS, PVP.). Asosan shu turdagi IF turli shakllarda yaratiladi: granula, tabletkalar, plyonka, tolasimon. Ular tananing kerakli joyiga

oʻrnatiladi yoki implantatsiya kilinadi. Polimer tarkibidagi ferment asta sekin uzoq vaqt davomida kerakli tezlikda ajralib oʻzini taʼsirini koʻrsatadi.

Xozirgi vaqtda organizmda soʻrilib ketadigan ferment saqlovchi polimer preparatlarni kateter yordamida mushaklarga kiritib shu erda fermentlarning yuqori mahalliy konsentratsiyasini hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Dori moddaning ajralib chiqish tezligi uning molekulyar massasiga, polimerning konsentratsiyasiga bogʻliq boʻladi. Yoʻnaltirilgan immobillangan fermentlarning afzallik tomoni- ular tashqi fiziologik muhitdan himoya qilingan boʻladi va oʻrnatilgan joydan belgilangan miqdorda ajralib oʻzini taʼsirini koʻrsatadi. SHuni hisobiga davolovchi dozani kamaytirish imkoniyati tugʻiladi. Tripsin, lizotsim, katalazalarning immobillangan turlarini granula yoki tabletka shaklida olishda ularning xar xil polimerlar bilan aralashmalari qoʻllaniladi. Polimer tashuvchi sifatida xar-xil polimerlar ishlatilish mumkin: sefadeks, triatsetat selluloza, nitrotsellyuloza, etilsellyuloza, PVX, selluloza, PAA, neylon. SHu polimerlarni ustiga ferment kovalent bogʻlam orqali bogʻlangan boʻlib, eritilganda eritmaga polimerning bitta zarrachasi bilan birgalikda oʻtadi. Bu holatda uning turgʻunligi oshadi va salbiy taʼsirlari ancha kam boʻladi. Ftoroplast (suvda erimaydigan) yoki PVP (suvda eriydigan) asosida immobillangan proteolitik fermentlar yaratilgan. Ular xar xil yiringlagan yaralarni davolash uchun tavsiya etiladi va plyonka (pardalar) shaklida olinadi. Fermentlar diffuziya yoki pardani erish oqibatida ajralib oʻzini davolovchi faoliyatini namoyon etadi. SHu turdagi immobillangan fermentlarni samaradorligi yuqori boʻladi; 3 - 4 marta yaralarning tozalanishi tezlashadi va davolash kursiga sarflanadigan ferment miqdorini 20 martagacha kamaytirish imkoniyati tugʻiladi (taʼsiri uzaytirilganligi va yoʻnaltirilganligi oqibatida). Ularning yana bir afzallik tomoni -yaraga qoplangan parda uzoq vaqt davomida almashtirilmaslik mumkin. Bu esa rivojlanayotgan, yangidan tiklangan toʻqimalarni shikastlanishga yoʻl qoʻymaydi. Agar yaralar oddiy doka, bint bilan qoplansa unda ularni almashtirish jarayonida tiklangan toʻqimalarga zarar keltiriladi va yaralarni tuzalishi sekinlashadi.

Amaliy bajarish uchun topshiriqlar

1. Ilovada keltirilgan Internet materiallarini izohlang va daftaringizga yozing:

2. Kimyo-farmatsiya sanoati tomonidan ishlab chiqariladigan veterinariya tayyor dori turlari va dorixonada tayyorlanadigan dorilar X va XI-DF, hamda tegishli MTH tomonidan meʼyorlanadi.

Zamonaviy veterinariya dori vositalarni jixozsiz va dori vosita toʻgʻrisidagi maʼlumotsiz tasavur qilish qiyin.

Jihoz – bu maxsulotni (dori vositani) tashqi muhit taʼsiridan himoya qilishga, shuningdek buzilishi, yoʻqolishidan saqlashga moʻljallangan va muomala qilishni osonlashtiradigan vosita yoki vositalar majmuasidir. Zamonaviy jihaz - idish va u qadoqlangan dori vosita, hamda yopgʻich va yordamchi elementlardan tashkil topgan boʻdib, istʼemolchi talabiga javob berishi va qadoqlangan dori vositani texnologik xossalarni taʼminlashi kerak. Boʻsh flaon – bu tara yoi idish, flakon ichiga dori vosita joylansa va yopgʻich bilan berkitilsa, xamda pipetka, qoshiqcha, yorliq (etiketka) va boshqa yordamchi elementlar bilan birgalida jihaz (upakova) deb ataladi.

Dori vositalarni yagona tartibda qadoqlanadigan idish, jihaz, yorliq, tashuvchi transport va saqlash sharoiti GOST 17768-80 boʻyicha amalga oshiriladi.

Dori vositalar qadoqlanadigan idish birlamchi jihaz turiga kiradi va bevosita dori vosita bilan muloqatda boʻladi. Ikkilamchi jixoz bitta yoki bir nechta birlamchi jihazlar majmuasidn tashkil topgan boʻladi. SHuningdek soʻngi yillarda blokli jihazlar – ikkilamchi jixozlarning majmuasi ham ishlab chiqarilmoqda. Blokli jihazlar termoplyonaga, qogʻoz yoki karton karbokaga joylanadilar.

Birlamchi jixozlar dori turini uzoq vaqt ximoyalash uchun moʻljallangan boʻladi, shuning uchun bu idishlarga alohida talablar qoʻyiladi:

- gaz va suv bugʻlarini oʻtkazmasligi kerak;
- dori vositaga nisbatan kimyoviy indiferent boʻlishi kerak;
- mustaxkam,
- xarorat taʼsiriga chidamchli,
- yorugʻlikdan ximoyalashi kerak,
- mikroorganizmlar taʼsiridan ximoyalashi kerak,
- maxsulotni uzoq muddat sifatini saqlanishini taʼminlashi kerak.

- ishlatish uchun qulay, bejirim va chiroyli, dori vositani ishlatish bo'yicha ma'lumot saqlashi kerak, avval ochilmaganligini, sterilligi va ishlatilmaganligini tasdiqlovchi nazorat belgi yoki moslama bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Bolalar uchun beriladigan dori vositalar jixozlanadigan idishlar solinadigan dori vositaga qarab turli bo'lishi mumkin:

- shishadan yasalgan flakon va trubalar.
- metall trubkalar.
- kontur-uyachali (blister) jixoz.
- kapsulalar.
- alyuminiy zar kog'ozi va laminirlangan kog'ozdan yasalgan paketlar.
- alyuminiy va polimerlardan tayyorlangan tubalar va x.k.

Kadolanadigan idishlar shisha, karton, polimer parda, sellofan, laminirlangan kogos, alyuminiy zar kog'ozi, PVX tayyorlangan idishlar, sellyuloza atsetat va boshqalardan tayyorlanadi.

Jihozni yorliklashga kuyiladigan talablar:

1. Dori vosita ishlab chiqilgan mamlakat.
2. Ishlab chiqargan korxon nomi, uning tovar belgisi, yuridi manzili (telefon, faks).
3. Dori vosita texnologiyasini ishlab chiqqan muassasa agar ishlab chiqqargan korxon bilan farqlansa.
4. Dori vositani lotincha, uzbecha (O'zbeiston uchun) va ruscha nomlari. Dori vositaning lotincha nomi maxalliy va ruscha nomlarga nisbatan maydaroq shrift bilan yozilishi kerak.
Veterinariyada ishlatiladigan dori turlari maxsus dorixonalarda, ba'zan meditsina dorixonalarida tayyorlanadi.

Bu dori turlarining retseptlari veterinariya vrachlari va feldsherlari tomonidan yozilib, ular ham (retseptlariga) tibbiyot retseptlariga qo'yiladigan talablarga javob berishi kerak. Veterinariyada ishlatiladigan dori turlari, ularning tarkibidagi dorivor va yordamchi moddalar va tayyorlanishi odatdagi dori turlari texnologiyasidan xech qanday farq qilmaydi. Faqat ba'zi dori turlarining xajmi, miqdori kup bo'ladi (masalan, bolyuslar - 0.5 - 50.0 g, shamchalar 200.0 g gacha). Qo'shimcha moddalar sifatida javdar uni va ko'pincha dorilar ta'mi va xidini yaxshilovchi moddalar qo'shiladi.

Veterinariyada qo'llaniladigan dorilar ko'proq dozada berilishi va ayrim o'ziga xos dori turlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Masalan, bo'tqalar, bolyuslar degan dori turlari ishlatiladi. Veterinariyada ishlatiladigan dori turlari quyidagicha tasniflanadi:

1. qattiq dori turlari
2. yumshoq dori turlari
3. suyuq dori turlari

Qattiq dori turlariga kukunlar, yig'malar, tabletkalar, xap dorilar, bolyuslar kiradi.

Yumshoq dori turlariga bo'tqalar, surtmalar linimentlar kiradi.

Suyuq dori turlariga eritmalar, elimshaklar, emulsiyalar va suspenziyalar kiradi.

X DFda zaharli, kuchli ta'sir etuvchi va ayrim keng qo'llaniladigan dorilarning ot, sigir, qo'y, it, tovuqlar uchun bir martalik dozalari keltirilgan. Veterinariyada dorilarni ishlatishda o'ziga xos usuldan foydalaniladi, ya'ni tayyor dorilar hayvonlar yaxshi ko'radigan ozuqalarga qo'shib beriladi. Masalan, ot va qoramollar osh tuzini, qo'y va echkilar achiq moddalarni, it va cho'chqalar shirinlikni, mushuklar valerianani yaxshi ko'radilar. Odatda cho'chqalar uchun bo'tqalar eng yaxshi dori turi hisoblanadi. Qush va uy hayvonlari (it, mushuk) uchun xap dorilar, otlar uchun bolyuslar qo'llaniladi.

Veterinariyada ishlatiladigan dori moddalarning dozalari hayvonlar turi, og'irligi, jinsi, yoshi, jismoniy va morfologik xolati, dorini yuborish usuli va boshqa sharoitlarga bog'liq.

FOYDALI MASLAHATLAR

Как составить библиографический список литературы?

Библиографический список — это обязательный элемент библиографического аппарата, который содержит библиографические описания использованных источников и помещается после заключения. Такой список составляет одну из существенных частей письменной работы, отражающей самостоятельную творческую работу ее автора, и потому позволяющий судить о степени фундаментальности проведенного исследования.

Библиографическое описание документов, отобранных для включения в библиографический список литературы, следует выполнять в соответствии с требованиями ГОСТ 7.1–2003 «Библиографическая запись. Библиографическое описание: Общие требования и правила составления».

В библиографический список не включаются те источники, на которые нет ссылок в основном тексте и которые фактически, не были использованы автором. Данный список рекомендуется озаглавить «Список использованной литературы».

Используются следующие способы построения библиографических списков:

- алфавитный;
- хронологический;
- систематический;
- последовательный (в порядке первого упоминания публикации в тексте и) др.

Алфавитный, т.е. расположение библиографических описаний в строгом алфавитном порядке авторов и заглавий публикаций (если фамилия автора не указана, либо авторов четыре и более). Работы одного автора располагают по алфавиту названий работ, работы авторов-однофамильцев — по алфавиту инициалов. Подобный способ группировки оправдан, когда количество источников в составе списка не превышает нескольких десятков. По этой причине им часто пользуются авторы небольших письменных работ. Не следует в одном списке смешивать разные алфавиты. Иностранные источники обычно размещают по алфавиту после перечня всех источников на языке письменной работы

В **хронологическом** порядке материал располагается по годам публикаций, а в каждом году — по алфавиту авторов или названий книг. Хронологический порядок позволяет показать историю изучения какого-либо вопроса. Обратнoхронологическое расположение рекомендуется для работ, в которых основное внимание уделено современному состоянию вопроса.

При **систематическом** расположении литературы библиографические описания располагаются по отраслям знаний, отдельным вопросам, темам в логическом соподчинении отдельных рубрик. Систематические разделы лучше устанавливать в соответствии с главами рукописи или важных проблем темы. Литературу общего характера, относящуюся к теме в целом, целесообразно выделять в особый раздел.

Расположение литературы **в порядке первого упоминания** в тексте используется довольно часто. Однако такое расположение делает список трудно используемым, т. к. в нем сложно просмотреть охват темы, по нему трудно проверить, на какие работы данного автора есть ссылки в материале. Список, составленный таким образом, будет неполным, так как включает только литературу, упоминаемую и цитируемую в тексте, и не отражает других использованных работ.

Во всех библиографических списках использованной литературы применяется сквозная порядковая нумерация.

При составлении списка использованной литературы необходимо выделить из общего массива записей следующие классы документов:

- документы, формирующие методологическую базу исследования;
- официальные документы (государственные, документы общественных организаций, массовых движений и политических партий);
- документальные источники, составляющие базу исследования. Статистические сборники, ежегодники и прочие материалы статистических органов. Материалы социологических исследований в хронологическом порядке;
- перечень отечественной и зарубежной литературы по теме.

Foydalanilgan adabiyotlarni yozilish namunalari

1. Kitob va turkum nashrlari

1.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:

a) Bir muallifning: Marchug G.I. Hisoblash matematikasining usullari. - Novosibirsk: Nauka, 1983. - 196 b.

b) butun manbaga havola: Godunov S.K., Ryabenskiy V.S. Raznostnye skhemy (vvedenie v teoriyu). Ucheb. posobie dlya VUZov.- M.: Nauka, 1992. -399 s.

v) ikki muallifning: Godunov S.K., Ryabenskiy V.S. Vvedenie v teoriyu raznostnykh schem.- M.: Fizmatgiz, 1982. -168 s.

g) uch muallifning: Koshlyakov N.S., Gliner E.B., Smirnov M.M. Matematik fizikaning differensial tenglamalari.-M.: Fizmatgiz, 1962. -67 b.

d) to'rt muallifning: Estestvennye sostavlyayuyushie meteorologicheskix poley/Мещерская А.В., Руховets Л.В., Yudin M.I., Yakovleva N.I. - L.: Gidrometeoizdat, 1970. -199 s.

e) mualliflar jamoasi uchun: Planirovanie, organizatsiya i upravlenie transportnym stroitelstvom – A.M.Koroteev, T.A.Belyaev va b.; A.M.Koroteev taxriri ostida. - M.: Transport, 1989. - 286 b.

1.2. Ko'p tomlik kitoblar:

a) butun manbaga havola: Fletcher K. Vychislitelnye metody v dinamike jidkostey. V 2-x t. – M.: Mir, 1991. - 504 s.

b) alohida tomning tavsifi: Sedov L.I. Mexanika sploshnoy sredy. V 2-x t. – M.: Nauka, 1983. T.1.- S. 114-125.

2. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

2.1 Kuznetsov YU.I. Postroenie informativnogo bazisa v zadachax obshchey sirkulyasii atmosfery: Dis. ... kand. fiz.-mat. nauk. – Novosibirsk: VS SO RAN, 1997. – 134 s.

2.2. Frolov V.V. Teoreticheskie problemy pravovogo regulirovaniya spetsialnykh ekonomicheskix zon: Avtoref.dis. ... kand. yurid.nauk. – M.: MGU, 1997.- 22 s.

3. Jurnalnagi maqolalarga havolalar

3.1. Baxvalov N.S. K optimizatsii metodov resheniya kraevykh zadach pri nalichii pogrannichnogo sloya//J. vychisl. matem. i matem. fiz.- Moskva.1969.- № 4 (9). – S. 841-859.

4. Ilmiy ishlar to'plamlariga havolalar

4.1. butun manbaga havola: EXM bilan intellektual muloqot: ToshDU Ilmiy –ishlar to'p. – Toshkent, 1986. – 270 b.

5. Simpozium va konferensiya ishlariga havolalar

5.1. Petrov S.M. Vliyanie konechnoy skorosti rasprostraneniya poperechnoy volny na dinamicheskoe povedenie vysokogo sooruzeniya//IV Rossiyskaya konf. po seysmostoykomu stroitelstvu: Tez. dokl. – M., 2001.-S. 55.

5.2. Ivanov P.K. Algoritm issledovaniya kolebaniy osesimmetrichnykh sooruzeniy s dinamicheskimi gasitelyami// Perspektivnye informatsionnye texnologii: Tez. dokl. resp. nauch. konf. 21-22 maya 2002. – Tashkent, 2002. –S.132 –133.

6. Deponenlashtirilgan ilmiy ishlarga havolalar

6.1 Soatov U.A. Neobxodimoe i dostatochnoe uslovie sushchestvovaniya resheniya chastichno integralnogo uravneniya s vyrojdennymi yadrami. – T.: 1997, 29 s. – Dep. V GFNTI GKNT Ruz 01.10.97, № 2677-97.

ME'YORIY XUJJATLAR



**ЎЗБЕКИСТОН RESPУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ ЎЗБЕКИСТОН
RESPУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИНИНГ**

ҚАРОРИ

«18» декабр 2013 г.

№ 28

Тошкент ш.

**“Тарқалиши оқибатида карантин
ёки чеклашлар белгиланадиган
ҳайвонларнинг юқумли касалликлари
рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида ”**

Ўзбекистон Республикасининг «Ветеринария тўғрисида»ги Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 335-модда), Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 15 июлдаги ПҚ-2003-сонли «Қонунларнинг ҳаволаки нормаларини амалга оширишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ва бошқа ҳужжатларни ишлаб чиқиш режаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорига (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 29-сон, 373-модда) мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ва Соғлиқни сақлаш вазирлиги:

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Тарқалиши оқибатида карантин ёки чеклашлар белгиланадиган ҳайвонларнинг юқумли касалликлари рўйхати иловага мувофиқ тасдиқлансин.
2. Мазкур қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Соғлиқни сақлаш вазири
Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирининг биринчи ўринбосари**

**А. Алимов
Ш. Тешаев**

Ўзбекистон Республикаси
Қишлоқ ва сув хўжалиги
вазирлиги ҳамда Соғлиқни
сақлаш вазирлигининг 2013
йил 18декабрдаги 9/6, 28-
сонли қарорига ИЛОВА

Тарқалиши оқибатида карантин ёки чеклашлар белгиланадиган Ҳайвонларнинг юқумли касалликлари
РЎЙХАТИ

т/р	Номи
I. Тарқалиши оқибатида карантин ўрнатиладиган Ҳайвонларнинг юқумли касалликлар рўйхати	
а) турли хил Ҳайвонлар учун умумий бўлган касалликлар	
1	Оқсил
2	Куйдирги
3	Ауески
4	Лептоспироз
5	Сил
6	Бруцеллез
б) қорамолларнинг касалликлари	
7	Қорамоллар ўлати
8	Қорамолларнинг пўкаксимон энцефалопатияси
9	Қорамолларнинг контагиоз перипневмонияси (зотилжам)
10	Қорамолларнинг парагрипп-3 касаллиги
11	Қорасон
в) қўй ва эчкиларнинг касалликлари	
12	Қўчқорларнинг эпидидимити
13	Эчкиларнинг юқумли плевропневмонияси
14	Қўй ва эчкилар чечаги
15	Қўй ва эчкиларнинг пустилез стоматити
г) туя, от ва эшакларнинг касалликлари	
16	Отларнинг юқумли энцефаломиелити
17	Отларнинг контагиоз плевропневмонияси
18	Отлар ва эшаклар ўлати
19	Сап
20	Туялар ўлати
21	Туялар чечаги
д) чўчқаларнинг касалликлари	
22	Чўчқалар классик (намунавий, ёрқин) ўлати
23	Трансмиссив гостроэнтерит
24	Чўчқалар Африка ўлати
е) паррандаларнинг касалликлари	
25	Ньюкасл касаллиги
26	Грипп
ж) қуёнларнинг касалликлари	
27	Миксоматоз
28	Қуёнларнинг геморрагик септицемияси
з) асариларнинг касалликлари	
29	Акарапидоз

30	Американча чириш
31	Европача чириш
32	Нозематоз
33	Варратоз
34	Вирусли паралич
35	Браулез
36	Халтасимон расплод
37	Сальмонеллез (паратиф), гафниоз, колибактериоз
и) гўштхўр ва мўйнали ҳайвонларнинг касалликлари	
38	Гўштхўр ҳайвонларнинг ўлати
39	Норкаларнинг псевдомонози
40	Норкаларнинг вирусли энтерити
к) Ўзбекистон Республикаси ҳудудида рўйхатга олинмаган барча турдаги ҳайвонларнинг юқумли касалликлари	
II. Тарқалиши оқибатида чеклов белгиланадиган ҳайвонларнинг юқумли касалликлар рўйхати	
а) турли хил ҳайвонлар учун умумий бўлган касалликлар	
1	Қутуриш
2	КУ-иситма
3	Листериоз
4	Некробактериоз
5	Везикуляр стоматит
6	Пастереллэз
7	Қўтир
б) қорамолларнинг касалликлари	
8	Юқумли ринотрахеит (пустулали вульвовагинит)
9	Эфемер иситмаси
10	Лейкоз
11	Хавfli катарал иситмаси
в) қўй ва эчкиларнинг касалликлари	
12	Юқумли агалактия
13	Хламидиоз
14	Вибриоз
15	Энтеротоксемия ва брадзот
16	Пустулэз стоматити
17	Вирусли (энзоотик) аборт
18	Туёқ чириши
г) от ва эшакларнинг касалликлари	
19	Юқумли анемия
20	Грипп
21	Ринопневмония (вирусли ҳомила ташлаш)
д) чўчқаларнинг касалликлари	
22	Атрофик ринит
23	Сарамас (рожа)

24	Чечак
е) паррандаларнинг касалликлари	
25	Юқумли бурсит (Гамборо касаллиги)
26	Марек касаллиги
27	Микоплазмоз
28	Пуллароз-тиф
29	Юқумли бронхит
30	Юқумли ларинготрахеит
31	Ўрдак жўжаларининг вирусли гепатити
32	Пастереллёз
33	Аспаргиллёз
34	Орнитоз
35	Ғоз жўжаларининг вирусли энтерити)
36	Паррандаларнинг стрептококкоз септецимияси
37	Колибактериоз
ж) гўштхўр ва мўйнали ҳайвонларнинг касалликлари	
38	Вирусли гепатит
39	Норкаларнинг Алеут касаллиги

Мазкур Рўйхат Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Давлат ветеринария бош бошқармаси билан келишилган.

**Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Давлат ветеринария бош бошқармаси
бошлиғи Н. ЙЎЛДОШЕВ**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

VETERINARIYADA GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSO RLARDAN FOYDALANISH TARTIBINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2003 y., 17-18-son, 147-modda)

«Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Veterinariyada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Agrosanoat kompleksi kotibiyatiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O‘. SULTONOV

Toshkent sh.,

2003 yil 12 sentyabr,

397-son

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil

12 sentyabrdagi 397-son qaroriga

ILOVA

Veterinariyada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Veterinariyada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish tartibi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi, «Veterinariya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tegishli faoliyat turiga litsenziya mavjud bo‘lgan va mazkur Tartibda nazarda tutilgan shartlarga rioya qilingan taqdirda:

davlat veterinariya xizmati respublika, viloyat, tuman (tumanlararo), shahar bo‘linmalari, «O‘zzoovetta’minotxizmat» respublika ishlab chiqarish birlashmasi va uning viloyat bo‘limlari, mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, ularning muomalada bo‘lishini amalga oshiruvchi boshqa muassasalar, tashkilotlar va korxonalarining veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida) hamda veterinariya dorixonalarida;

veterinariya laboratoriyalarida;

veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va sinov laboratoriyalarida;

veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida saqlash, berish, sotish, taqsimlash va foydalanishga ruxsat beriladi.

Veterinariya maqsadlaridagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida (shu jumladan veterinariya uchastkalari va punktlarida), chorvachilik xo‘jaliklari va korxonalarida faqat tayyor dori shaklida foydalanishga ruxsat beriladi.

3. Veterinariya maqsadlari uchun faqat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 31 iyuldagi 293-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning II, III va IV ro‘yxatiga kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar qo‘llanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida qo‘llashga ruxsat berilmagan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni veterinariya omborlarida (bazalarida), veterinariya dorixonalarida va boshqa veterinariya muassasalarida va tashkilotlarida saqlash taqiqlanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo‘yicha texnik talablar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 17 iyundagi 2-son qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 11 iyulda 1048-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo‘yicha texnik talablar to‘g‘risidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

II. Giyohvandlik vositalarini saqlash, berish, sotish, taqsimlash va hisobga olish tartibi

Giyohvandlik vositalarini veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida) saqlash, berish, hisobga olish

4. Veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida) giyohvandlik vositalari ish kuni tamom bo'lgandan keyin bekiladigan va so'rg'ichlanadigan, alohida jihozlangan binolarda joylashgan seyflarda yoki metall shkaflarda saqlanadi.

5. Giyohvandlik vositalari saqlanayotgan binoga kirishga faqat bevosita u bilan ishlaydigan va ombor (baza) rahbari buyrug'i bilan rasmiylashtirilgan shaxslarga ruxsat beriladi.

6. O'zbekiston Respublikasida veterinariyada qo'llanishga ruxsat berilmagan giyohvandlik vositalarini omborlarda (bazalarda) saqlash taqiqlanadi.

7. Giyohvandlik vositalari keltirilgan ombor (baza) mudiri yoki unga vakolatli bo'lgan shaxs ilova qilingan hujjatlarida ko'rsatilgan miqdori va og'irligiga ularning miqdori va og'irligining muvofiqligini shaxsan tekshirishi shart.

8. Poroshok holdagi giyohvandlik vositalari omborlardan (bazalardan) faqat so'rg'ichlangan holda beriladi.

9. Giyohvandlik vositalarini berish veterinariya muassasasi rahbari yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolangan, ushbu muassasaning gerbli muhri bilan tasdiqlangan talabnomalar bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

10. Giyohvandlik vositalariga barcha talabnomalar boshqa veterinariya preparatlariga talabnomalardan alohida yozilishi kerak, bunda ularning miqdori so'z bilan yozib ko'rsatiladi.

11. Giyohvandlik vositalari olingan vositalarning nomi va ularning so'z bilan yozilgan miqdori ko'rsatilgan holda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan alohida ishonchnoma bo'yicha beriladi.

12. Giyohvandlik vositalarini berishdan oldin muassasa buyrug'i bo'yicha uning saqlanishi uchun javobgar shaxs, berish uchun asoslarni, berilayotgan giyohvandlik vositasining ilova qilingan hujjatlarga muvofiqligini, o'raining to'g'riligini shaxsan tekshirishi va omborda (bazada) qoladigan tovar-transport yuk hujjatining nusxasiga imzo qo'yishi shart.

13. Giyohvandlik vositalari omborlardan (bazalardan) faqat veterinariya maqsadlari uchun yuridik shaxslarga giyohvandlik vositalaridan foydalanish huquqiga litsenziyasi mavjud bo'lganda beriladi.

14. Giyohvandlik vositalari va maxsus retseptura blankalari omborlarda (bazalarda) mazkur Tartibga 1 va 2-ilovalarga muvofiq shakllar bo'yicha raqamlangan va ip o'tkazib tikilgan, veterinariya muassasasi rahbarining imzosi va muhr bilan tasdiqlangan maxsus daftarlarda hisobga olinadi.

15. Giyohvandlik vositalarining kirimi va chiqimi bo'yicha barcha hujjatlar omborlarda (bazada) uning saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxsda belgilangan saqlanish muddatlariga muvofiq ravishda, ushbu hujjatlarning saqlanishi to'liq kafolatlangan sharoitlarda saqlanadi.

Ko'rsatilgan hujjatlarning saqlanish muddati 5 yil.

Veterinariya dorixonalarida giyohvandlik vositalarini saqlash, berish, sotish va hisobga olish

16. Veterinariya dorixonalarida giyohvandlik vositalari seyflarda saqlanadi. Seyflar yopiq holatda bo'lishi kerak. Ish kuni tamom bo'lgandan keyin seyflar qulflanishi va so'rg'ichlanishi, kalitlar, muhr, plombir esa — uning saqlanishi uchun javobgar bo'lgan, buyruq bilan vakolatlangan shaxsda bo'lishi kerak.

17. O'ziga xizmat vazifalariga ko'ra giyohvandlik vositalari bo'yicha bevosita ruxsati bo'ladigan shaxslarni ishga qabul qilishda ushbu shaxslarni «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tanishtirish, shuningdek u bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga (kontraktga) mazkur Tartibga rioya etmaganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar kiritilishi zarur.

18. Giyohvandlik vositalarini joriy ishlar uchun assistent xonasiga berish faqat veterinariya dorixonasi mudiri yoki bunga vakolati bo'lgan shaxs tomonidan giyohvandlik vositalari saqlanadigan xonadan amalga oshirilishi kerak.

19. Veterinariya dorixonasining assistent xonasida giyohvandlik vositalari tunda qoldirilishi mumkin emas.

20. Giyohvandlik vositalari mazkur Tartibga [5-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan va muassasa yoki yuqori tashkilot rahbarining imzosi hamda muhr bilan tasdiqlangan maxsus daftarda ashyoviy-miqdoriy hisobda turishi kerak.

21. Har oyning 1-kunida veterinariya dorixonasida uning ixtiyorida bo'lgan giyohvandlik vositalari belgilangan tartibda xatlovdan o'tkaziladi hamda balans tuziladi. Balansda tafovut normadan yuqori sarflash yoki o'tkazilgan xatlov natijasida balans ma'lumotlarining nomuvofiqligi to'g'risida ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, dorixona mudiri uch kun muddatda bu to'g'rida ichki ishlar organlariga xabar beradi.

Giyohvandlik vositalari talon-toraj qilingan va o'g'irlangan taqdirda mazkur Tartibga [4-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha dorixona mudiri zudlik bilan bu to'g'rida ichki ishlar organlariga va O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya davlat bosh boshqarmasiga bu to'g'rida xabar beradigan, davlat veterinariya xizmati yuqori organiga xabar qilishi shart.

22. Dorixona mudiri yoki uning o'rinbosari veterinariya dorixonalaridan jismoniy shaxslarga giyohvandlik vositalarini berish huquqiga ega.

23. Tarkibiga giyohvandlik vositalari kiradigan dorilarga retseptlarni qabul qilishda, dorixona mudiri (yoki uning o'rinbosari) kasal hayvonning turi va yoshini aniqlashi, dozaning to'g'ri belgilanganligini, dori shaklida yozilgan ingredientlarning mosligini tekshirishi va giyohvandlik vositalari nomining tagiga chizib qo'yishi (ajratishi) shart.

24. Dori tarkibiga kiruvchi giyohvandlik vositalari uning saqlanish joyida tarozida tortilishi kerak, so'ngra shtanglas seyfga joylanadi. Retseptning orqa tomoniga dorixona mudiri (yoki uning o'rinbosari) giyohvandlik vositasining nomi va miqdorini ko'rsatgan holda, uning talab qilingan miqdorini berganligi, jismoniy shaxs esa olganligi to'g'risida imzo qo'yadi.

Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan dorilarni tarozida tortish va tayyorlash uchun mo'ljallangan priborlar, asbob va idishlar seyflarda saqlanishi kerak, ularni yuvish va ishlov berish dorixona mudiri va uning o'rinbosari nazoratida alohida amalga oshirilishi kerak. Giyohvandlik vositalaridan iborat bo'lgan dorilar tayyorlanadigan idishda tegishli markirovka bo'lishi kerak.

25. Agar retseptda, boshqa ingredientlar bilan birga, giyohvandlik vositalari yozilgan bo'lsa, bu holda ularni alohida (tayyorlangan dori tarkibidan alohida) berish taqiqlanadi.

26. Giyohvandlik vositalarini takroran olish uchun veterinar vrach hayvon egasiga yangi retsept yozib berishi shart.

27. SHahar yoki qishloq ma'muriy tumanlari doirasidagi veterinariya dorixonalari tomonidan giyohvandlik vositalari ular hududida joylashgan veterinariya davolash-profilaktika muassasalarining retseptlari bo'yicha beriladi.

28. Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan dorilar uchun foydalanilgan retseptura blankalari oylar va yillar bo'yicha ip o'tkazib tikilgan, so'rg'ichlangan holda 5 yil mobaynida saqlanishi kerak.

Ular bo'yicha giyohvandlik vositalari berilgan retseptlar giyohvandlik vositalari saqlanadigan xonalarda saqlanadi. Saqlash muddati tugagan retseptlar tegishli dalolatnoma (mazkur Tartibga [7-ilova](#)) rasmiylashtirilgan holda yoqib yo'q qilinadi.

Veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarida giyohvandlik vositalarini saqlash, hisobga olish, berish va qo'llanish

29. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalari giyohvandlik vositalarini faqat qo'llashga tayyor holda sanoatda, veterinariya yoki tibbiy dorixonalarda tayyorlangan dori shakllarida olishi kerak.

30. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalari dorixonalarida giyohvandlik vositalari seyflarda saqlanadi.

Veterinariya dorixonalarini uchun ([2-band](#)) nazarda tutilgan giyohvandlik dorivor vositalarni hisobga olish va berish tartibi veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarini dorixonalariga ham joriy etiladi.

31. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarini tomonidan veterinariya yoki tibbiy dorixonalaridan olinadigan tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan dorilar signaturasida yoki yorlig'ida aniq va tushunarli holdagi «Ichish uchun», «Surtish uchun», «In'eksiyalar uchun», «Ko'zga tomiziladigan malham» va boshqa yozuvlar, shuningdek dori tayyorlangan dorixona nomeri (nomi), dorining talabnomada ko'rsatilgan yozuvlarga mos tarkibi, dori tayyorlangan sana va dorini tayyorlovchi va uni dorixonadan bergan shaxsning imzosi bo'lishi kerak.

Giyohvandlik vositalarining o'ramlarida sanab o'tilgan belgilar mavjud bo'lmaganda veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarida ularni saqlash va qo'llanishga ruxsat berilmaydi. Qadoqlash, joylash, o'lchab tayyorlash, boshqa idishga quyish va joylash, shuningdek yorliqlarini almashtirib qo'yish qat'iy taqiqlanadi.

32. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarini dorixonalarida giyohvandlik vositalari zaxirasi ularga bo'lgan oylik ehtiyojdan oshmasligi kerak.

Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik fermalari hamda xo'jaliklari va korxonalarini davolovchi veterinar vrachlari va feldsherlaridagi giyohvandlik vositalari zaxiralari ularga bo'lgan uch kunlik joriy ehtiyojdan oshmasligi kerak.

Davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik fermalari va xo'jaliklar hamda korxonalar bo'limlarining davolovchi veterinar vrachlari va feldsherlariga kechki va tungi vaqtlarda shoshilinch yordam ko'rsatish uchun giyohvandlik vositalarining besh kunlik zaxirasini tashkil etishga ruxsat beriladi.

33. Veterinariya davolash-profilaktika muassasasi mudiri, chorvachilik xo'jaligi yoki korxonasi bosh veterinar vrachlari (yoki ularning o'rinbosarlari), shuningdek muassasa, xo'jalik yoki korxonaga bo'yicha buyruq bilan belgilangan shaxslar giyohvandlik vositalarini saqlash, hisobga olish, berish va kasal hayvonlarga qo'llashni tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadilar.

34. Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan dorilarni kasal hayvonlarga qo'llash veterinar vrach yoki feldsher tomonidan boshqa dorilardan alohida amalga oshirilishi kerak.

35. Davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik firmalari va xo'jaliklari bo'limlari hamda korxonalarining davolovchi vrachlari va feldsherlaridagi giyohvandlik vositalari mazkur Tartibga [8-ilovada](#) ko'rsatilgan shakl bo'yicha ip bilan tikilgan, nomerlangan va veterinariya davolash-profilaktika muassasasi, xo'jalik yoki korxonaga veterinariya xizmati rahbarining imzosi bilan tasdiqlangan holda maxsus daftarda ashyoviy-miqdor bo'yicha hisobga olinadi.

36. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarini zarur maxsus retseptura blankalarini davlat veterinariya xizmati boshqarmasining tuman (shahar) organlari orqali oladilar.

37. Giyohvandlik vositalariga maxsus retseptura blankalari veterinariya davolash-profilaktika muassasalariga kelib tushganda komissiya tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va mazkur Tartibga [9-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha Giyohvandlik vositalariga maxsus retseptura blankalarini hisobga olish daftarida kirim qilinadi.

Giyohvandlik vositalariga maxsus retseptura blankalari sahifalari nomerlanishi, ip o'tkazib tikilishi va veterinariya davolash-profilaktika muassasasi, chorvachilik xo'jaligi yoki korxonasi veterinariya xizmati rahbari imzosi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan ko'rsatib o'tilgan Daftarda hisobga olinadi.

38. Giyohvandlik vositalari uchun maxsus retseptura blankalari veterinariya davolash-profilaktika muassasasi, chorvachilik xo'jaligi yoki korxonasi veterinariya xizmati rahbarida yoki rahbarning buyrug'i bilan tayinlangan retseptura blankalarini olish, saqlash, hisobga olish va berish uchun mas'ul shaxsda seyfa yoki metall shkafda saqlanishi kerak.

39. Veterinariya davolash-profilaktika muassasasi, chorvachilik xo'jaligi yoki korxonasi veterinariya xizmati rahbarining ko'rsatmasi bo'yicha giyohvandlik preparatlari uchun retseptura blankalari ikki haftalik ehtiyoj miqdorida, lekin 10 donadan ko'p bo'lmagan miqdorda (giyohvandlik

preparatlari uchun ko'p miqdorda retseptura blankalariga ehtiyoj tug'ilganda ularning miqdori rahbarning farmoyishi bo'yicha ko'paytirilishi mumkin) retseptlar yozish huquqiga ega bo'lgan davolovchi veterinar vrachga beriladi.

40. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo'jaliklari yoki korxonalarida joriy ehtiyoj uchun maxsus retseptura blankalari zaxirasi oylik ehtiyojdan oshmasligi kerak. Ularning ortiqchasi davlat veterinariya xizmati boshqarmasining hududiy organlariga topshirilishi kerak.

41. Giyohvandlik vositalari uchun maxsus retseptura blankalari veterinariya muassasasi, xo'jalik va korxonaning veterinariya xizmati rahbarida yoki bunga buyruq bilan vakolatlangan shaxsda kaliti turadigan metall shkaflarda saqlanishi kerak.

42. Har bir veterinariya davolash-profilaktika muassasasida, chorvachilik xo'jaligi yoki korxonasida giyohvandlik vositalarini davolovchi vrachlar tomonidan buyurishning maqsadga muvofiqligini, muassasa, xo'jalik yoki korxonada giyohvandlik vositalarini saqlash holatini, hisobga olinishi va sarflanishini har oyda kamida bir marta tekshirishni amalga oshiradigan, muassasa, xo'jalik yoki korxonaning veterinariya xizmati rahbari buyrug'i bilan tayinlanadigan doimiy ishlovchi komissiya tuziladi. Tekshiruv natijalari dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Giyohvandlik vositalari va maxsus retseptura blankalarining daftarda qayd etilgan qoldig'i amalda mavjud bo'lgan miqdoriga mos bo'lmagan taqdirda komissiya bir sutka mobaynida bu to'g'rida davlat veterinariya xizmati boshqarmasi organini, zarurat bo'lganda ichki ishlar organini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

43. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, xo'jaliklar hamda korxonalar veterinariya xizmati rahbarlari giyohvandlik vositalarining va giyohvandlik vositalariga yozib berish uchun maxsus retseptura blankalarining oqilona qo'llanishi, hisobga olinishi va saqlanishi uchun javob beradilar.

44. Davlat veterinariya xizmati hududiy organlari veterinariya davolash-profilaktika muassasalarini, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarini tekshirishda giyohvandlik vositalari uchun maxsus retseptura blankalarining saqlanishini ta'minlashni nazorat qiladilar.

Giyohvandlik vositalari uchun retsept yozish qoidalari

45. Ambulatoriyada davolash zarur bo'lgan kasal hayvonlar uchun, dori-darmonlar shakllari (jumladan, tayyor dori-darmon vositalari) turidan qat'i nazar, sof holdagi yoki indifferent to'ldirgichlar bilan birgalikdagi giyohvandlik vositalariga retsept faqat veterinariya davolash-profilaktika muassasasi, xo'jalik va korxonalar veterinariya xizmatining shtampi va dumaloq muhri qo'yilgan holda, belgilangan namunadagi (mazkur Tartibga 5 va 6-ilovalar) maxsus retseptura blankalariga yozib berilishi kerak.

46. Giyohvandlik vositalari uchun maxsus blankaga yozilgan retsept uni imzolagan veterinar vrach tomonidan yozilishi kerak. Bundan tashqari, ushbu retsept, shuningdek giyohvandlik vositalarini kasal hayvonlarga buyurish uchun javob beradigan veterinariya davolash-profilaktika muassasasi yoki xo'jalik yoxud korxonaning veterinariya xizmati rahbari tomonidan ham imzolanishi kerak.

Veterinariya davolash-profilaktika muassasasi va xo'jalik yoki korxonada veterinariya xizmatining davolovchi veterinariya vrachlari muassasa, xo'jalik yoki korxonada veterinariya xizmati rahbari tomonidan oldingi gal yozib berilgan miqdorga muvofiq ravishda foydalanilgan ampulalar topshirilgan taqdirda giyohvandlik vositalariga retseptni qayta yozib berish huquqiga ega.

47. To'ldirilmagan maxsus retseptura blankalarini muhr bilan rasmiylashtirish taqiqlanadi.

48. Veterinariya vrachlari giyohvandlik vositalarining nomini retseptning boshiga, undan keyin esa — qolgan barcha ingredientlarni yozishi kerak.

Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari va xo'jalik hamda korxonalarining veterinariya xizmatlari talabnomalarida retseptlar va giyohvandlik vositalari nomi faqat lotin tilida, muassasa yoki xo'jalik yoxud korxonada veterinariya xizmati rahbarining imzosi, shtamp va muhr qo'yilgan alohida blankalarga yozib berilishi kerak. Talabnomada dorining nimaga buyurilganligi albatta (in'eksiyalar, surish, ichish, ko'zga tomizish uchun va hokazo) ko'rsatilishi kerak, dori-

darmon vositalari buyurilgan hayvonlarning turi va yoshi hamda jinsi bo'yicha guruhi, ularning inventar raqami, kasal hayvonlar egalarining familiyasi, ismi va otasining ismi (ferma mudirlari, brigadirlar, bosh molboqar va boshqalar) ko'rsatiladi.

49. Bitta retseptura blankasiga faqat bitta giyohvandlik vositasini, unga davolovchi vrach belgilaydigan etti kunlik ehtiyojdan oshmaydigan miqdorda yozib berishga ruxsat etiladi. Retseptda qabul qilish chastotasi va uning davom etish muddati ko'rsatilishi kerak.

50. Giyohvandlik vositalari uchun retseptlar o'n kun mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

51. Giyohvandlik vositalari uchun retseptlar dorixonalardan giyohvandlik vositalari berilgan vaqtdan o'n kundan keyin, giyohvandlik vositalaridan bo'shagan foydalanilgan ampulalarni majburiy ravishda ko'rsatgandan keyin qayta yozib berilishi mumkin.

52. Giyohvandlik vositalari uchun retseptlarni o'rta maxsus ma'lumotli veterinariya mutaxassislari yozib berish huquqiga ega emas.

53. Sanab o'tilgan talablardan hatto bittasiga javob bermaydigan yoki nomuvofiq doridarmonlar yozilgan retseptlar haqiqiy hisoblanmaydi.

54. Noto'g'ri yozib berilgan retseptlar barcha dorixonada qoladi, «Retsept haqiqiy emas» shtampi bilan bekor qilinadi, maxsus daftarlarda ro'yxatdan o'tkaziladi, ular to'g'risidagi axborot retseptlarni yozib berish qoidasini buzgan xodimga nisbatan qattiq intizomiy choralar ko'rish uchun davlat veterinariya xizmatining tegishli hududiy organiga beriladi.

55. Ular bo'yicha tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan dorilar olingan retseptlar dorixona muassasalarida seyflarda yoki metall shkaflarda 5 yil mobaynida saqlanadi.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida va sinov laboratoriyalarida giyohvandlik vositalarini saqlash, berish va hisobga olish

56. Ilmiy-tadqiqot institutlarida, oliy o'quv yurtlarida va sinov laboratoriyalarida foydalaniladigan giyohvandlik vositalari alohida jihozlangan xonalarda saqlanadi. Bunda giyohvandlik vositalarining yopiq, so'rg'ichlangan seyflarda saqlanishi ta'minlanadi.

57. Tekshirish uchun mas'ul ijrochiga berilgan giyohvandlik vositalari yoki tarkibida ular mavjud bo'lgan dorilar tekshiruvchida boshqa vositalardan ajratilgan holda saqlanadi.

58. Giyohvandlik vositalarini saqlash uchun laboratoriya (bo'lim) mudiri yoki muassasa bo'yicha tegishli buyruq bilan bunga vakolatlangan shaxs javobgar hisoblanadi.

59. Har bir veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasasida, oliy o'quv yurti va sinov laboratoriyasida, bir oyda kamida bir marta muassasalarda giyohvandlik vositalarini saqlash holatini, hisobga olinishi va sarflanishini tekshiradigan, muassasa rahbari buyrug'i bilan tayinlanadigan doimiy ishlovchi komissiya tuziladi. Tekshirishlar natijalari dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Giyohvandlik vositalarining daftarda qayd etilgan qoldig'i amalda mavjud bo'lgan miqdoriga mos bo'lmagan taqdirda komissiya bir sutka mobaynida bu to'g'rida davlat veterinariya xizmati boshqarmasi organini, zarurat bo'lganda ichki ishlar organini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

60. Giyohvandlik vositalari tekshirish uchun veterinariya farmatsevtika tashkilotlari (veterinariya preparatlari ombori (bazasi)dan, dorixonadan) va korxonalaridan to'liq uch marta tekshiruv o'tkazish uchun zarur bo'lgan miqdorda kelib tushishi kerak. Giyohvandlik vositalarini tekshirish tugagandan keyin ularning qoldig'i 3 oy mobaynida saqlanadi, so'ngra ular dalolatnoma bo'yicha farmatsevtika tashkilotlari va korxonalariga qaytariladi.

61. Joriy ishlar uchun giyohvandlik vositalarini berish faqat mas'ul ijrochi buyurtmanomasiga binoan laboratoriya (bo'lim) mudiri yoki kafedra mudirining yozma ruxsati bo'yicha amalga oshiriladi.

62. Giyohvandlik vositalari veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida va sinov laboratoriyalarida mazkur Tartibga [10](#) va [11](#)-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha, alohida, nomerlangan va ip o'tkazib tikilgan daftarda tashkilot rahbarining imzosi va muhr bilan tasdiqlangan ashyoviy-miqdor bo'yicha hisobga olinishi kerak.

Veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida giyohvandlik vositalarini saqlash, berish, hisobga olish va sotish

63. Veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida giyohvandlik vositalari alohida jihozlangan, ish kuni tugagandan keyin yopiladigan xonalarda joylashgan, muhrlanadigan yoki soʻrgʻichlanadigan seyflarda yoki metall shkaflarda saqlanadi.

64. Giyohvandlik vositalarini saqlash uchun korxonada rahbari yoki korxonada boʻyicha buyruq bilan vakolatlangan shaxs javobgar hisoblanadi.

65. Giyohvandlik vositalari kelib tushganda korxonada rahbari (yoki bunga vakolatli shaxs) olingan vositalar miqdorining ilova qilingan hujjatlarga muvofiqligini shaxsan tekshirishi shart.

66. Ishlab chiqarish boʻlimiga (sexga) giyohvandlik vositalari korxonada rahbari yoki uning oʻrinbosari ruxsati bilan, bir turkumdagi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur boʻlgan miqdorda, yuk xati boʻyicha beriladi.

67. Giyohvandlik vositalari, dori-darmon vositalari turidan qatʼi nazar, omborlarda va boʻlimlarda (sexlarda) nomerlangan va ip oʻtkazib tikilgan, yuqori tashkilot rahbarining imzosi va muhr bilan tasdiqlangan daftarda hisobga olinadi. Ombordagi hisobga olish daftari veterinariya preparatlari omborlari (bazalari) uchun tasdiqlangan shakl boʻyicha, boʻlimlarda (sexlarda) esa — ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarni hisobga olishning belgilangan shakllari boʻyicha yuritiladi.

68. Tarkibida giyohvandlik vositalari boʻlgan notugal ishlab chiqarilgan dori-darmonlar (eritmalar, tabletkalar uchun aralashmalar va boshqalar)ni saqlash uchun boʻlim (sex) mudiri javob beradi.

Tayyorlangan va ichki idoraviy nazorat xizmati tomonidan sotishga ruxsat berilgan tarkibida giyohvandlik vositalari boʻlgan mahsulotlar shu kunning oʻzida korxonaning tayyor mahsulotlar omboriga berilishi kerak.

III. Psixotrop moddalarni saqlash, berish, sotish va hisobga olish tartibi

Veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida), veterinariya dorixonalarida, veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xoʻjaliklari va korxonalarida, veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasalarida, oliy oʻquv yurtlarida va sinov laboratoriyalarida psixotrop moddalarni saqlash, hisobga olish va berish

69. Oʻzbekiston Respublikasida nazorat qilinadigan psixotrop moddalar veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida) seyflarda yoki metall shkaflarda saqlanadi. Ishlar tugagandan keyin shkaflar va kirish eshigi qulflanadi, muhrlanadi yoki soʻrgʻichlanadi.

70. Veterinariya dorixonalarida, veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xoʻjaliklari va korxonalarida, veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasalarida va sinov laboratoriyalarida psixotrop moddalar qulflangan metall shkaflarda saqlanadi.

Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik fermalari hamda xoʻjaliklar va korxonalar boʻlimlarining davolovchi veterinariya vrachlari va feldsherlarida psixotrop moddalar qulflanadigan shkafda saqlanishi mumkin.

Psixotrop moddalar saqlanadigan shkaflar ish kuni tugagandan keyin qulflanishi, muhrlanishi yoki soʻrgʻichlanishi kerak.

71. Psixotrop moddalar uchun retseptlar veterinariya davolash-profilaktika muassasasi, xoʻjalik yoki korxonada veterinariya xizmati shtampi va muhri, uni yozib bergan vrachning imzosi mavjud boʻlgan, retseptlar litsenziyaga ega boʻlgan xususiy ravishda ishlaydigan veterinariya vrachi tomonidan yozib berilganda esa — uning shaxsiy muhri, manzili va telefon raqami mavjud boʻlgan retseptura blankalariga yoziladi. Bitta retseptura blankasiga Oʻzbekiston Respublikasida nazoratda boʻlgan faqat bitta psixotrop modda unga boʻlgan oylik ehtiyojdan oshmaydigan miqdorda yozib berilishiga ruxsat etiladi.

72. Tarkibida psixotrop moddalar boʻlgan dori-darmon vositalari uchun retseptlar yozib berishda, veterinariya vrachlari psixotrop moddalarning nomini retseptning boshiga, undan keyin esa qolgan boshqa ingredientlarni yozishi kerak.

73. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalari, chorvachilik fermalari, xo'jaliklar va korxonalar bo'limlarining davolovchi veterinariya vrachlaridagi psixotrop moddalar zaxirasi ularga bo'lgan ikki haftalik ehtiyojdan oshmasligi kerak.

74. Veterinariya davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarida O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalarni saqlash va davolovchi veterinariya vrachlariga va feldsherlarga berish uchun muassasa, xo'jalik yoki korxonada veterinariya xizmati rahbari, veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida), veterinariya dorixonalarida — moddiy javobgar shaxs mas'ul hisoblanadi. Veterinariya ilmiy-tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida va sinov laboratoriyalarida psixotrop moddalarni saqlash, hisobga olish uchun ularning rahbari buyrug'i bilan tayinlangan shaxslar mas'ul hisoblanadi.

75. Psixotrop moddalar dorixonalardan qat'iy ravishda veterinariya vrachi retsepti bo'yicha beriladi. Psixotrop moddalar uchun retseptlar bir oy mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

76. O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalar uchun retseptlar dorixonalarda qoladi va bir yil mobaynida saqlanadi. Saqlash muddati tugagandan keyin retseptlar dalolatnoma tuzgan holda yo'q qilinadi.

77. Dorixonada tarkibida psixotrop moddalar bo'lgan dorilar uchun retseptlarni qabul qilishda kasal hayvonning turi va yoshini hamda dozalashning to'g'riligini aniqlash zarur.

78. O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalar nomerlangan, ip o'tkazib tikilgan, rahbarning imzosi va muassasa yoki yuqori tashkilot muhri bilan tasdiqlangan (mazkur Tartibga [12-ilova](#)) maxsus daftarda ashyoviy-miqdor bo'yicha hisobda turishi kerak. Har oyning 1-kunida ularning ixtiyoridagi mavjud psixotrop moddalar belgilangan tartibda xatlovdan o'tkaziladi va balans tuziladi. Balansdagi ma'lumotlarda normadan ortiqcha sarflashlar yoki o'tkazilgan xatlov natijasi bilan balans ma'lumotlarida nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, dorixona mudiri uch kun muddatda bu to'g'rida yuqori tashkilotga va ichki ishlar organlariga xabar beradi.

O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalarni veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida saqlash, hisobga olish, berish va sotish

79. O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalarni va ularni ishlab chiqarishdagi yarim tayyor mahsulotlar veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida ish tamom bo'lgandan keyin moddiy javobgar shaxs tomonidan qulflanadigan, muhrlanadigan yoki so'rg'ichlanadigan, alohida jihozlangan xonalarda joylashgan seyflarda yoki metall shkaflarda saqlanadi.

80. Ko'rsatib o'tilgan korxonalarda psixotrop moddalar ashyoviy-miqdor bo'yicha hisobda turishi kerak. O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalar hisobi nomerlangan, korxonada rahbarining yoki korxonada bo'yicha buyruq bilan vakolatlangan lavozimli shaxsning imzosi va muhr bilan tasdiqlangan alohida daftarlarda yuritiladi. Omborlarda hisobga olish daftari mazkur Tartibga [13-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha, bo'limlarda (sexlarda) esa — ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarni hisobga olishning belgilangan shakli bo'yicha yuritiladi.

81. O'zbekiston Respublikasida nazoratda bo'lgan psixotrop moddalar tayyor doridarmonlar tayyorlash uchun omborlardan korxonada rahbarining ruxsati bilan, sex boshlig'ining yuk xati bo'yicha beriladi.

IV. Prekursorlarni saqlash, berish, hisobga olish va sotish tartibi **Veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida), veterinariya dorixonalarida, laboratoriyalarda, ilmiy-tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida, davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarida prekursorlarni saqlash, berish, hisobga olish va sotish**

82. Veterinariya preparatlari omborlarida (bazalarida), veterinariya dorixonalarida, laboratoriyalarda, ilmiy-tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida, davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo'jaliklari va korxonalarida qo'llaniladigan prekursorlar ularning saqlanishini ta'minlaydigan xonalarda saqlanishi kerak. Bir qator agressiv va tez o't oladigan

prekursorlarni (sirka kislotasi angidridi, atseton, etil efiri, xlorid kislotasi, fenilsirka kislotasi, sulfat kislotasi, toluolni) saqlashda ularning fizik-kimyoviy xossalari ham hisobga olinishi kerak.

83. Tayyor dorivor vositalar hisoblanadigan prekursorlar metall shkaflarda saqlanishi kerak.

84. Laboratoriyalarda, ilmiy-tadqiqot muassasalarida prekursorlarni saqlash, hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish uchun — laboratoriya (bo‘lim) rahbari, oliy o‘quv yurtlarida — kafedra mudiri, dorixonada — dorixona mudiri, davolash-profilaktika muassasalarida, chorvachilik xo‘jaliklari va korxonalarida — muassasaning yoki xo‘jalik yoxud korxonaviy veterinariya xizmati rahbari mas‘ul hisoblanadi. Omborlarda (bazalarda) saqlash uchun mas‘ul shaxs (ombor mudiri) mas‘ul hisoblanadi.

85. Tez o‘t oladigan prekursorlar zich yopilgan, pishiq shisha yoki metall idishlarda saqlanadi.

86. Prekursorlar joylangan butilkalar, ballonlar va boshqa yirik idishlar balandligi bo‘yicha bir qatorda stellaj polkalarida saqlanishi kerak. Ularni balandligi bo‘yicha bir necha qatorda saqlash taqiqlanadi. Ushbu moddalarni isitish priborlari yonida joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Stellaj yoki shtabeldan isituvchi elementgacha bo‘lgan masofa kamida 1 metr bo‘lishi kerak.

87. Tez o‘t oladigan suyuqliklar laboratoriyalarda ichki tomoni asbest yoki shishatola bilan qoplangan metall yashiklarda saqlanadi. Ularning ichki tomonida saqlanayotgan moddalarning laboratoriya (bo‘lim) rahbari imzolagan ro‘yxati yopishtirilgan bo‘lishi kerak. Idishlarning ko‘pi bilan uchdan ikki qismi suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak. Yashik qopqog‘ining tashqi tomonida «Tez o‘t oladigan suyuqlik» yozuvi bo‘lishi, yashik qulflanishi kerak.

88. Tez o‘t oladigan prekursorlarni mineral kislotalar (ayniqsa oltingugurt va azot kislotalari), qisilgan va suyultirilgan gazlar, yonuvchi moddalar (o‘simlik yog‘i, oltingugurt, bog‘lash materiallari), shuningdek organik moddalar bilan birgalikda portlovchi aralashmalar (kaliy xlorat, kaliy permanganat, kaliy xromat va boshqalar) hosil qiluvchi noorganik tuzlar bilan birga saqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

89. Prekursorlar bilan ishlashda (qadoqlash, tashish, yuklash va boshqalar) ehtiyot bo‘lish, shuningdek idishning holatini, uning zichligi va sozligini doimo kuzatib borish zarur. Idishda nuqson va nosozliklar mavjud bo‘lganda darhol ularni bartaraf etish choralari ko‘rilishi yoki undagi moddalar boshqa nuqsonsiz idishga qayta joylanishi kerak.

90. Bochkalar qopqoqlarining faqat urilganda uchqun chiqarmaydigan yumshoq metallardan tayyorlangan asboblardan ochilishi va yopilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bochkalarni yumalatishda va ularni omborga joylashda bochkaga urilish va uchqun hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ehtiyot bo‘lish zarur. Polga to‘kilgan suyuqlik darhol yo‘qotilishi kerak.

91. Ayrim tez o‘t oladigan prekursorlar (etil efiri va boshqalar) saqlash chog‘ida statik elektr hosil qilish xususiyatiga egadir, uning uchquni suyuqlikni yondirishi mumkin. SHu sababli omborda bunday suyuqliklarni qadoqlash yong‘indan saqlash vositalari bilan jihozlangan alohida xonalarda amalga oshirilishi lozim. Ularni quyish va metall idishlarga joylashda idishlar erga tegib turishi kerak.

92. Prekursorlar joylangan idishlar (shtanglaslar, tunuka barabanlar, shisha idishlar va boshqalar) ushbu moddalar bug‘larining havoga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun zich yopilishi zarur.

93. Etil efiri fabrika idishida, qorong‘i, salqin joyda (olovdan va isitish priborlaridan uzoqda) saqlanadi.

94. Etil efiri bilan ishlashda silkinishga, urilishga, ishqalanishga va shu kabilarga yo‘l qo‘yilmaydi.

95. Kaliy permanganatni omborlarda maxsus bo‘lmada tunuka barabanlarda, dorixonalarda esa — tiqinli shtanglaslarda, yuqorida qayd etilgan vositalardan alohida saqlash lozim. Uning tez o‘t oladigan va yonilg‘i moddalari bilan birga saqlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Kaliy permanganat joylangan tunuka barabanlar va shtanglaslar ishqalanishga yo‘l qo‘ymagan holda, changdan ehtiyotkorlik bilan o‘z vaqtida tozalanadi.

96. Oltingugurt kislotasini saqlashda uning yog‘och qirindisi, poxol va boshqa organik moddalarga tegib turishiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rish kerak.

97. Laboratoriya xonalarining yong'in xavfsizligini baholash ularda saqlanadigan va foydalaniladigan kimyoviy moddalarning portlash va yonuvchanlik xossalari asoslanadi. Laboratoriyalarda yonuvchan inventarlar (shkaflar, stollar va shu kabilar)ning mavjud bo'lishi ularda alohida xavf tug'diradi. Bunday xonalar yong'inga xavfli hisoblanadi, ular o't o'chirgichlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. O't o'chirgich laboratoriyaning har bir xonasida bo'lishi kerak. Bundan tashqari, har qaysi laboratoriyada prekursorlarni so'ndirishda foydalaniladigan quruq qum to'ldirilgan yashik bo'lishi kerak.

98. Dorixonalarda tabiiy permanganatni 5 grammgacha va sulfat kislotaning 1—6 foizli eritmasini 250 milligrammgacha miqdorda retseptsiz berishga ruxsat etiladi.

99. Veterinariya maqsadlarida qo'llaniladigan boshqa prekursorlar faqat veterinariya vrachi retseptlari bo'yicha berilishi hamda maxsus daftarda ashyoviy-miqdor bo'yicha hisobga olinishi, nomerlangan, ip o'tkazib tikilgan, muhrlangan va tashkilot rahbari imzosi qo'yilgan bo'lishi kerak (ushbu Tartibga [14-ilova](#)).

100. Ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, oliy-o'quv yurtlari, dorixonalar va boshqa tashkilotlar omborlarida ilmiy tekshirish va diagnostika maqsadlarida qo'llaniladigan prekursorlar nomerlangan, ip o'tkazib tikilgan, muhrlangan va tashkilot rahbari imzosi qo'yilgan maxsus daftarda hisobga olinishi kerak (ushbu Tartibga [15-ilova](#)).

101. Har qaysi oying 1-kunida prekursorlar belgilangan tartibda xatlovdan o'tkaziladi va balans tuziladi. Balansdagi ma'lumotlarda normadan ortiqcha sarflanganlik yoki balans ma'lumotlarining o'tkazilgan xatlov natijalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda muassasa rahbari ular qayd etilgandan keyin uch kun muddatda bu haqda o'zining yuqori tashkilotiga va ichki ishlar organlariga xabar qiladi.

Veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida prekursorlarni saqlash, hisobga olish va berish

102. Veterinariya farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida prekursorlarni ishlab chiqarish, saqlash, foydalanish, berish bilan bog'liq ishlarni tashkil etish amaldagi texnologik reglamentga, prekursorning mazkur turi bo'yicha standartga (GOST, RST, OST, TU va STPgga) hamda boshqa normativ-texnik hujjatlarga muvofiq kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalarga, moddalarning xavflilik darajasiga bog'liq holda amalga oshiriladi.

103. Prekursorlar saqlanadigan idishlar plombalangan bo'lishi kerak.

104. Prekursorlar hisoblanadigan kimyoviy moddalar ishlab chiqariladigan va saqlanadigan ishlab chiqarish xonalari korxonada maydonchalarida joylashgan bo'lishi hamda boshqa ishlab chiqarishlardan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan masofada ajratilgan bo'lishi kerak.

105. Bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi prekursorlarning bitta omborda birga saqlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur prekursorlarni faqat bitta omborning alohida bo'linmalarida (seksiyalarida) saqlashga ruxsat etiladi.

106. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan prekursorlar omborlarda yoki ularning saqlanishini ta'minlaydigan maxsus ajratilgan xonalarda saqlanadi. Agar ushbu ob'ektlarda ishlar uzluksiz xususiyatga ega bo'lsa yoki ularning faoliyati noaniq vaqtga to'xtatib qo'yilsa korxonada rahbarlari ularni qo'riqlash choralari ko'rishi, omborlar esa moddiy javobgar shaxs tomonidan muhrlab qo'yilishi kerak.

107. Prekursorlarni saqlashda ularning portlashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan changlar bilan ifloslanishiga qarshi choralar ko'rilishi lozim.

108. Korxonada rahbari prekursorlarni ishlab chiqarish, saqlash va ulardan foydalanishning to'g'ri tashkil etilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

109. Korxonalarining prekursorlar saqlanadigan omborlarida prekursorning har bir turi uchun hisobga olish kartochkasi yuritilishi kerak, unda majburiy tartibda moddaning miqdori, keltirilgan sanasi, etkazib beruvchining nomi, kimga, qachon va qancha miqdorda berilgani to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

110. Omborda barcha materiallar, xom ashyo, mahsulotlar ro'yxati bo'lishi kerak. Ashyolarni saqlovchi idishlarning tashqi holatini va upakovkasini (butunligini, zichligini, markalanganligini) muntazam ravishda nazorat qilib borishi kerak.

111. Har qaysi omborda ko'rinarli joyda GOST 12.4.026 «Signal ranglari va xavfsizlik belgilari»ga muvofiq xavfsizlik belgilari, omborda saqlanadigan materiallarni joylashda xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnoma, ushbu materiallarni joylash va saqlash bilan bog'liq baxtsiz hodisalar chog'ida birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha yo'riqnoma osib qo'yilgan bo'lishi kerak.

112. Xom ashyo va mahsulotlarni saqlash uchun maydonchalar yog'in-sochinlardan va quyosh nurlarining bevosita ta'siridan himoyalangan bo'lishi, yuriladigan qismi sathidan kamida 15 sm balandlikda bo'lishi hamda suyuqliklar, yog'in-sochinlar va oqova suvlarning erkin oqib kelishini cheklaydigan qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

113. Kislotalar saqlanadigan ombor boshqa materiallar omborlaridan alohida joylashgan bo'lishi kerak. Kislotalarning erto'lalarda saqlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Kislotalar omborlarini shamollatish uchun tabiiy ventilyasiyadan foydalaniladi.

114. Barcha ombor maydonchalariga erkin kirib borish ta'minlangan bo'lishi kerak.

115. Xom ashyo va tayyor mahsulotni maxsus maydonchalarda idishlarda saqlash har qaysisida ko'pi bilan 100 ta idish bo'lgan guruhlar holida amalga oshiriladi, guruhlar o'rtasidagi oraliq 1 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Har qaysi guruhda muayyan turdagi mahsulot saqlanishi lozim.

116. Saqlash jarayonida prekursorlarning holati ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi kerak.

117. Sanoat korxonalarida sexlarida prekursorlarni hisobga olish belgilangan tartibda ish daftarlarida — har smenada, sexning texnik hisobotlarida — har oyda, yil natijasi bo'yicha — har chorakda yuritiladi. Texnik hisobotlarda tasdiqlangan normalar bo'yicha sarflanish va hisobot davridagi prekursor sarfi aks ettiriladi.

V. Maxsus daftarlarni yuritish va saqlash tartibi

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq operatsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish maxsus daftarlarini yuritish va saqlash

118. Veterinariyada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritishadi.

119. Yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tkazish daftaridagi yozuvlar asosida belgilangan tartibda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq o'z faoliyati to'g'risida ma'lumotlar taqdim etishadi.

120. Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 31 iyuldagi 293-son [garori](#) bilan tasdiqlangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishdagi har qanday operatsiyalar ro'yxatdan o'tkazish daftarida qayd etilishi kerak.

121. Ro'yxatdan o'tkazish daftarining shakli yuridik shaxs rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ro'yxatdan o'tkazish daftarida yuridik shaxs faoliyati xususiyatlarini hisobga oluvchi va ushbu Tartibda nazarda tutilgan barcha zarur ma'lumotlarni aks ettiruvchi ustunlar bo'ladi.

122. Yuridik shaxs rahbari ro'yxatdan o'tkazish daftarini, shu jumladan tarkibiy bo'linmalarda va filiallarda saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan, zimmasiga ro'yxatdan o'tkazish daftarining yuritilishi va saqlanishini nazorat qilish yuklanadigan shaxslarni tayinlaydi.

123. Ro'yxatdan o'tkazish daftari ip o'tkazib bog'langan, rahbarning imzosi va yuridik shaxsning muhri qo'yilgan, uning sahifalari nomerlangan bo'lishi kerak.

124. Ro'yxatdan o'tkazish daftaridagi yozuvlar uning yuritilishi va saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan, bevosita har qaysi operatsiyadan keyin xronologik tartibda, mazkur operatsiyaning bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi (ro'yxatdan o'tkazish daftarining alohida ustunida ushbu hujjatlarning nomi, tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar yoki ularning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari alohida papkaga tikiladi, u ro'yxatdan o'tkazish daftari bilan birga saqlanadi.

125. Ro'yxatdan o'tkazish daftarida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning ro'yxatlariga muvofiq ravishda belgilangan tartibda ko'rsatiladi, qavslarda esa — ular yuridik shaxs tomonidan olingan firmaning nomi qayd etiladi.

126. Ro'yxatdan o'tkazish daftaridagi yozuvlarning tartib raqami kalendar yil doirasida ortib boruvchi tartib raqamlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Yangi ro'yxatdan o'tkazish daftaridagi yozuvlarning tartib raqami to'lgan daftardagi oxirgi tartib raqamidan keyingi raqamdan boshlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish daftarining joriy kalendar yilda foydalanilmagan sahifalaridan navbatdagi kalendar yilda foydalaniladi. Bunda yozuvlarning tartib raqami 1 raqamidan boshlanadi.

127. Ro'yxatdan o'tkazish daftaridagi har bir yozuv uning yuritilishi va saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxsning imzosi bilan, uning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan holda tasdiqlanadi.

128. Ro'yxatdan o'tkazish daftaridagi tuzatishlar uning yuritilishi va saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish daftarida o'chirib yozishlarga va tasdiqlanmagan tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi.

129. Ro'yxatdan o'tkazish daftari shkafda saqlanadi, uning kaliti daftarning yuritilishi va saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxsda turadi.

To'lgan ro'yxatdan o'tkazish daftari belgilangan tartibda saqlanadi.

**MAGISTRATURA
TALABALARINI REYTING
KO`RSATKICHLARINI
BAXOLASH MEZONI**

O`zbekiston Respublikasi Sog`iqni Saqlash Vazirligi.

Toshkent farmatsevtika instituti

DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

**Dori turlari texnologiyasi kafedrasida magistraturada o`qitiladigan barcha
fanlardan
magistratura talabalarining mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va
baholash tartibi to`g`risida**

NIZOMI

Kafedra majlisida tasdiqlangan
Bayonnoma №_____ 20____yil

Toshkent

Magistratura talabalarining mustaqil ishi bajarishda ularning o`qitilayotgan fanlarini chuqur o`zlashtirish, topshiriq va o`quv – izlanish ishlarini bajarishda ijodiy yondashish, mustaqil fikrlashga va o`z bilim va ko`nikmalarini muntazam ravishda oshirishga intilish xususiyatlarini shakllantirish yotadi.

TMI turi va mavzusi o`quv yili boshida taqsimlab beriladi. TMI kafedrada 2 yil davomida saqlanadi. Mustaqil ish topshirishdan avval magistrant rahbariga uning loyihasini ko`rsatishi so`ngra bajargan TMI ni jixozlab topshirishi kerak.

Fan bo`yicha mustaqil ishi bajarish mavzulari ishchi dasturlarda keltirilgan.

TMI ishini nazorat va baholash mezonlari

Magistrantlarning mustaqil ishini nazorat qilish o`quv mashg`ulotlarini olib boruvchi o`qituvchi tomonidan bajariladi. TMI mavzulari muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatiga mos keladi.

TMI ni bajarilishi maksimal 5 ball bo`yicha baholanadi va fan bo`yicha umumiy reytingiga kiritiladi.

Mutaxassislik fanining "Dori vositalarini modifikatsiyalash va yo`naltirish tizimlari" bo`limi bo`yicha MI 100 soat ajratiladi:

1-bo`lim:

- 1.Ta'siri uzaytirilgan, tekstil asosida zamonaviy bog`lovchi materiallar 5 soat
- 2.Yurak-qon tomirlar kasalliklarida qo`llaniladigan davolovchi dorivor tizimlar nomenklaturasi-8 soat
- 3.Oshqozonda ushlanib qoluvchi va hajmi kattalashuvchi modifikatsiyalangan dori turlari-6 soat
- 4.Dori moddani vaqti-vaqti bilan (xronotrop tarzda) ajratuvchi dori turlari -7 soat
- 5.Insulin saqlovchi modifikatsiyalangan dori vositalari-7 soat
- 6.Transdermal spreylar va mikroignalar-6 soat

2-bo`lim:

- 7.Lipid vezikular asosida olingan dori vositalarini turg`unlashtirishda qo`llaniladigan komponentlar -5 soat
- 8.Mikrochiplar shaklida qo`llaniladigan preparatlar nomenklaturasi-8 soat.
- 9.Ingalyatorlar va nebulayzerlar yordamida kiritiladigan preparatlar nomenklaturasi -8 soat
- 10.Oshqozon-ichak adgeziv plastirlar -6 soat
- 11.Lipid vezikular asosida olingan sitostatik dori vositalari-6 soat.
- 12.Polimer qobiq bilan qoplangan mikrozarachalar(pelletlar) asosidagi dori vositalari-5 soat
- Magnitofarmakologiya va elastik magnitlar-6 soat.

3-bo`lim:

- 13.Dorilarni ta'sirini modifikatsiyalashda siklodekstrin mitselliylarning ahamiyati-7 soat.
- 14.Noorganik moddalar asosida nanozarachalar -5 soat
- 15.Dendrimerlar va niosomalar- dorilar tashuvchi vositalar-5 soat

Parafarmatsevtik preparatlar texnologiyasi fanidan MI 40 soat ajratilgan va va 3ta bo`lim bo`yicha MI bajariladi:

- Mahalliy xom ashyolardan parafarmatsevtik vositalarini olish asoslari-8 soat;
- Zamonaviy BFqlar tarkibi va texnologiyasini takomillashtirish-4 soat
- Mahalliy xom ashyolardan parafarmatsevtik qattiq dori vositalarini olish texnologiyasi- 4 soat;
- Mahalliy xom ashyolardan parafarmatsevtik yumshoq dori vositalar tarkibini asoslash- 4 soat;
- Kompleks gomeopatik dori vositalarining ishlab chiqarilishining zaruriyati va dolzarbligi- 4 soat;
 - Kompleks ta'sirli gomeopatik dori turlari va farmakoterapevtik preparatlar o`rtasidagi bog`liklik- 4 soat;
 - Og`iz bo`shlig`ini gigienik parvarish qilish uchun qo`llaniladigan kosmetik vositalarni fizik-kimyoviy hossalarni baholash- 4 soat;
 - Yog`li asosli kosmetik gigiena vositalarini fizik-kimyoviy hossalarni baholash- 4-soat;
 - Parafarmatsevtik gigiena vositalarini saqlash sharoiti va muddatini belgilash usullari- 4 soat;

Mutaxassislik fanining "Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi" bo`limi bo`yicha MI bajariladi:

1-bo`lim:

Gomeopatiyaga oid davolash printsiplaridan Gering qonuni .

Gomeopatik antidotlar va polixrestlar.

Gomeopatik preparatlarining agregat xolati buyicha tasnifi

Gomeopatiyada ishlatiladigan mineral va hayvon moddalar tasnifi .

Gomeopatik preparatlarining dispersologik tasnifi

Gomeopatik nozodlar

Gomeopatik sarkodlar

Gomeopatik katalitik preparatlar ta'rifi tasnifi

Gomeopatik gomakordlar va in'ellar

Gomeopatik LM- potentsiyalar

Gomeopatiya amaliyotida ishlatiladigan dori preparatlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi

2-bo`lim:

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan bolyuslar texnologiyasi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan damlama, qayntma va shilimshiqalar texnologiyasi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan shamchalar va qalamchalar texnologiyasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan steril dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi va antiseptik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi

Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premiklarni zamonaviy nomenklaturasi
Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik preparatlarni zamonaviy nomenklaturasi
Veterinariya dori turlarini jihozlash uchun ishlatiladigan materiallar ta'rifi va ularga qo'yiladigan materiallar
Zamonaviy veterinariya vaksinalari, zardoblari va globulinlari nomenklaturasi

«Dori turlari texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari»fanidan MI bajariladi:

1- Bo`lim:

Bolalarga mo`ljallangan dorilarni zamonaviy nomenklaturasi- 8 soat
Bolalarga mo`ljallangan dorilarni yaratishda tabiiy va sun'iy korrigentlar- 10 soat
Geriatrik dorilarni zamonaviy nomenklaturasi-8 soat

2- Bo`lim

Infuzion eritmalarini zamonaviy nomenklaturasi- 10 soat
Ko`z tomchilarning zamonaviy nomenklaturasi- 8 soat
Steril dorilarda qo`llaniladigan konservantlar va antioksidantlar- 7 soat
Radiofarmatsevtik preparatlarning nomenklaturasi- 7 soat

MI ni bajarish shakllari

Har bir bo`lim uchun 1 ta MI bajarish shakli quyidagilardan tanlab olinadi:

1. Tanlangan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
2. Internetdan ma'lumot to'plash;
3. mavzu bo'yicha bibliografik annotatsiya tayyorlash A4 formatning 1/4 qismiga
4. mavzu bo'yicha virtual mashqulot uchun 1 ta stsenariy yozish.
5. mavzu bo'yicha, axborot texnologiyalarni qo'llab, 1-ta taqdimot majmuasini tayyorlash.
6. mavzu bo'yicha test savollarini tuzish

MI bajarishda ijodiy yondoshuv

MI bajarishda talabalarning mustaqil fikrlashiga, hamda fanni o'zlashtirishda ijodiy yondoshuviga imkon berish maqsadida, kelishilgan holda, quyidagi amallarni bajarishlari mumkin:

fan bo'yicha quvnoqlar-zukkolar o'yinlarini o'tkazish;
namunalar majmuasini ko'rgazmasini tayyorlash (stend, buklet);
turli-xil ko'rinishdagi tanlovlar uyushtirish va o'tkazish;
MI ni natijalariga ko'ra maksimal balning 55% dan kam to'plagan holatida shu fan bo'yicha yakuniy nazoratga magistrant kiritilmaydi.

TMI ning hajmini kafedra xodimlari har bir talaba uchun quyidagi hajmda belgilaydi.

I. Agar talaba tanlangan mavzusi bo'yicha referat yoki bibliografik annotatsiya tayyorlaydigan bo'lsa:

- 5 yillik adabiyotlarni ko'rib chiqib, internet ma'lumotlaridan foydalanib, qo'lyozma shaklida 8 bet referat yoki 10 ta annotatsiya tayyorlasa - 5 ball;

- 5 yillik adabiyotlarni ko‘rib chiqib, internet ma’lumotlaridan foydalanib, qo‘lyozma shaklida 6 bet referat yoki 8ta annotatsiya tayyorlasa - 4 ball

- 5 yillik adabiyotlarni ko‘rib chiqib, internet ma’lumotlaridan foydalanib, qo‘lyozma shaklida 4 bet referat yoki 6ta annotatsiya tayyorlasa 3 ball bilan baholanadi.

3 betdan kam tayyorlangan referat yoki 5ta dan kam tayyorlangan annotatsiya baholanmaydi.

II. Agar talaba tanlagan mavzu bo‘yicha internetdan ma’lumot to‘plasa:

-3 ta va undan ortiq sayt ma’lumotlaridan foydalansa -5 ball;

-2 ta sayt ma’lumotlaridan foydalansa -4 ball

-1 ta sayt ma’lumotlaridan foydalansa -3 ball bilan baholanadi.

III. Agar talaba tanlagan mavzu bo‘yicha taqdimot tayyorlasa:

- taqdimot 10 ta va undan ortiq slayddan iborat bo‘lsa -5 ball;

- taqdimot 8 ta slayddan iborat bo‘lsa -4 ball

- taqdimot 6 ta slayddan iborat bo‘lsa -3 ball bilan baholanadi;

IV. Agar talaba tanlagan mavzu bo‘yicha test savollarini tayyorlasa:

-8 -10 test tuzilsa - 5 ball;

-6-7 test tuzilsa - 4 ball

- 4-5 test tuzilsa - 3 ball

**Toshkent farmatsevtika instituti
Dori turlari texnologiyasi kafedrası**

**«Tasdiqlayman»
O`quv ishlari bo`yicha prorektor v.b.
f.f.d., prof. Zaynutdinov X.S. _____
20____yil “ _____ ” _____**

Magistratura talabalarini reyting ko`rsatkichlarini baxolash

Mezoni

Toshkent

Ushbu mezon dori turlari texnologiyasi kafedrasida “_____” _____ 20__ yildagi yig`ilishida muvofiq qilingan va tasdiqlandi (bayonnoma № ____)
Mazkur Nizom O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli «Oliy talim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baqolashning reyting tizimi to`g`risidagi nizomga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish xaqidagi 1981-1-sonli buyruq asosida ishlab chiqildi.

Umumiy qoidalar

1. Magistratura talabalari bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baxolashdan maqsad ta`lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, fanlarni o`zlashtirishida bo`shliqlar qosil bo`lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

1.2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) Magistratura talabalarida Davlat ta`lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko`nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va taqlil qilib borish;
b) magistratura talabalari bilimi, ko`nikma va malakalarini baqolashning asosiy tamoyillari: davlat ta`lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, xaqqoniylik, ishonchlilik va kulay shaklda baqolashni ta`minlash;

v) fanlarning magistratura talabalari tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o`zlashtirishini tashkil etish va taqlil qilish;

g) magistratura talabalarida mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) magistratura talabalari bilimni xolis va adolatli baqolash qamda uning natijalarini vaqtida ma`lum qilish;

e) o`quv jarayoning tashkiliy ishlarini kompyutrlashtirishga sharoit yaratish.

1.3. Fanlar bo`yicha magistratura talabalari bilimni semestrda baxolab borish reyting nazorati jadvallari va baqolash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

1.4. Magistratura talabalari bilimni 100 balli reyting tizimi orqali baqolash fanlarni chuqur o`zlashtirish, topshiriqlar va uy vazifalarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash va ishlashni ko`zda tutuvchi, umumiy o`quv yuklamasini qisobga olish, o`z bilimi va ko`nikmalarini muntazam ravishda oshirishga intilish, qamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni shakllantirishga erishiladi.

Baqolash mezonlari

2.1. Magistraturada o`qitiladigan barcha fanlar bo`yicha ma`ruza va amaliy mashqulotlari olib boriladi. Ushbu fanlarga ajratilgan soatlar taqsimoti ishchi dasturlarda ko`rsatilgan

2.2. Magistratura talabalarining fanlar bo`yicha o`zlashtirishlarini baqolash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi: joriy nazorat (JN); mashqulotlardan bo`sh vaqtda magistratura talabalar mustaqil ishini (MI) baqolash ; oraliq nazorat (ON); yakuniy nazorat (YaN). Fan bo`yicha to`planadigan 100 ballning 70 bali JN, ON, MI va 30 bali YaN ajratilgan.

Joriy nazorat

Magistraturada o`qitiladigan barcha fanlar uchun joriy nazorat (mustaqil ish bilan birgalikda) 70 ball bilan baqolanadi. Semestr davomida to`planadigan 70 ball dan 50 ball JN ga, 15 ball ON ga va 5 ball MI ajratiladi. Joriy nazorat semestr davomida 10 marta o`tqaziladi va 5 ball dan baxolanib, undan:

- 1,0 ball magistratura talabaning mavzu bo'yicha tayyorgarligiga;
- 3,0 ball-amaliy topshiriqlarni bajarishga;
- 1,0 ball mavzuni o'zlashtirishni baxolash uchun taqsimlanadi.

Joriy nazoratni baholash mezonlari

O'zlashtirish balli, %	Baho
(86-100%) 4,3-5,0	A'lo "5"
(71-85%) 3,55%-4,25	Yaxshi "4"
(55-70 %) 2,75-3,5	qoniqarli "3"
(0-54%) 2,7 balldan kam	qoniqarsiz "2"

Mavzu bo'yicha magistratura talabasining nazariy tayyogorligini baholash mezonlari

O'zlashtirish bali	Baholash mezonlari
(86-100%) 0,86-1	Berilgan savollarga to'liq javob bor, talaba savolning mazmunini va mohiyatini chuqur anglaydi, texnologik jarayonlarni yaxshi fikrlaydi
(71-85%) 0,71-0,85	Savollarga javob to'la, ammo jarayonning texnologik mohiyatida qisman kamchiliklar bor. Tahlil usullari va ularning nazariy tomonlari to'la yoritilmagan
(55-70 %) 0,55 -0,7	Savollarga to'la javob bemagan, qo'yilgan masalani mohiyatini tushunadi, ammo ijodiy yondashish yo'q, mavzu yuzasidan fikrlash doirasi ko'ngildagidek emas
(0-54%) 0,54 balldan kam	Mavzu yuzasidan tayyorgarligi past, qo'yilgan savollarga, berilgan javoblar yo'q yoki o'ta yanglish. Tahlil usullari va ularning mohiyati haqida tushuncha yo'q.

Magistratura talabasining amaliy ishini baholash mezonlari

O'zlashtirish bali	Baholash mezonlari
(86-100%) 2,58-3,0	Magistratura talabasi belgilangan topshiriqlarni to'liq va aniq bajaradi. Har bir ayrim ko'rsatkichni to'g'ri va bexato aniqlay oladi. Masalaning yechimiga ijodiy yondasha oladi.
(71-85%) 2,13-2,55	Magistratura talabasi belgilangan topshiriqlarni to'liq bajaradi. Har bir ayrim ko'rsatkichni

	to'g'ri aniqlay oladi. Masalaning yechimiga ijodiy yondasha olmaydi.
(55-70 %) 1,65-2,1	Belgilangan topshiriqlarni qisman bajaradi. Ayrim ko'rsatkichni to'g'ri aniqlay olmaydi. Bajarilayotgan ishni mohiyatini to'la tushunmaydi.
(0-54%) 1,62 balldan kam	Belgilangan topshiriqlarni qisman bajaradi. Bajarilayotgan ishni mohiyatini tushunmaydi va mustaqil yondasha olmaydi.

JN baholashda magistratura talabasini ma'ruzaga qatnashishi va ma'ruza daftari borligi hisobga olinadi.

Oraliq nazorat

Oraliq nazorat fan uchun semestrda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat kafedra majlisi qarori bilan yozma ish va test shakllarida o'tkaziladi. Oraliq nazoratga 15 ball ajratiladi.

ON baholash mezonlari

O'zlashtirish bali	Baho
(86-100 %) 12,9-15,0	A'lo "5"
(71-85 %) 10,65-12,75	Yaxshi "4"
(55 - 70 %) 8,25-10,5	qoniqarli "3"
(0-54 %) 8,10 balldan kam	qoniqarsiz "2"

Yakuniy nazorat

YaN fan bo'yicha mashg'ulotlar tugaganidan semestr yakunida o'tkaziladi. YaN ga JN va ON dan ijobiy bahoga ega bo'lgan magistratura talabalari quyiladi. YaN shakli yozma ish, og'zaki yoki ushbu usullar kombinatsiyasida ilmiy kengash qarori bilan belgilanib, 30 balli reyting tizimida baholanadi.

YaN baholash mezonlari

To'plagan balli	Baho
(86-100 %) 25,8-30,0	A'lo "5"
(71-85 %) 21,5-25,5	Yaxshi "4"
(55 - 70 %) 16,5-21,00	qoniqarli "3"
(0-54 %) 16,2 balldan kam	qoniqarsiz "2"

Talaba bilimini baholash tartibi

JN, ON va YaN turlarida fanni o'zlashtira olmagan (55 baldan kam ball to'plagan) yoki sabab bilan baholash turlarida ishtirok eta olmagan magistratura talabalar dekanning ruxsati bilan qayta topshiradilar.

O'zlashtirish natijalarini rasmiylashtirish

Fan bo'yicha o'tkaziladigan baholash turlaridan to'plagan ballar miqdori qaydnomada qayd qilinadi. Reyting daftarchasida fan bo'yicha umumiy yuklama (soatlarda), jami ball, to'plagan ball, o'zlashtirish balli va baho ko'rsatiladi. Fan bo'yicha o'tkaziladigan baholash turlarining (JN,ON va YaN) natijalari kafedra tomonidan reyting nazorati ekranida muntazam ravishda yoritib boriladi.

Talabaning fan bo'yicha 1 semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \times O'}{100}$$

Bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);
O' - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Kafedra mudiri, f.f.d.

Yo.S.Karieva

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

**MAGISTRATURADA O‘QITILADIGAN FANLARDAN MAGISTRATURA
TALABALARIGA**

**KURS ISHINI BAJARISH UCHUN
USLUBIY KO‘RSATMA**

Toshkent

**Tuzuvchilar: prof.Nazarova Z.A., dots. G.M. Tureeva,
dots. N.S.Fayzullaeva**

**Uslubiy ko'rsatma kafedraning yig'ilishida muxokama qilingan va
tasdiqlangan 20__yil _____-sonli bayonnoma.**

KIRISH

Kurs ishini bajarish maqsadi magistratura talabalarni ma'lum fanlardan olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustaqil va keng doirada chuqur o'zlashtirilishiga, hamda fan sohasidagi ilmiy adabiyot manbalari bilan tanishish va ulardan to'g'ri foydalana bilish qobiliyatini oshirishdan iborat

Dori turlari texnologiyasi kafedrasida magistraturada o'qitiladigan quyidagi fandan kurs ishi rejalashtirilgan:

1. Mutaxassislik 5A320406-Dori vositalari va preparatlar texnologiyasi- «Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish asoslari». Kurs ishi ustida magistratura talabalari 1 semestrda ishlab, so'ngra kafedrada himoya qilib topshiradilar.

Kurs ishlari mavzulari magistratura talabalarga semestr boshida taqsimlab beriladi. Kurs ishlari mavzulari fanlar uchun tuzilgan ishchi dasturlarda keltirilgan.

Umumiy qoidalar

Kurs ishi kafedra tomonidan berilgan mavzu asosida bajaradi. Mavzuni yoritishda reja quyidagi qismlardan iborat bo'lishi kerak:

I. Kirish.

II. Adabiyotlar sharhi

III. Amaliy qismi.

IV. Xulosa.

V. Fodalanilgan adabiyotlar.

Kurs ishini bajarishda tarkibiy qismlarning hajmi 1-ilova keltirilgan.

Kurs ishi qo'lyozma shaklida, hajmi 12-20 betdan kam bo'lmagan xolda topshiriladi. Har bir varaqning xoshiyalari chap tomondan 3 sm, yuqori va past tomondan 2 sm, o'ng tomondan 1 sm joy qoldirilishi va har bir betda 24-25 qator bo'lishi lozim. Kurs ishini zarvarag'ini yozilishi 2 ilova keltirilgan

Adabiyotlar soni 20 tagacha bo'lishi va internet ma'lumotlaridan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

Kurs ishlarini baholash mezonlari

YUqorida keltirilgan fanlar bo'yicha bajarilgan kurs ishlari 100 ball tizimida baholanadi:

A'lo baxo (86-100) olish uchun:

- kurs ishining adabiyot sharxi mavzuga binoan aniq, barcha talablarga rioya qilgan xolda yozilgan bo'lsa – 40 ball (%);
- adabiyotlar ro'yxati talablarga binoan to'liq tuzilgan bo'lsa – 20 ball (%);
- amaliy qismi to'liq yoritilgan bo'lsa – 40 ball (%)

Yaxshi baxo (71-85) olish uchun:

- Kurs ishining adabiyot sharxi mavzuga binoan, ayrim talablarga rioya qilmagan xolda yozilgan bo'lsa – 35 ball (%);
- Adabiyotlar ro'yxati talablarga binoan tuzilgan bo'lib, ammo ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa – 15 ball (%);

- amaliy qismi etarli darajada yoritilgan bo‘lib, ammo ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa – 35 ball (%)

Qoniqarli baxo (65-70 %) olish uchun:

- Kurs ishining adabiyot sharxi to‘liq yoritilmagan bo‘lib, ayrim kamchiliklar mavjud bo‘lsa 30 ball (%);

- adabiyotlar ro‘yxatida ayrim kamchiliklar bo‘lsa va talablarga to‘liq javob bermasa - 10 ball (%);

- amaliy qismi to‘liq yoritilmagan bo‘lsa – 25 ball (%)

Kurs ishini topshirmagan magistrant shu fandan YAB ga kiritilmaydi.

KURS ISHI MAVZULARI

“Gomeopatik va veterinar dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalari” fanidan kurs ishlari rejalashtirilgan bo‘lib, bu bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan uslubiy ko‘rsatma tayyorlangan.

1. Noan'anaviy davolash usullari ta'rifi, tasnifi.,
2. Gomeopatiya ta'limotining tarixi va rivojlanishiga qissa qo'shgan olimlarning merosi.
3. Gomeopatik sirtqi suyuq dorilar texnologiyasi.
4. Gomeopatik murakkab tarkibli preparatlar texnologiyasi.
5. Gomeopatik eliksirlar texnologiyasi
6. Gomeopatik preparatlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar.
7. Gomeopatik dorilarni patogenezi xakida tushuncha. Keng qo'llaniladigan dorilarni patogenezi ta'rifi.
8. Germaniya, Avstriya, Frantsiya, AQSh, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston va boshqa davlatlarida ishlab chiqarilayotgan gomeopatik dori preparatlari nomenklaturasi.
9. Gomeopatiyada qo'llaniladigan nozodlar va sarkordlarning ishlab chiqarilishi va zamonaviy nomenklaturasi.
10. Veterinariya faning tarixi va rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy veterinariya dori preparatlari nomenklaturasi.
11. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan immun tizimiga ta'sir etuvchi va mahsuldorlikni oshiruvchi preparatlar texnologiyasi.
12. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan premikslar texnologiyasi.
13. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan suyuq dori preparatlari texnologiyasining o'ziga xosligi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi.
14. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan miksturalar texnologiyasi.
15. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan in'eksion eritmalar texnologiyasi.
16. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan qattiq dori preparatlar texnologiyasining o'ziga xosligi va ularni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar va yordamchi moddalar ta'rifi
17. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan poroshoklar, yig`malar va briketlar texnologiyasi.

18. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan granulalar, tabletkalar, drajelar, kapsulalar texnologiyasi.

19. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan dezinfektsiyalovchi, antiseptik, insektitsid-akaritsid preparatlar texnologiyasi.

20. Veterinariya amaliyotida ishlatiladigan gomeopatik dori vositalari texnologiyasi

Kurs ishlarini bajarishda tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

5. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 367. (darslik).

6. Тихонов А.И. и др. Основы гомеопатической фармации.-Харьков: Золотые страницы, 2002.-574 с.

7. Тихонов А.И., Ярных Т.Г. Технология лекарств.-Харьков, 2002-704 с.

8. Чуешов В.И. Промышленная технология лекарств. - Харьков, 2002.- Т.2.- 761 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Махмуджанова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М. Махсус дори турлари технологияси. – Тошкент, 2009.- 163 б.

2. Махмуджонова К.С., Назарова З.А., Туреева Г.М., Файзуллаева Н.С., Назирова Я.К. “Дори тайёрлаш технологияси” фанидан маъруза матнлари.- Тошкент, 2005.-320 б.

3. Синёв Д.И., Марченко Л.Г., Синёва Т.Д. Справочное пособие по аптечной технологии лекарств.-С.Петербург, 2001.-316 с.

4. Александров И.Д., Субботин В.М. Справочник по технологии приготовления лекарственных форм: для ветеринарного врача и фермера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. -192 с.

5. Назиров З.Н. Гомеопатия.-Тошкент, 2001.- 87 с.

6. Вовк Д. М. Справочник по ветеринарной рецептуре и технологии изготовления лекарственных форм. Киев, Урожай, 1989. - 223 с.

7. Мозгов И.Е. Ветеринарная рецептура. М.: Агропромиздат, 1966.- 256 с.

8. Рабинович М.И. Практикум по ветеринарной фармакологии и рецептуре. - М.: Агропромиздат, 1988. - 239 с.

9. Червяков Д.К., Евдокимов Д.П., Вишкер А.С. Лекарственные средства в ветеринарии. - М.: Колос, 1977. - 496 с.

Интернет сайтлари

1. [www. http://protabletki.ru](http://protabletki.ru)

2. [www. http://nanolab.com.ua](http://nanolab.com.ua)

РЕЖА

I. Кириш (1-2 бет)

II. Адабиётлар шарҳи

1.

2. 10-15 бет.

3.

4.

III. Амалий қисм

1.

2.

3. 8-10 бет

4.

IV. Хулоса (1-2 бет)

**Ү.Фойдаланилган адабиётлар руйҳати.
(20 та манбадан кам эмас).**

VI Мундарижа.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

Mutaxassislik.....

Fan:.....
fan nomi

KURS ISHI

Mavzu:

1 kurs, __ guruh magistratura talabasi _____

Rahbar: _____

Toshkent – 2016 y

MUALLIF HAQIDA MA`LUMOT

МАЪЛУМОТНОМА

Назарова Зарифа Алимджановна



2003 йил 16 апрелдан:

**Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси»
кафедраси профессори**

Туғилган йили:
11.09.1940

Туғилган жойи:
Тошкент шаҳри

Миллати:
Ўзбек

Партиявийлиги:
партиясиз

Маълумоти:
олий

Тамомлаган:
1963 й Тошкент фармацевтика институти
(кундузги)

Маълумоти бўйича мутахассислиги:

провизор

Илмий даражаси:
фармацевтика фанлари доктори

Илмий унвони:
профессор

Қайси чет тилларини билади:
рус тили

Давлат мукофотлари билан тақдирланганми (қанақа):

1993 йил “Меҳнат ветерани”, 1992 йил “ Ўзбекистон мустақиллик 1 йиллигига бағишланган” 2010 йил “ Соғлиқни Сақлаш Вазирлиги аълочиси” медаллар ва ЎзР ўрта ва олий таълим вазирлигининг фахрий ёрлиғи билан тақдирланган.

Халқ депутатлари, республика, вилоят, шаҳар ва туман Кенгаши депутатими ёки бошқа сайланадиган органларнинг аъзосими (тўлиқ кўрсатилиши лозим)

Тошкент шаҳри Миробод тумани Халқ депутати (1987-1991 йй.)

МЕҲНАТ ФАОЛИЯТИ

1958-1963 йй - Тошкент фармацевтика институти талабаси

1963-1964 йй - Тошкент фармацевтика институти «Ноорганик, физик ва коллоид кимё»
кафедраси катта лаборанти ва ассистенти (0.5)

1964-1966 йй - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
стажёр-тадқиқотчиси

1966-1969 йй - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
аспиранти

1969-1980 йй - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
ассистенти

1980-1985 йй - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
катта ўқитувчи

1985-2003 йй - Тошкент фармацевтика институти «Махсус дори турлари технологияси»
кафедраси доценти

1988-2003 йй - Тошкент фармацевтика институти «Махсус дори турлари технологияси»
кафедраси мудири

2003-й. ҳ.в - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
профессори

МАЪЛУМОТНОМА
Файзуллаева Нодира Султановна



2006 йил 16 октябрдан:

**Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
доценти, Илмий бўлими бошлиғи (ўриндошлик асосида)**

Туғилган йили:
24.11.1963

Туғилган жойи:
Тошкент шаҳри

Миллати:
ўзбек

Партиявийлиги:
йўқ

Маълумоти:
олий

Тамомлаган:
1987й Тошкент фармацевтика институти
(кундузги)

Маълумоти бўйича мутахассислиги:

провизор

Илмий даражаси:
фармацевтика фанлари номзоди

Илмий унвони:
доцент

Қайси чет тилларини билади:
рус тили

Давлат мукофотлари билан тақдирланганми (қанақа):
йўқ

**Халқ депутатлари, республика, вилоят, шаҳар ва туман Кенгаши депутатими ёки бошқа
сайланадиган органларнинг аъзосими (тўлиқ кўрсатилиши лозим)**
йўқ

МЕҲНАТ ФАОЛИЯТИ

1987-1991 йй. - Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш Вазирлиги «Илмий
режалаштириш» бўлими провизор-инспектори

1991-1993 йй - Тошкент фармацевтика институти «Фармация ишини ташкил қилиш»
кафедраси стажёр-ўқитувчиси

1993-1997 йй - Тошкент фармацевтика институти «Тайёр дори турлари технологияси»
кафедраси аспиранти

1998-2000 йй - Тошкент фармацевтика институти «Махсус дори турлари технологияси»
кафедраси ассистенти ва катта ўқитувчиси

2000-2003 йй - Тошкент фармацевтика институти «Махсус дори турлари технологияси»
кафедраси докторанти

2003-2006 йй - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технологияси» кафедраси
катта ўқитувчиси

2006 й. - йй - Тошкент фармацевтика институти илмий бўлим бошлиғи (ўриндошлик асосида)

2006 й. - ҳ.в - Тошкент фармацевтика институти «Дори турлари технололгияси» кафедраси
доценти

MUNDARIJA

betlar

O'quv dastur.....	4
Ta'lim texnologiyalari.....	15
Masala va mashqlar to'plami.....	97
Test nazorat savollari.....	102
Nazorat uchun savollar (ON,YAN)	140
Tarqata materiallar*	146
Glossariy.....	193
Referat va mustaqil ishi mavzulari.....	211
Adabiyotlar ro'yxati.....	212
Xorijiy manbalar, Internet saytlar	213
Tayanch so'zlari.....	214
O`quv materiallari (m'aruza matnlari va o'quv qo'llanmalar)*	215
Kurs ishlari mavzulari.....	280
Annotatsiyalar.....	281
Foydali maslahatlar.....	288
Me'yoriy xujjatlar.....	292
Magistratura talabalarini reyting ko`rsatkichlarini baxolash mezoni.....	309
Muallif haqida ma`lumot.....	327
Mundarija.....	330

* Tarqata materiallar, m'aruza matnlari va uslubiy qo'llanmalar alohida jildda iliva qilinadi